https://hstryres.uz/journal/index.php/makro
2025, № 5 (11)
*ISSN-3030-3761*

# ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

# ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

# HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
**HISTORICAL RESEARCHES**

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
**Юнусова Хуршида Эркиновна**
*тарих фанлари доктори, профессор*
*Ўзбекистон Миллий университети*

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
**Шакиров Иляс Рахимзянович**
*т.ф.ф.д., (PhD)*
*Ўзбекистон Миллий университети*

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Сулейманов Рустам Хамидович**
тарих фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Муминов Алишер Гаффарович**
Сиёсий фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Зуев Андрей Сергеевич**
тарих фанлари доктори, профессор
*Новосибирск Давлат университети*
**Ишанходжаева Замира Раймовна**
тарих фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Кобзева Ольга Петровна**
тарих фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Холикулов Ахмад Баймахаматович**
тарих фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Габриэльян  Софья Ивановна**
тарих фанлари доктори, доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Убайдуллаева Барно Машрабжонова**
тарих фанлари доктори, доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Очилдиев Файзулла Бобокулович**
тарих фанлари доктори, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович**
тарих фанлари номзоди, профессор
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Азизов Илдар Рафаэлевич**
тарих фанлари доктори (DSc)
*Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби*

**Сиддиков Равшан Бердимуратович**
тарих фанлари номзоди, доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Тухтабеков Козимбек Азимбекович**
тарих фанлари номзоди, доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Бабабеков Акбар Давурбаевич**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Бахранов Шерзод Таштурсунович**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
*Жамоат ҳафсизлиги университети*
**Алиназарова Дилдора Валишеровна**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Холиқулова Шахноза Боймухамматовна**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
*Навоий Давлат педагогика институти*
**Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Абдулаева Нигора Санжаровна**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
*Америка технологиялар университети*
**Тоғаев Жасур Эркинович**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Усаров Умид Абдумавлянович**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
*Ўзбекистон Миллий университети*
**Эшкувватов Бобир Валикул ўғли**
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)., доцент
*Ўзбекистон Миллий университети*

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university ofUzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web:Https://hstryres.uz/journal/
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

# МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT


1 **Абдукаримова Мадинабону Ирисмухаммад кизи** **4**
ИСТОРИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СОЮЗОВ РАБОТНИКОВ ПЕЧАТНОГО ДЕЛА

2 **Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi** **9**
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YUQUMLI KASALLIKLARGA QARSHI KURASH

3 **Anarbayev Abdulxamidjon Anarbayevich, Oynazarov Xoliyor Gaimnazarovich, Bekmirzayev Islomjon Ibroxim o‘g'li** **15**
G’OVASOY HAVZASI PETROGLIFLARI

4 **Ваисова Нодирабегим Авазовна** **33**
ИСТОРИЯ СОГДА И СОГДИЙЦЕВ В ТРУДАХ АКАДЕМИКА Ю. Ф. БУРЯКОВА

5 **Begimqulova Laylo Mashrabjonovna** **42**
TEMURIYLAR DAVLATINING BARQARORLIGIDA MIRONSHOH SULTONNING TUTGAN O‘RNI

6 **Begimqulova Laylo Mashrabjonovna, Yigitaliyeva Shahzoda Shavkatjon qizi** **47**
XONZODA BEGIM – TEMURIYLAR DAVRINING SIYOSIY FAOL AYOLI

7 **Egamberdiyeva Turgunoy Ahmadjanovna, Abdunosirova Ozodaxon Botirjon qizi** **54**
SAROYMULKXONIMNING MADANIY-MA’RIFIY FAOLIYATI

8 **Israilov Nodir Rahimjonovich** **60**
AMIR TEMUR VA SULTON BOYAZID MUNOSABATLARI MARI ARUE VOLTER TALQINIDA

9 **Матхолиқов Қахрамонжон Абдуқодирович** **66**
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРИШ ТУРИЗМИ ШАКЛЛАНИШНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛ

10 **Муртазаева Рахбар Хамидовна** **76**
ТОЛЕРАНТНОСТЬ КАК НЕОТЪЕМЛЕМЫЙ ПРИНЦИП МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

11 **Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich** **83**
CHOCHNING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLARDAGI IBODAT ME’MORCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

12 **Oxunjonova Shahodat Yusufjon qizi** **93**
SAVDO MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIY RASTALARDAN VIRTUAL BOZORLARGACHA (1996 - 2024 YILLAR)

13 **Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi** **101**
XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA GENDER TENGLIK TAMOYILINING ILMIY TALQINI

***Абдукаримова М. И.***
Самостоятельный исследователь кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
mb.abdukarimova@gmail.com

# ИСТОРИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ СОЮЗОВ РАБОТНИКОВ ПЕЧАТНОГО ДЕЛА

***АННОТАЦИЯ***

В статье рассматриваются процессы становления и развития профессиональных союзов работников печатного дела на территории современного Узбекистана. Особое внимание уделено уставу профсоюза работников печатного дела Туркестана. Приведён анализ основных положений этого устава.

***Ключевые слова:*** история профсоюзов, печатное дело, типография, устав, Туркестан, примирительная камера.

## *ВВЕДЕНИЕ*

Печатное дело, являясь основой распространения информации и знаний, сыграло ключевую роль в формировании общественного сознания и культурного наследия. С развитием этой отрасли возникла необходимость в защите прав и интересов работников, что привело к созданию профессиональных союзов. Профсоюзы работников печатного дела стали важной частью истории рабочего движения. Их деятельность была направлена не только на защиту социально-экономических интересов членов объединений, но и на развитие самой системы печатного производства.

В современном мире, где информация стала стратегическим ресурсом, значение печатного дела и связанных с ним профессий продолжает расти. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подчеркнул важность этой сферы, отметив, что «печатное дело и журналистика становятся не только «четвертой властью», но и ключевым направлением, по значимости сравнимым с обеспечением обороны и безопасности» [1]. Это утверждение подчеркивает необходимость изучения истории профсоюзов печатного дела, их эволюции и влияния на современное общество.

Настоящая статья посвящена анализу возникновения профсоюза работников печатного дела в Туркестане и рассмотрению ключевых положений его устава.

## *ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ*

Следует отметить, что первые профсоюзы работников печатного дела начали формироваться в странах Европы (Великобритании, Франции и Германии) и Северной Америки в XVIII–XIX веках по мере индустриализации и роста числа наёмных типографских рабочих. В 1896 году была основана Международная федерация литографов,

литографических печатников и родственных профессий (International Federation of Lithographers, Lithographic Printers and Kindred Trades), ставшая одной из первых международных профсоюзных организаций в этой сфере [10].

Анализ архивных источников и литературы показывает, что первые типографии на территории Туркестана появились во второй половине XIX века. В 1868 году в Ташкент была завезена первая типография из России, а уже в 1869 году – вторая, предназначенная для выпуска «Туркестанских ведомостей», первой официальной газеты Средней Азии [4]. Эти события положили начало развитию печатного дела в регионе.

Тяжёлые условия труда, низкая заработная плата и нарушение экономических прав вызвали недовольство трудящихся разных сфер, что в итоге вылилось в волну забастовок в начале XX века. В результате длительных забастовок трудящиеся Туркестана с 1905 года начали создавать ряд профессиональных союзов для защиты своих экономических и профессиональных прав. Наряду с Среднеазиатским отделением Всероссийского железнодорожного союза и Туркестанским отделом почтово-телеграфного союза были созданы ряд профессиональных союзов бухгалтеров, конторщиков и лиц, занимающихся письменным трудом, строительных рабочих, рабочих механического производства, портных и сапожников, официантов, поваров и домашней прислуги, а также профессиональный союз работников печатного дела [3].

Об этом свидетельствуют ряд исторических документов, такие как сведения Военного губернатора Сырь-Дарьинской области о действующих профессиональных союзах в Туркестане от 5 июня 1907 года, телеграмма начальника города Ташкента полицмейстеру русской части города от 8 июня 1907 года о предоставлении уставов профессиональных союзов конторщиков и бухгалтеров, фельдшеров и фельдшериц, печатного дела, портных и шляпочниц, сапожников, официантов, поваров и домашней прислуги [3].

Первое учредительное собрание профессионального союза работников печатного дела Туркестана, а именно наборщиков, печатников накладчиков, переплетчиков, литографов, цинкографов и корректоров состоялось 3-ого сентября 1906 года в 9 часов утра в помещении цирка Цинцадзе в Ташкенте [5] (в нынешнем Дворце профсоюзов Узбекистана).

15 сентября 1906 года учредители Георгий Трофимов Кобылковский, Николай Петров Пахомов, Андрей Парфирьевич Иванов, Андрей Федорович Смирнов, Павел Дмитриевич Сидоров представили военному губернатору Сырь-Дарьинской области устав профессионального общества под названием «Союз работников печатного дела». Устав состоял из 41 статьи, включая вопросы закрытия союза, и был утвержден военным губернатором Сырдарьинской области, генерал-лейтенантом Романовым 22 сентября 1906 года [7].

В уставе было отмечено, что деятельность профессионального союза, находящегося в Ташкенте, распространяется на весь Туркестанский край. Согласно уставу, союз рабочих печатного дела был создан с целью защиты

правовых и профессиональных интересов своих членов, содействия их интеллектуальному и профессиональному развитию. Следовательно, профессиональный союз организовывал библиотеки, публичные лекции, чтения и курсы с общеобразовательной целью и для выяснения текущих вопросов, затрагивающих профессиональные интересы рабочих печатного дела [7].

Примечательной стороной Устава заключается в том, что для защиты прав и интересов трудящихся в нем было предусмотрено положение об организации примирительной камеры. В соответствии с пунктом г) второй статьи устава для регулирования конфликтов между работодателями и работниками, возникших на почве профессиональных интересов профессиональные союзы организовывали примирительные камеры. Положения о примирительных камерах вполне можно считать аналогичными нормам о комиссиях по трудовым спорам, закрепленных в Трудовом кодексе Республики Узбекистан (545 статья) [9] и в Законе Республики Узбекистан «О профессиональных союзах» (35 статья) [6], что в очередной раз доказывает что еще 120 лет назад в Туркестане существовали практики регулирования трудовых отношений и разрешения трудовых споров, что свидетельствует о развитии социальной и правовой сферы региона.

Помимо этого, профессиональный союз вступал в соглашение с работодателями в целях обсуждения вопросов о нормировании заработной платы, рабочего дня и других условий труда, а также осуществлял контроль за полным выполнением соглашений как со стороны работодателей, так и со стороны членов союза. Устав также включал в себя вопросы материальной помощи своим членам во время безработицы, болезни и содействия при предоставлении юридической и медицинской помощи. Членами профессионального союза могли стать все работники печатного дела, достигшие 18-летнего возраста вне зависимости от пола, религии и национальности. Средства союза образовывались из вступительных взносов, из ежегодных, ежемесячных, единовременных взносов, из процентов на капиталы, а также пожертвований [7].

Однако в 1907-1908 годах, как и ряд других профессиональных союзов Туркестана, профессиональный союз работников печатного дела прекратил свое существование, и лишь спустя 10 лет, в 1917 году, вновь был создан. К I Краевому съезду советов профессиональных союзов Туркестана, в 1919 году профессиональные союзы рабочих печатного дела осуществляли деятельность в Ташкенте, Самарканде, Андижане, Коканде, и Намангане [8].

## *ЗАКЛЮЧЕНИЕ*

Таким образом, профсоюзы работников печатного дела, созданные в Туркестане в 1905-1906 годах, стали важным этапом в развитии трудового движения в регионе. Принятый ими устав отражал высокую степень организационной зрелости и стремление к системной защите трудовых прав. Особое внимание уделялось вопросам регулирования условий труда – нормированию заработной платы, продолжительности рабочего дня, а также

созданию механизмов разрешения трудовых споров через примирительные органы. Существенным достижением стало также включение в устав положений о материальной, юридической и медицинской поддержке членов союза. Эти аспекты свидетельствуют о социально ориентированной направленности деятельности профсоюзов и их стремлении обеспечить всестороннюю защиту типографских рабочих в условиях начала XX века. Изучение их деятельности позволяет глубже понять эволюцию профсоюзного движения на территории Туркестана и его вклад в формирование современной системы трудовых отношений.

История профсоюзов печатного дела демонстрирует их важность в обеспечении прав работников и развитии отрасли. В Узбекистане профсоюзы продолжают играть значимую роль в жизни общества. Президент Шавкат Мирзиёев отметил, что «в деятельности профсоюзов Узбекистана, имеющих почти 120-летнюю историю, были периоды взлётов и падений, однако эта организация никогда не утрачивала свою актуальность» [2]. Это подчеркивает устойчивость и значимость профсоюзов в современной социальной структуре страны.

В условиях глобализации и цифровизации профсоюзы печатного дела сталкиваются с новыми вызовами, включая необходимость адаптации к новым технологиям и изменениям в трудовых отношениях. Однако их основная миссия – защита прав и интересов работников – остаётся неизменной. Продолжая свою деятельность, профсоюзы способствуют устойчивому развитию отрасли и общества в целом.

## *СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ*

1. Поздравление Президента Ш.М. Мирзиёева работниками печати и средств массовой информации от 26.06.2024г. Доступен на сайте: https://president.uz/ru/lists/view/7346
2. Поздравление Президента Ш.М. Мирзиёева работниками и членам профсоюзов Узбекистана от 11.11.2022г. Доступен на сайте: https://president.uz/ru/lists/view/5688
3. Абдукаримова М.И. (2023). Туркистонда илк касаба уюшмаларининг пайдо бўлиши. Газета “Ishonch” №135-142, 11 ноябрь 2023 йил. 42-43 бетлар. Доступен на сайте: https://tsue.uz/media/uploads/2023/11/11/135-142.pdf
4. Алиназарова Д.В. (2023). Становления периодической печати в Туркестане и отражение в ней социально-политической жизни края. Tarixiy tadqiqotlar, 1(1), 114–129. Доступен на сайте: https://hstryres.uz/journal/index.php/makro/article/view/56
5. Газета «Туркестан» №5 от 1 сентября 1906 г.
6. Закон Республики Узбекистан «О профессиональных союзах» от 6 декабря 2019 г. Доступен на сайте: https://lex.uz/ru/docs/4631283
7. НА Уз ф. И-17, оп.1, д. 16201.
8. НА Уз ф. Р-735, оп.1, д. 5.
9. Трудовой Кодекс Республики Узбекистан. Доступен на сайте: https://lex.uz/ru/docs/6257291

10. LONSEA – League of Nations Search Engine — академическая поисковая система/база данных: http://www.lonsea.de/pub/org/78

***Abdukarimova M. I.***
«O'zbekiston tarixi» kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
O'zbekiston Milliy universiteti
mb.abdukarimova@gmail.com

## MATBUOT VA MATBAACHILIK SOHASI XODIMLARI KASABA UYUSHMALARI TARIXI

***ANNOTATSIYA***

Maqolada zamonaviy O'zbekiston hududida matbuot va matbaachilik sohasi xodimlari kasaba uyushmalarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, Turkiston matbuot va matbaachilik sohasi xodimlari kasaba uyushmasi nizomiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada mazkur nizomning asosiy bandlari tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:*** kasaba uyushmalari tarixi, matbaa sohasi, matbaa, nizom (ustav), Turkiston, yarashtiruv instituti.

***Abdukarimova M. I.***
Independent researcher at the department of «History of Uzbekistan»
National university of Uzbekistan
mb.abdukarimova@gmail.com

## THE HISTORY OF TRADE UNIONS OF PRINTING WORKERS

***ABSTRACT***

The article examines the formation and development of trade unions of printing industry workers in the territory of modern Uzbekistan. Particular attention is paid to the charter of the Trade Union of Printing Workers of Turkestan. The article provides an analysis of the key provisions of this charter.

***Keywords:*** printing industry, printing house, charter, Turkestan, conciliation institute.

***Abdunosirova O. B.***
«Oʻzbekiston tarixi» kafedrasi katta oʻqituvchisi, PhD
Fargʻona davlat universiteti
abdunosirovaozoda@gmail.com

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YUQUMLI KASALLIKLARGA QARSHI KURASH

***ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar hamda ularning turlari, kelib chiqish sabablari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida oʻrganilgan va tahlil etilgan. Mazkur davrda faoliyat koʻrsatgan tibbiyot muassasalari, tabiblar va hukumat tomonidan yuqumli kasalliklarga qarshi koʻrilgan chora-tadbirlar hamda epidemiyalarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-adabiy jarayonlarga koʻrsatgan ta’siri haqida ba’zi fikr-mulohazalar bildirib oʻtilgan.

***Kalit soʻzlar:*** yuqumli kasalliklar, ilmiy-adabiy hayot, “vabo-toun” kasalligi, tibbiyot muassasalari, tabiblar, Moʻgʻuliston, Samarqand, Hirot, “Ravzat al-jannot”, Shifoiya, Ixlosiya.

***KIRISH***

Jahon boʻylab turli yuqumli kasalliklar va xavfli epidemiyalar tarqalmoqda. Ularga qarshi kurash, kasalliklarni oldini olish uchun oʻrta asrlarda mazkur kasalliklarni kelib chiqishi, sabablari va ularga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilganini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yuqumli kasalliklarni kelib chiqishini bir qator sabablari mavjud. Aholining zich yashashi oqibatida turli xavfli infeksiyalar paydo boʻladi va tarqalishi xavfini oshiradi;
aholining koʻchib yurishi, ya’ni koʻchib kelgan aholi oʻrtasida ham, mahalliy aholi oʻrtasida ham, infeksiya tarqalishiga olib kelishi mumkin. Ayni holat chorvador aholi orasida keng tarqalgan; suv inshootlari, ijtimoiy, maishiy obyektlarda sanitariya-gigiena holatlariga e’tibor bermaslik; chorva mollari, hayvonlar va hashoratlar ham vabo (oʻlat, toun) kabi yuqumli kasalliklarni (epidemiya) kelib chiqishining asosiy sabablaridir.

***TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI***

“Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari, Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga Amir Temur kundaligi” (1403-1406-yillar), Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asari, Ibn Arabshoxning “Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur”, Fasih Xavofiyning “Mujamali Fasihiy”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sadayn va majmai bahrayn”, Xondamirning “Habib us-siyar”, “Xulosat ul-axbor” va boshqa asarlarda

Amir Temur va temuriylar davrida yuqumli kasalliklar hamda ularga qarshi ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida muhim ma’lumotlar uchraydi.

Yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi asosiy manbalar: ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlari, ho‘l meva va sabzavotdir. Mazkur davrda yuqumli kasalliklar tarqalgan vaqtda aholi boshqa joylarga, yaylov, o‘tloqlarga ko‘chib ketgan. Oqibatda, suv yetishmasligi, oziq-oziq ovqat tanqisligi yuz berib, ahvol yanada og‘irlashgan. Shuning uchun ham epidemiya tufayli o‘lim darajasi yuqori bo‘lgan. Tarixiy manbalarga tayangan holda, Amir Temur va temuriylar davrida vabo, o‘lat (toun), chechak, qizamiq kabi yuqumli, zahm, terlama, isitma va boshqa xavfli kasalliklar uchrab turgan. Bunday yuqumli kasalliklar tarqalganda hududga kirish ta’qiqlanib (karantin), atrofi o‘rab qo‘yilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida ko‘plab shifoxonalar faoliyat yuritgan hamda ular yuqumli kasalliklarni olidini olish, davolash, vabo tarqalgan hududlarda kasallikka qarshi kurashishda juda muhim o‘rin tutgan. Movarounnahr va Xurosonda bunyod etilgan kasalxonalarning asosiy qismi sulola vakillari va davlat amaldorlari, o‘z davrining e’tiborli kishilari tomonidan qurilgan. Bosh tabib kasalxonaning faoliyati, dori-darmonlar tayyorlash va bemorlarga muolaja qilish masalalariga javobgar bo‘lgan.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashda shifoxonalarning o‘rni yuqori bo‘lgan. Shu boisdan ham Xurosonda faoliyat yuritgan shifoxonalar haqida to‘xtalib o‘tsak. Hirot shahridagi “Dorushifo” Xuroson o‘lkasidagi eng katta kasalxona hisoblangan. Shohrux mirzo davrida Shamsiddin Muhammad Odamga boshqaruvi topshirilgan. 1427-yilda Boysung‘ur mirzoning Hirotda kasal bo‘lib qolgan, mavlono Shamsiddin Muhammad Odam va mavlono Nizomiddin Sheroziy tabiblar davolashganlar [1:227].

Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux mirzoni 1444-yilda kasal bo‘lib qolganini aytib o‘tadi. Amir Jaloliddin Feruzshoh saroyga ko‘plab tabiblarni chaqirtirgan. Shayx Umar ham Shohrux mirzoni ko‘rish uchun keladi. Undan shayxni dastorini (bosh kiyimini) qoldirishni so‘raydi. Shundan so‘ng, Shohrux mirzo tuzalib ketadi [2:165]. Muarrix bu haqida quyidagicha yozadi: “Jahon sarkashlari farmon chizig‘iga bosh qo‘ygan, davro gardan yo‘g‘onlari xizmat oyog‘ida tik turar va osmon bu mamlakat ravnaqidan hayratga tushib, yomon ko‘z zahmini qaytarmoq uchun bir baxtsizlik nilini fol ahvol ruhsoriga tortdi: nogoh, u hazrat bir og‘ir kasalikka chalinib, kuchli zaiflik yuz berdi, kasallik shiddati kundan-kunga ortib bordi, ichidagi isitma harorati olob shu’lasidek tashqariga urdi” [2:164].

Abu Said mirzo davrining yirik tabiblaridan biri mavlono Qutbiddin an-Nasafiy bo‘lib [3: 658], uning vafotidan keyin Amir Xasanbekning saroyida bir muddat xizmat qiladi. Keyinchalik, usmoniylar saltanatiga ketib, Istanbulda vafot etgan.

Sulton Abu Sa’id mirzoning tabiblari  Sulton Abu Sa’id mirzo 1466-yilda kasal bo‘lib qolgan. Uning tabiblari Qutbuddin Muhammad an-Nafisiy va Asiluddin Husayn at-Tuniylar davolash uchun turli dorilarni qo‘lladi. Yana bir mohir tabiblardan biri Abdulhay tabibdir. U Alisher Navoiyning homiyligida bilim olgan. Keyinchalik, Navoiy sakta ya’ni yurak xuruji bilan kasallanganda uni davolagan tabiblardan biri edi. Xoja Abdulloh esa kasallikni tuzatish uchun qon olish

lozimligini aytadi. Bu tibbiy amaliyotni amalga oshirish uchun Sulton Husayndan ruxsat so‘rashadi va qon olishadi [4:929]. Undan besh-olti ser[1] miqdorida olingani aytiladi. Bu vaqtga kelib, kasallik kuchaygan edi, shu boisdan ham davolash muolajaalari foyda bermagan.

Xondamir “Habib us-siyar” asarida bu to‘g‘risida quyidagicha yozadi: “hazrat sultonning yaqin kishisining tomir urishi va yuzida sakta alomatlari sezilib, tabobat ilmidan xabardor bir guruh kishilar “kasallik sog‘ayishi uchun shu yerdayoq bemordan qon olish lozim” deyishdi. Mavlono Abdulhay Tuniy bularga qarshi turib “davolashda xato ro‘y bemasligi uchun Hirotga borilgach, keyin muolajani boshlash kerak deya turib oldi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, ikki tabib turli tashxis qo‘yishgan.

Movarounnahr va Xurosonda ocharchiliklar, kasalliklar, tabiiy ofatlar tarqalganda hukmdorlar tomonidan turli imtiyojlar beilgan. 1470-yilda Sulton Husayn Boyqaro Hirotni qayta egallagandan keyin qozi Qutbuddin Ahmad al-Imomiyni va mavlono Muizzuddin Shayx Husayn an-Navqiyni chaqirib, xorijiy va lashkar solig‘i ikki yil davomida olinmasligini xalqqa yetkazishni buyurgan. Shu yilning 23 avgust kuni Gozurgohda osh beriladi. O‘ttiz bosh ot, uch yuz bosh qo‘y va masalliqlar berilib, osh qilinadi [5:667].

Alisher Navoiy Hirotda “Unsiya” nomli kichikroq madarasa qurdirib, o‘zi o‘sha joyda yashagan. Shu yerda olimning shaxsiy kutubxonasi ham bo‘lgan. Kutubxonada boshqa nodir kitoblar qatorida tibga oid asralar ham bo‘lgan. “Shifoxiya” kasalxonasi tibbiy maktab uchun o‘quv-amaliyot bazasi ro‘lini o‘ynagan. Kasalllarni davolash va tibbiy maktabda dars berish uchun Navoiy Xuroson va Movaraunnahrning barcha shaharlaridan eng tajribali tabiblarni taklif etgan. Navoiyning ko‘rsatmasi bilan kasalxonaga kambag‘al-nochor bemorlar qabul qilingan. Manbalarda davolash bepul bo‘lgani qayd etilgan.

Alisher Navoiy barpo etgan “Shifoiya” kasalxonasi va “Ixlosiya” madrasasining shuhrati o‘sha vaqtidayok butun Sharqqa yoyilgan edi. Bu tibbiy kompleks 1480-1482-yillarda bunyod etilgan. Bu yerga boshqa mamlakatlardan ko‘plab talabalar kelib, bilim olishgan va mutaxassis bo‘lib o‘z yurtlariga qaytishgan. Navoiy zamonasida tibbiy bilimlar va amaliy tibbiyot yuksak darajada rivoj topgan. Shifoxona Hakim Kermoniy vafotidan keyin vujudga kelgan. Lekin, bu “Dor ush-shifo” Shohrux mirzoni xotini Milkat og‘o tomonidan qurilgan binoda tashkil etilgan edi, ya’ni qayta tiklangan [6].

Xondamirning yozishicha, kasalxonalarda davolash ishlari va talabalarni o‘qitish sifati yuksak ko‘rsatish, ibodatxonalardagi kasalxonalarning tuzilishi tasvirlangan, dorivor o‘simliklarning, tibbiy asboblarning rasmlari keltirilgan. XI asrdan boshlab jamoat, ovqatlanish va shaxsiy gigiena, bundan tashqari, rus xalqining sanitariya xolatlari ko‘rinishi aks ettirilgan.

Mudarrislar qatorida mohir jarrohlar ham bo‘lgan. Shulardan biri Shayx Husayn edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, u shu qadar mohir bo‘lganki, bir vaqt o‘n sakkiz joydan pichoq yegan navkarning jarohatlarni muvaffaqiyatli tikib, uni sog‘aytirib yuborgan. Demak, Navoiy zamonasida tibbiy bilimlar va amaliy tibbiyot yuksak

[1]Besh-olti ser- 400 gramm

darajada rivoj topgan. Navoiy yomon urf-odatlarini, bit'at va xurofotga butunlay qarshi edi. U Astroboddan yozgan bir xatida Husayn Boyqarodan Hirotda koʻpayib ketgan ishratxonalarni, qimorxonalarni, mayxonalarni yopishni, bozorlarni taftish ostiga olishni, narx-navoni tartibga solishni, bozorda sotiladigan oziq-ovqatlar va mevalarning sifatini tekshirib turishni talab etadi.

1506-yilda Bobur mirzo Hirot shahrida 20 kun davomida boʻlganida "Safoiya" va "Shifoiya" kasalxonlari, "Xalosiya" va "Ixlosiya" madrasalarini aylanib chiqadi. E'tiborli jihati shundaki bu shifoxonalarda ayollar va erkaklar uchun alohida yotoqlar tashkil etilgan [7:61]. Bemor ayollar uchun qarovchi, tabiblar uchun esa yordamchi hamshiralar boʻlgan. Yuqumli kasalliklar tarqalgan vaqtda ular koʻplab yordamchilarni ishga olishgan.

"Dor ush-shifo" oʻsha vaqtdagi sharq me'morchiligi usulida ikki qavatli bino madrasa sifatida qurilgan. Kasalxonaning hovlisi va uning atroflariga har xil manzarali daraxtlar ekilgan. Hovlidagi ariqlardan doim muzdek, tiniq, toza suv oqib turgan. Boshqa kasalxonalarni qurishda ham oʻsha vaqtdagi mana shu qoidalariga rioya qilingan. Bunda kasalxona quriladigan joyni tanlashga alohida ahamiyat berilgan. Ular bahavo va koʻrkam joylarda, katta ariq va kanallarga yaqin yerda, bozorlardan uzoqroqda barpo etilgan. Kasalxona binosi ayrim hujralar (palatalar), tabiblar uchun alohida xona, oshxona va boshqa yordamchi xonalardan iborat boʻlgan. Bemorlar hujralarda kasallik xiliga qarab joylashtirilgan. Masalan, koʻz kasalliklari hujrasi, jarrohiy kasalliklar hujrasi, ichki kasalliklar bilan ogʻrigan bemorlar hujrasi boʻlgan. Marv shahridagi kasalxonada maxsus ruhiy kasalliklar boʻlimi ham boʻlgan [8:62].

Tabiblar kasallarni alohida sihatgohlarda davolash lozimligini ta'kidlangan. Yuqumli va ruhiy kasallar uchun alohida shifoxonalar tashkil etishgan. Alohida tashkil etilgan maxsus kasalxonalarda ular yuqumli kasalliklarning turlari, kelib chiqish sabablari, davo choralari, asoratlar haqida tadqiqot ham olib borilgan. Bunday kasalxonlar asosan tashqi muhit bilan kam boʻlgan joylarda tashkil etilgan.

Tarixiy manbalarga tayangan holda, bu shifoxonalarda murakkab jarrohlik amaliyoti ham bajarilganligini aytib oʻtish mumkin. Sulton Husayn Boyqaroning pahlavonlaridan biri Mufridni 18 marta pichoqlashgan. Sultonning farmoniga koʻra unda jarrohlik amaliyoti oʻtkazilgan. Zayniddin Vosifiy "Badoye ul-vaqoe" asarida shunday yozadi: "Ustoz shayx tabib Mufridning holatini koʻrib, bir necha katta izbosh chumolini tutib kelishlarini buyurdiki, tezda yetkazdilar. Ustoz uzilgan ichaklarini chumoliga yaqinlashtirib, kesilgan ichaklarni ulaydi. Shu tarzda chumolilar bilan uzilgan ichaklarni tiklab chiqadi. Mufrid qirq kun deganda sogʻayib oyoqqa turdi"[8]. Bu jarrohlik amaliyoti Hirotdagi "Dorushifo"da amalga oshirgan.

***XULOSA***

Bunday misollardan kelib chiqib, Amir Temur va temuriylar davrida tibbiyot taraqqiy etgani, shifoxonalar va tabiblarga alohida e'tibor qaratilgani hamda yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, davo choralarni aniqlash borasida koʻplab amaliy tajribalar amalga oshirilganini bilishimiz mumkin.

## *FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI*


1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс – тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳи луғатлар А.Ўринбоевники. – Т.: Фан. 1969. – 464 б.
2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т.: «O’zbekiston». 2008. – 632 б.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. II-III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т. : «O’zbekiston». 2008. – 832 б.
4. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т. 12. Мажолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. – Т.: Ғафур Ғулом,1966. – 216 б.
5. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. / Б. Аҳмедов, У Уватов, Ғ. Каримов ва бошқалар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 312 б.
6. معین الدین محمد الزمجی الاسفزاری .روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات ، ج۱، ۶۲۲-۳
7. معین الدین محمد الزمجی .روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات ، ج۲، ص۵۲۱-۱ الاسفزار
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368.
9. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент: Mumtoz So’z, 2017. – 352 б.
10. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв. Редакторы: Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Тошкент: Фан, 2017. – 568 б.
11. Manz.B. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. Cambridge University Press, 2007. – P. 219
12. https://fa.wikifeqh.ir//
13. https://fa.wikifeqh.ir//



***Абдуносирова О. Б.***

Старший преподаватель (PhD) кафедры «История Узбекистана»

Ферганский государственный университет

abdunosirovaozoda@gmail.com


# ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ ПРОТИВ ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

### *АННОТАЦИЯ*


В данной статье на основе исторических источников и научной литературы изучаются и анализируются инфекционные заболевания во времена Амира Темура и Тимуридов, а также их виды и причины возникновения. Сделаны некоторые замечания о мерах, принимаемых медицинскими учреждениями, врачами и правительством против инфекционных заболеваний, а также о влиянии эпидемий на социально-экономические и научно-литературные процессы в государстве.

***Ключевые слова:*** инфекционные заболевания, научная и литературная жизнь, чума, медицинские учреждения, врачи, Монголия, Самарканд, Герат, «Равзоту-л-джаннот, Шифоия, Ихлосия.

***Abdunosirova O. B.***
Senior Lecturer (PhD) at the department of «History of Uzbekistan»
Ferghana State University
abdunosirovaozoda@gmail.com

# FIGHT AGAINST INFECTIOUS DISEASES IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

***ABSTRACT***

This article studies and analyses infectious diseases in the times of Amir Temur and Timurids, as well as their types and causes, on the basis of historical sources and scientific literature. Some remarks are made about the measures taken by medical institutions, doctors and the government against infectious diseases, as well as the impact of epidemics on socio-economic and scientific-literary processes in the country.

***Keywords:*** infectious diseases, scientific and literary life, plague, medical institutions, doctors, Mongolia, Samarkand, Herat, ‘Ravzotu-l-jannot, Shifoiya, Ixlosiya.

***Anarbayev A. A.***
«Ipak yo‘li arxeologiyasi» bo‘limi boshlig‘i, t.f.d, professor
Milliy arxeologiya markazi
anabaev-ahsi@mail.ru
***Oynazarov G. X***
«Landshaft arxeologiyasi» bo‘limi katta ilmiy xodimi. PhD
Milliy arxeologiya markazi
xoliyoroynazarov@gmail.com
***Bekmirzayev I. I.***
«Ipak yo‘li arxeologiyasi» bo‘limi katta ilmiy xodimi
Milliy arxeologiya markazi
bekruchka@gmail.com

# G’OVASOY HAVZASI PETROGLIFLARI

***ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada G‘ovasoy vohasida amalga oshirilgan qidiruv-tadqiqotlar natijalari yoritilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida vohaning yuqori qismidagi adirliklarda sochma tarzda joylashgan petroglif tosh tasvirlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jami 52 ta tosh yuzasida 300 dan ortiq obrazlar qayd etilgan. Ularning sujet va kompozitsion xususiyatlari, ishlanish texnikasi, analogiyalari hamda xronologiyasi tahlil etilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Mazkur petrogliflar G‘ovasoy vohasining antropogen landshaft shakllanish jarayonlarini hamda qadimgi madaniy qatlamlarning tarixiy dinamikasini o‘rganishda muhim manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Sababi voha tarixidagi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o’rganishda, shu bilan birga, O‘zbekiston hududida keng tarqalgan qoyalarga o‘yib ishlangan bunday yodgorliklarning G‘ovasoy havzasida aniqlanishi va o‘rganilishi nafaqat ularning sonini, balki geografik qamrovini ham sezilarli darajada kengaytirdi.

***Kalit so‘zlar:*** G‘ovasoy, petrogliflar, Qirqxujra, Balantepa, Munchoqtepa, Bibiona, Chust, Varzik, arava, Farg‘ona vodiysi, madaniy qatlamlar, tasviriy san’at.

***KIRISH***

So‘nggi yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan G‘ovasoy vohasida fundamental arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Sababi ushbu hudud qadimgi dehqonchilik manzilgohidan tortib, ilk shahar belgilarini o‘zida aks ettiruvchi yodgorliklar majmuasiga ega bo‘lgani bois alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

G‘ovasoy vohasi tabiiy-geografik nuqtai nazardan uch qismga — quyi, o‘rta va yuqori vohalarga bo‘linadi. Quyi G‘ovasoy vohasi asosan past tekisliklardan iborat bo‘lib, bu erda G‘ovasoy daryosi Sirdaryo tomon oqib, bir necha irmoqlarga bo‘linadi. Hozirgi kunda ushbu irmoqlarning ko‘pchiligi qurib qolgan. Mazkur hududda Qirqxujra, Balantepa va uning qabristoni hamda Munchoqtepa

yodgorliklari joylashgan bo‘lib, loyiha doirasida ularda keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borildi [1: 205–227, 2: 52, 3: 18].

O‘rta G‘ovasoy vohasi adirliklar va adir orti pasttekisliklardan tashkil topgan bo‘lib, bu hududda dastlabki sug‘orma dehqonchilik manzilgohlari shakllangan. Ayniqsa, Bibiona (Chust) yodgorligi ilmiy adabiyotlarda yaxshi ma’lum bo‘lib, ko‘p yillik tadqiqotlar obyekti bo‘lib kelgan. Mazkur loyiha doirasida esa ushbu madaniyat paleobatanik va arxeosismologik metodlar asosida qayta o‘rganilib, yodgorlikning moddiy-madaniy va xronologik belgilari aniqlashtirildi [4:7, 1: 205–227].

Yuqori G‘ovasoy vohasi asosan tog‘li hududlardan iborat bo‘lib, bu erda kichik mikrovahalarni uchratish mumkin. Tog‘lar er osti boyliklariga nihoyatda boy bo‘lib, qadimgi ajdodlarimiz temir, kumush va oltin konlaridan keng foydalanishgan. Shuningdek, mazkur hududdagi qoyalarda petroglif tasvirlari ham mavjud. Ularni o‘rganish bir muddat to‘xtab qolgan bo‘lsa-da, so‘nggi tadqiqotlar davomida ushbu tasvirlar qayta o‘rganilib, vohaning qadimgi antropogen o‘zlashtirilishi va ijtimoiy-madaniy hayotini to‘liqroq yoritishga xizmat qildi.

2025-yilda Namangan viloyati Chust tumanida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida yangi bir qator petrogliflar aniqlangan. (1-rasm) Mazkur hududdagi petrogliflar haqidagi dastlabki ilmiy xulosalarni M.E. Voronets [25: 61], G.V. Shatskiy [19: 5–8] va M. Xo‘janazarovlarning [21: 56] tadqiqotlarida uchratish mumkin. G‘ovasoy havzasi hududida petrograflarning topilib o‘rganilishi natijasida ularning soni hamda geografik qamrovi yanada kengaydi. Rasmlar chizilgan toshlar soy yoqasining o‘ng qismida, dengiz sathidan 800–900 metr balandlikda tartibsiz joylashgan bo‘lib, ularning tarkibi atrofdagi soy toshlariga xos granit, ohaktosh va mayda zarrachali qumtoshlardan iborat. Toshlarning tekis sirtlariga qadimgi ustalar tomonidan asosan tosh va metall asboblar yordamida urib–cho‘kichlash, o‘yish, ishqalash va kesish texnikalari asosida tasvirlar tushirilgan. Ushbu suratlar o‘tmishda soy va uning atrofi o‘simlik hamda hayvonot dunyosi jihatidan boy bo‘lganligini va ajdodlarimiz undan unumli foydalanganligini ko‘rsatib turadi. Shuningdek bu hududlar yani vohaning tog’ va tog’ oldi qismlarida qadimgi chorvadorlarga tegishli bo’lgan tosh mozor qo’rg’onlar ham uchraydi [6: 120].

### *TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI*

Aniqlangan tasvirlar G‘ovasoyning yuqori oqimida, G‘ova qishlog‘ining janubiy qismida, soyning o‘ng tomonidagi adirliklarda sochma holda aniqlangan. Tadqiqotlar jarayonida jami 52 ta tosh yuzasida 300 dan ortiq tasvir qayd etildi. Har bir toshning aniq koordinatalari, suv sathidan balandligi hamda egallagan yuzasi o‘lchab chiqilib, maxsus qaydnomaga kiritildi va batafsil tavsifi berildi.

**№1** G‘ovasoyining shimoliy–sharqida, soydan 5 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi janub tomonga qaragan. Toshning yuzasi 75x56 sm.ni tashkil qiladi. toshning yuza qismi noteks bo‘lib, unda 3 ta tog‘ echkisi va tushunarsiz belgilar aks etgan. 2 ta tog‘ echkilarning shoxlari uzun qilib tasvirlangan. uning oyoqlari esa to‘rta qilib aks ettirilgan bosh qismi sharq

tomonga qaragan. Tog‘ echkilari kontur uslubda chizilgan. uchunchi tog‘ echkisi chizilish uslubi qolganlardan farq qiladi. Sababi, birinchi chizilgan rasmlar ustida chizilgan bo‘lib,keyingi davrlarda chizilgan.

**№2** Ushbu tosh soydan 6 m. balandlikda joylashgan bo‘lib, unda tushunarsiz belgilar aks etgan.

**№3** G‘ovosoyning chap tomonida joylashgan. Tosh soydan 5 m. balanlikda joylashgan. Toshning yuzasi g‘arb tomonga qaragan. Toshning yuzasi noteks bo‘lib, 60x52 sm.ni tashkil qiladi.4ta tog‘ echkisi va turli-xil tushunarsiz belgilar aks etgan. ularni oyoqlari to‘rt oyoqda bittasi esa ikki oyoqda tasvirlangan. bosh qismlari g‘arb tomonga qaragan bo‘lib ularning 10-15 sm. uzunlikda chizilgan.

**№4** Tosh soyning o‘rta qismida joylashgan. Toshning yuzasi janubga qargan. Uning yuzasi 65x53 sm.ni tashkil qiladi. toshning markaziy qismida bitta doira shakli aks etgan.

**№5** G‘ovosoyning g‘arb tomonida joylashgan. Tosh soyning o‘rta qismida joylashgan. Toshning yuzasi janubga qargan. Uning yuzasi 65x53 sm.ni tashkil qiladi. toshning markaziy qismida 3 ta tog‘ echkilari va tushunarsiz turli-xil geometrik belgilar aks etgan. 10-15 sm. uzunlikda chizilgan.

**№6** Tosh soyning o‘rta qismida joylashgan. Toshning yuzasi g‘arb tomonga qargan. Toshning yuzasi noteks bo‘lib, 65x46 sm.ni tashkil qiladi. toshning markaziy qismida uchta tog‘ echkilari aks etgan.

**№7** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soy sathidan 9 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuzasi 30x28 sm. ni tashkil qiladi. toshning markazida yakka xolda bitta tog‘ echkisi aks etgan bo‘lib, uning oyoqlari 2 ta qilib tasvirlangan. bosh qismi esa sharq tomonga qaragan.

**№8.** G‘ovasoyining shimoliy–sharqida, soydan 10 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuza qismi g‘arbda qaragan. Toshning yuza qismi 120x73 sm.ni tashkil qiladi. Toshda rasmlar kompozitsiya qilib chizilgan. Toshning yuzasi notekis bo‘lsada, 1 ta odam tasviri, ikki g‘ildrakli arava, 10 ta tog‘ echkisi va tushunarsiz rasmlar chizilgan. Ushbu aravaning ikki g‘ildragi orasi uzunroq bo‘lib, 30sm.dan iborat. Tog‘ echkilarning shoxlari ayrimlari bir shoxli, ba’zilarniki ikki shoxli qilib aks etgan. tog‘ echkilarning bosh qismi sharq tomonga qaragan. Rasmlar 5–40 sm. hajmda chizilgan.

**№9.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soyning ichki qismida joylashgan. Toshning yuza qismi 50x50 sm.ni tashkil qiladi. Toshning yuza qismi sharq tomonga qaragan, toshda yakka xolda tog‘ echkisi aks etgan. Tog‘ echkisining boshi janubga qaragan. Rasm 20 sm. hajmda chizilgan.

**№10.** G‘ovasoyining shimoliy–sharqda, soy sathidan 6 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuza qismida tushunarsiz belgilar aks etgan.

**№11.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 10 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuza qismi 80x60 sm.ni tashkil qiladi. Toshning yuza qismi janubga qaragan. Toshning markazi qismida bitta bo‘ri, 2 ta tog‘ echki, va turli xil tushunarsiz belgilar aks etgan.

**№12.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 10 m. balandlikda joylashgan. Ushbu toshning yuzasi 45x30 sm. bo‘lib, yuzasi osmonga qaragan. Toshning markazi qismida ikkita tog‘ echkisi aks etgan. Mazkur tog‘ echkilari oyoqlari

to‘rta, shoxlari ikkita qilib ifodalangan. Ularning bosh qismi g‘arb tomonga qaragan. tog‘ echkilar 25 sm. uzunlikda chizilgan.

**№13.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 3 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi janub tomonga qaragan. Toshning yuzasi 140x80 sm.ni tashkil qiladi. Toshning markazi qismida 4 ta tog‘ echkisi, turli xil geometrik va tushunarsiz belgilar aks etgan. Ushbu tog‘ echkilarni bosh qismi sharq tomonga qaragan. Tog‘ echkilarning oyoqlari ikkita, shoxlari bitta qilib tasvirlangan.

**№14.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 3 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi osmonga qaragan blib, yuza qismi 140x70 sm.dan iborat. toshda tushunarsiz belgilar aks etgan.

**№15.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 5 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuzasi esa janub tomonda bo‘lib yuza qismi 100x85 sm.ni tashkil qiladi. Toshda 3ta tog‘ echkisi va tushunarsiz belgilar aks etgan. Tog‘ echkining bosh qismi sharqda qaragan. Rasm 10-20 sm. hajmda chizilgan.

**№16.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 8 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuzasi esa janub tomonda bo‘lib yuza qismi 65x55 sm.ni tashkil qiladi. Toshda bitta arava va tog‘ echkisi turli xil geometrik belgilar aks etgan. Arava ikki g‘ildirakli bo‘lib, ularning orasi 12 sm.dan iborat. Tog‘ echkining bosh qismi sharqda qaragan.

**№17.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soy sathidan 5 m. balandlikda joylashgan. Toshning yuzasi g‘arb tomonda bo‘lib, yuza qismi 85x90 sm.ni tashkil qiladi.Toshda 3 ta tog‘ echkisini rasmi aks etgan. Tog‘ echkilar bir –biriga qaragan holatda ifodalangan. Tog‘ echkilar yakka uzun shoxli va ikki oyoqli shaklda tasvirlangan.

**№18.** G‘ovasoyining shimoliy–sharq tarafida joylashgan. Soydan 10 m balandlikda joylashgan. Toshda tushunarsiz belgilar aks etgan.

**№19.** G‘ovasoyining shimoliy–sharq tarafida joylashgan. Soydan 10 m balandlikda joylashgan. Toshning yuzasi sharq tomonda bo‘lib, yuza qismi 65x60 sm.ni tashkil qiladi.Toshda 3 ta tog‘ echkisi, turli –xil geometrik belgilar va tushunarsiz rasmlar aks etgan.

**№20.** G‘ovasoyining shimoliy–sharq tarafida joylashgan. Tosh soy sathidan 10 m. balandlikda bo‘lib, yuzasi osmonga qaragan. Toshning yuza qismi 100x50 sm.dan iborat. Toshda ikkita tog‘ echkisi aks etgan. Ikkala tog‘ echkisining boshi ham sharqga qaragan. Rasm 10 sm hajmda chizilgan.

**№21.** G‘ovasoyining shimoliy–sharq tarafida joylashgan. Tosh soy sathidan 10 m. balandlikda bo‘lib, yuzasi janubga qaragan. Toshning yuza qismi 110x50 sm.dan iborat. Toshda to‘rtta tog‘ echkisi tushunarsiz rasmlar aks etgan. Tog‘ echkilarning boshi qismi sharqga qaragan. Rasm 10 sm hajmda chizilgan.

**№22.** G‘ovasoyining shimoliy–sharq tarafida joylashgan. Mazkur tosh soy sathidan 8 m. balandlikda bo‘lib, yuzasi osmonga qaragan. Toshning yuza qismi 110x50 sm.dan iborat. Toshda ikkita tog‘ echkisi va geometrik belgilar aks etgan. Tog‘ echkilarning boshi qismi sharqga qaragan.

**№23.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 5 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi esa janub tomonda bo‘lib yuza qismi 50x30 sm.ni tashkil

qiladi. Toshda 2ta tog‘ echkisi va tushunarsiz rasmlar aks etgan. Rasm 10-20 sm. hajmda chizilgan.

**№24.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 5 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi esa janub tomonda bo‘lib, yuza qismi 50x30 sm.ni tashkil qiladi. Toshda 3 ta tog‘ echkisi arava tasviri va tushunarsiz rasmlar aks etgan.

**№25.** G‘ovasoyning shimoliy–sharqida, soydan 6 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi esa janub tomonda bo‘lib, yuza qismi 50x32 sm.ni tashkil qiladi. Toshda 2 ta tog‘ echkisi arava tasviri va tushunarsiz rasmlar aks etgan.

**№26.** G‘ovasoyning janubi–sharqida, soydan 6 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi esa g‘arb tomonda bo‘lib, yuza qismi 50x30 sm.ni tashkil qiladi. Toshda 2 ta tog‘ echkisi arava tasviri va tushunarsiz rasmlar aks etgan.

**№27.** G‘ovasoyning janubi–sharqida, soydan 6 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi esa g‘arb tomonda bo‘lib, yuza qismi 50x50 sm.ni tashkil qiladi. Toshda 3 ta tog‘ echkisi va tushunarsiz rasmlar aks etgan. 2 ta tog‘ echkisi bir-biriga qaragan holatda tasvirlangan.

**№28.** G‘ovasoyning janubi–sharqida, soydan 12 m. balandlikda joylashgan. Mazkur toshning yuzasi g‘arb tomonga qaragan bo‘lib, yuza qismi 50x32 sm.ni tashkil qiladi. Toshning markaziy qismida 2 ta tog‘ echkisi aks etgan ularning bosh qismi janub tomonga qaragan. Ushbu tog‘ echkining shoxlari uzun juft holatda tasvirlangan.Rasmlar 10-15 sm uzunlikda chizilgan.

Караван-сараи на Шелковом пути способствовали формированию новых культур. Расположенные по всей Центральной Азии, они обеспечивали безопасность и отдых купцам, а также имели большое экономическое, социальное и культурное значение для местных городов. Встречи путешественников с востока и запада в караван-сараях влияли на беспрецедентный процесс обмена языками, религиями и традициями, которые вошли в основу культур Центральной Азии. Города и караван-сараи Мавераннахра на Великом Шёлковом пути при движении в северные владения использовалась дорога, служившая традиционной трассой передвижения кочевников. Она начиналась из долины Нураты, крупного пункта предгорий в северной Бухаре, и далее шла в пустыню Кызылкумы. Переходы здесь часто были двойные. В 60 км от Нураты, то есть в двойном переходе, зафиксировано поселение Лявлякантепе. Это специальная крепость прямоугольной формы, окруженная стеной с башнями по углам. В центре её ещё одна постройка, с двойными стенами и внутренней галереей, по плану напоминающая караван-сарайрабат. По подъёмному материалу памятник датируется X-XII вв. Около него пересохшее ныне пресноводное озеро. В 26 км к северу от него в поселке Аяккудук на вершине горной гряды укрепление Кургантепе, на краю которого стоит древний колодец. Это также караван сарай внутри крепости, вдоль стен его, с одной стороны, сохранились ящики-кормушки для лошадей. С другой стороны, кухонно-хозяйственный комплекс. Двор вокруг помещения также окружен стеной и, вероятно, использовался для разгрузки и временного хранения товаров и ночевки вьючных животных. Судя по материалам, караван-сарай использовался с VII-VIII вв. н.э. и позже до XIII в. [9, с.25].

***ЗАКЛЮЧЕНИЕ***

До последних своих дней академик Юрий Федорович Буряков был увлечен раскрытием тайн истории, сохранением исторической памяти. Основной задачей археологии, как науки, он видел в сохранении культурного наследия, как необходимого условия развития человека, общества. “Памятники природы, истории, культуры, все это национальное достояние, без которого немыслима наша жизнь”, - писал он. Память о прошлом необходимое условие сохранения чувства национального, а в широком

смысле, и человеческого достоинства. Значение археологии, как и истории в том, что она обогащает нас знаниями о жизни предыдущих поколений, их достижениях и ошибках. Задача археолога перелистать страницы “архивов”, скрытых под толщей времени”. Этой благородной задаче Юрий Федорович посвятил всего себя, решая ее творчески, увлеченно, заражая жаждой познания и своим энтузиазмом всех, кто был рядом. Подводя итог, можно сказать, что Юрий Фёдорович внёс большой вклад, в первую очередь, в изучение горнорудного производства Центральной Азии, а во-второй, в изучение истории Великого Шёлкового пути и его трасс на территории Мавераннахра.

***СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ***

1. https://sv.zarnews.uz/post/minuvshee-ne-ischezaet-nikogda-k-90-letiyu-akademika-yuriya-fyodorovicha-buryakova
2. https://bigenc.ru/c/buriakov-iurii-fiodorovich-e79081
3. Левтеева Л.Г., Юрий Федорович Буряков. Путь в науке длиною в жизнь. Ташкент,2014.
4. Буряков Ю., Грицина А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. Самарканд Бишкек, 2006.
5. Буряков Ю.Ф. Бухара на караванных путях Хорасана и Мавереннахра // Общественные науки в Узбекистане. -Ташкент, 1997; .
6. Буряков Ю.Ф. К вопросу о торгово-экономических и культурных связях Согда и Индии в древности и раннем средневековье // Индия и Центральная Азия (доисламский период). Ташкент, 2000;
7. Buryakov Y.F., Baipakov K.M., Taschboeva K., YakubovY. The Cites and Routes of the Great Silk Road. Tashkent: Scharq, 1999;
8. Буряков Ю.Ф. О втором караванном пути из Согда в Шаш // ОНУ. Ташкент, 1972.
9. Буряков Ю.Ф. Города и караван-сараи Мавераннахра на ВШП (по материалах Археологических исследований): Тез.37. межд. Конгресса азиатских и североафриканских исследований. М., 2004.

***Vaisova N. A.***
«Jaxon tarixi» kafedrasi dotsenti., PhD
O‘zbekiston Milliy universiteti
vaisovanodirabegim86@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Maqola Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining tarix fakultetini bitirgan taniqli olim, akademik, arxeolog Yuriy Fedorovich Burakovga bag'ishlangan. Hayotining turli davrlarida u tarix fakultetida, xususan, 1999 yildan vafot etkunga qadar faoliyat olib borgan. Maqolada uning hayoti va faoliyati, pedagogik ishining asosiy faktlari bilan bir qatorda, uning tadqiqot ishidagi muhim bosqich - buyuk ipak yo'li, umuman, so'g'dlar va So'g'd tarixini o'rganish ko'rib

chiqilgan. So'g'dlarning buyuk Ipak yo'lidagi diplomatlar va savdogarlar sifatida turkiy xalqlar va Xitoy jamiyati hayotidagi rolini baholashga harakat qilingan.

***Kalit so'zlar:*** tarix fakulteti, Yu.F.Buryakov, Afrosiob, Buyuk ipak yoli, Mavurannaxr, arxeologiya, Sog'd, So'g'dlar, Choch, Farg'ona, Turkiy xalqlar, Xitoy.

***Vaisova N. A.***
Associate professor., PhD at the Department of «World History»
National University of Uzbekistan
vaisovanodirabegim86@gmail.com

## THE HISTORY OF SOGDA AND SOGDIANS IN THE WORKS OF ACADEMICIAN YU. F. BURYAKOV

***ABSTRACT***

The article is dedicated to an outstanding scientist, academician, and archaeologist, Yuri Fedorovich Burakov, who was a graduate of the Historical Faculty of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan. In different periods of his life, he worked at the Faculty of History, in particular, from 1999 until his death. The article, along with the main facts of his life and work, pedagogical work, examines an important milestone in his research work - the study of the history of the Great Silk Road, in general, the Sogdians and Sogd, in particular. An attempt is made to assess the role of Sogdians as diplomats and merchants on the Great Silk Road in the life of Turkic and Chinese society.

***Keywords:*** Faculty of History, Yu.F.Buryakov, Afrasiab, the Great Silk Road, Transoxiana, archeology, Sogd, Sogdians, Chach, Ferghana, Turks, China.

***Begimqulova L. M.***
«O‘zbekiston tarix» kafedrasi dotsenti
Farg‘ona davlat universiteti
begimqulova@internet.ru

# TEMURIYLAR DAVLATINING BARQARORLIGIDA MIRONSHOH SULTONNING TUTGAN O‘RNI

***ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Sultonning yoshlik davri, siyosiy va harbiy faoliyati, shuningdek, uning Temuriylar imperiyasining barqarorligi va kengayishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh va Klavixo kabi mualliflar asarlariga tayangan holda, Mironshohning shaxsiyati va faoliyatidagi ijobiy va salbiy jihatlar yoritib beriladi.

***Kalit so‘zlar:*** Temuriylar, Amir Temur, Mironshoh Sulton, Genrix III, G‘iyosiddin Pirali, Klavixo, siyosiy faoliyat, harbiy yurishlar, Eron, Iroq, Ispaniya, Armaniston, Kavkaz, Ozarbayjon, Zafarnoma.

## *KIRISH*

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo, Eron, Kavkaz va Yaqin Sharq tarixida Amir Temur va uning avlodlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Temuriylar sulolasining vakillari nafaqat harbiy yurishlar orqali imperiyaning geografik ko‘lamini kengaytirgan, balki ma’muriy boshqaruv, diplomatik aloqalar va madaniy taraqqiyotda ham muhim rol o‘ynagan. Temurning o‘g‘illaridan biri - Mironshoh Sulton - ayniqsa G‘arbiy hududlarda amalga oshirgan faoliyati bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Mironshoh Sultonning hayoti, ayniqsa, uning yoshlik yillari, siyosiy faoliyati, harbiy yurishlardagi ishtiroki va shaxsiy kamchiliklari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqsad-Temuriylar davlatining barqarorligida Mironshoh Sultonning tutgan o‘rnini ilmiy asosda yoritishdir.

## *TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI*

Amir Temur va temuriylar davri tarixi bo‘yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tadqiqotlar juda ham ko‘p amalga oshirilgan. Biroq, o‘rganilishi va tadqiq etilishi lozim bo‘lgan jihatlari ham mavjud. Shulardan biri Mironshoh Sulton va uning xonadoni Amir Temur va temuriylar davlati taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyatini o‘rganishdir. V. V. Bartold tadqiqotlarida Mironshoh Sulton va uning xonadoni siyosiy va harbiy faoliyatiga qisman to‘xtalib o‘tadi [1].

Manbalar orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Klavixo va Ibn Arabshoh kabi mualliflarning ma’lumotlari bor. Bu manbalarda Mironshohning so‘nggi yillari, ruhiy salomatligi, boshqaruvdagi xatolar va Temur bilan munosabatlar muammolari ko‘rish mumkin.

Mustaqillik yillarida bir qancha mualliflar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixiga doir salmoqli ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, B.Ahmedov, A.Ahmedov, T.Fayziev, O. Boʻriyev, B. Usmonov, Sh. Oʻljayeva kabi olimlarning asarlari, ilmiy tadqiqot ishlarini keltirish mumkin. Ularning tadqiqotlarida Mironshoh Sultonni siyosiy va harbiy faoliyati haqida qisman toʻxtalib oʻtilgan.

Nasl-nasabli, siyosiy va harbiy faoliyatga ega Mironshoh Sulton 1366-yilda tugʻilgan boʻlib, Amir Temurning uchinchi oʻgʻli hisoblanadi. Onasi Menglibek Ogo Joni Qurboni boʻlgan. Temuriylar saroyida shahzodalar qattiq intizom asosida tarbiyalangan: diniy, ilmiy, harbiy mashgʻulotlar bilan shugʻullangan, chavandozlik, ovchilik, kamondan otish kabi amaliy koʻnikmalarga ega boʻlishlari talab etilgan [2].

Mironshoh ham boshqa shahzodalar singari yoshligidan murabbiylar nazorati ostida tarbiyalangan. Uning uchun tarixchi Ibn al-Asirning “Al-Kamil fi-t-Tarix” asari maxsus tarjima qilingani, Temur tomonidan tarixiy va siyosiy bilimlarga katta e’tibor berilganligini koʻrsatadi [3].

Harbiy yurishlardagi ishtiroki va siyosiy faoliyatining boshi, Mironshoh 1380-yilda Temurning Xuroson yurishida ishtirok etgan. 1381-yilda Hirot zabt etilgach, Gʻiyosiddin Pirali boshchiligidagi Qurtlar sulolasi taslim boʻladi. Ushbu yurishlar orqali Mironshoh oʻzini Temurning ishonchli harbiy qoʻmondoni sifatida namoyon qilgan. 1386–1396-yillar davomida Temur tomonidan olib borilgan “uch yillik”, “besh yillik” va “yetti yillik” yurishlarda Mironshoh faol qatnashgan [4]**.** Isfahondagi qoʻzgʻolon vaqtida u qat’iyatli harakat qilgan. Temur unga Gʻarbiy Eron, Iroq, Ozarbayjon, Armaniston va Kavkaz viloyatlarini hokimlikka topshirgan (markazi – Tabriz). Siyosiy boshqaruvdagi muammolar va ruhiy iztiroblar, Tarixiy manbalarga koʻra, 1396-yilda ov chogʻida yuz bergan baxtsiz hodisa Mironshohning ruhiy holatiga salbiy ta’sir koʻrsatgan. Shundan soʻng, uning siyosiy faoliyatida beqarorlik koʻzga tashlana boshlaydi [5]. Sultoniya saroyida sarf-harajatlarni nazorat qilmaslik, xazinani notoʻgʻri boshqarish, mayxoʻrlikka ruju qoʻyish kabi illatlar Temur gʻazabiga sabab boʻlgan. Manbalarda qayd etilishicha, Temur bir necha bor Mironshohni jazolagan, hatto oʻlim jazosini ham buyurgan, biroq bu hukm boshqa shahzodalar va amaldorlarning iltimosi bilan yumshatilgan [6]**.** Xotini Xonzoda Begimga nisbatan adolatsiz munosabati ham siyosiy nufuziga salbiy ta’sir koʻrsatgan.

Diplomatik kontekst va xorijiy elchilar taassurotlari, 1403–1404-yillarda Ispaniya qiroli Genrix III tomonidan yuborilgan Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi elchilik Samarqandda boʻlib, Temur saroyidagi marosimlar haqida yozib qoldirgan. Klavixo oʻz kundaligida Mironshoh va boshqa shahzodalar bilan boʻlgan muomala, Temurning diplomatik protokoli va elchilarga koʻrsatgan ehtiromi haqida batafsil toʻxtalgan[7]. Bu holat Mironshoh faoliyatining nafaqat harbiy va siyosiy, balki diplomatik doiralarda ham muhim oʻrin tutganini koʻrsatadi. Mironshoh Mirzo soʻnggi yillari haqida tarixiy manbalar bir qancha ma’lumot beradi, lekin ular orasida xilma-xil versiyalar va ba’zan qarama-qarshiliklar mavjud. Quyida ular asosiy jihatlari bilan tahlil qilinadi. Manbalar orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Klavixo va Ibn Arabshoh kabi

mualliflarning ma’lumotlari bor. Bu manbalarda Mironshohning so‘nggi yillari, ruhiy salomatligi, boshqaruvdagi xatolar va Temur bilan munosabatlar muammolari ko‘rish mumkin.

1396-yilda ovda jarohat olishi, u voqea uning so‘nggi yillaridagi ruhiy va boshqaruvdagi barqarorligining buzilishiga sabab bo‘lgan deb qayd etiladi [8]. Jarohat sabab unda miya faoliyatida “chalg‘ish alomatlari” paydo bo‘lgan deb yoziladi (“bir oz miyaning chalg‘ish alomatlari vujudga kelgan”) [9].

Temuriylar sulolasi Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda XV asrda yuksalgan eng qudratli davlatlardan biri bo‘lib, bu davlatning barpo etilishi va mustahkamlanishida Amir Temurning farzandlari ham muhim rol o‘ynagan. Ulardan biri -Mironshoh sulton Amir Temurning uchinchi o‘g‘li bo‘lib, uning siyosiy faoliyati Temuriylar davlati tarixida alohida o‘rin egallaydi.

1393-yildan boshlab unga Temur tomonidan Ozarbayjon, Iroq, Arron, Diyorbekr va Rey kabi strategik jihatdan muhim hududlar ishonib topshirilgan. Bu viloyatlar Mironshoh sultonning siyosiy nufuzini oshirib, unga mustaqil hokim sifatida harakat qilish imkonini bergan.

Mironshoh sulton bu hududlarda o‘zining kuchli markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga harakat qilgan. U Bag‘dod, Tabriz, Hamadon kabi shaharlarda mahalliy amaldorlarni almashtirgan va soliqlar tizimini qayta ko‘rib chiqqan. Bu esa mahalliy zodagonlar va dindorlar orasida norozilik tug‘ilishiga olib kelgan. 1396-yilda Mironshoh sulton Bag‘dod va Iroqni bosib olib, u yerda o‘zini sulton deb e’lon qiladi. Bu harakat Amir Temurning ruxsatisiz amalga oshirilgani sababli markaziy hokimiyat bilan ziddiyatga sabab bo‘lgan. Shuningdek, Mironshoh sulton Kichik Osiyo va Arabiston chegaralarida yurishlar uyushtirib, o‘z hududlarini kengaytirishga harakat qilgan. Uning mustaqil siyosati ba’zida Temuriylar davlati birligini xavf ostida qoldirgan. Shunga qaramay, Mironshoh sultonning ba’zi harbiy yurishlari muvaffaqiyatli bo‘lgan. Ayniqsa, u turli o‘g‘uz va kurd qabilalarining qo‘zg‘olonlarini bostirishda katta tajriba orttirgan.

1403-yilda Mironshoh sulton ot choptirish paytida yiqilib, og‘ir bosh jarohatini oladi. Bu voqeadan so‘ng uning ruhiy va jismoniy holati yomonlashadi. Tarixchilarning yozishicha, u o‘zining mas’uliyatlarini to‘liq bajara olmay qoladi, ba’zida noo‘rin farmonlar beradi, aholiga tazyiqlar ko‘rsatadi va hatto diniy arboblarga qarshi tajovuzkor siyosat olib boradi [10]. Bu holat Amir Temur tomonidan tanqidga olinadi va natijada Mironshoh sulton siyosiy-maydondan chetlashtiriladi. Uning boshqaruvidagi hududlar Shohrux, Muhammad Sulton va boshqa o‘g‘illar o‘rtasida qayta taqsimlanadi [11].

Davlat ishlarida befarqlik va maishatga berilish, jarohatdan keyin Mironshoh boshqaruv ishlarida sustlashgan, saroy hayoti va xotini-kanizaklar, mayxo‘rlik kabi nojo‘ya odatlar kuchaygan [12]. Xotin-kanizaklar soni, “bazm-ko‘ngul ochar o‘yinlar” va sarf-harajatlarning oshishi xazina zarariga olib kelgani aytiladi.Ba’zi manbalarda ruhiy iztiroblar yoki miya faoliyati bilan bog‘liq salbiy holatlar tavsifi mavjud [13]. Manbalar Mironshoh Mirzoning aniq vafot sanasi va joyini ko‘rsata olmaydi. “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi” saytidagi ma’lumotlarda Mironshoh Mirzo 1366-1408 yillar orasida yashagani aytiladi.

***XULOSA***

Mironshoh Sulton Temuriylar davrida strategik ahamiyatga ega hududlarda hokimlik qilgan, ko'plab yurishlarda qatnashgan, Temur tomonidan yuqori darajada ishonch bildirilgan sarkarda sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Biroq, uning ruhiy holati va shaxsiy zaifliklari siyosiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, u Temuriylar davlatining G'arbiy chegaralarida siyosiy nazoratni mustahkamlashda sezilarli rol o'ynagan. Mironshoh Mirzoning so'nggi yillari ko'pincha davlat boshqaruvida beqarorlik, ruhiy salomatlik muammolari va otasi Temur bilan keskinliklar bilan xarakterlanadi. 1399-yilda Temur tomonidan hokimiyatdan mahrum etilishi uning siyosiy hayotining yakuniy bosqichi bo'ladi. Vafoti esa taxminan 1408-yillar atrofi, lekin aniq sanasi manbalararo farqlarga sababli, tarixshunoslikda yakunlanishga muayyan noaniqlik qo'yadi.

Mironshoh Sulton faoliyati Temuriylar tarixini chuqurroq o'rganish, markazlashgan davlat siyosatining merosini baholash uchun muhim manba hisoblanadi. U harbiy salohiyat, siyosiy boshqaruv va shaxsiy fojia oralig'idagi ziddiyatli tarixiy shaxs sifatida o'rganilishi zarur. Mironshoh Mirzo so'nggi yillari haqida tarixiy manbalar bir qancha ma'lumot beradi, lekin ular orasida xilma-xil versiyalar va ba'zan qarama-qarshiliklar mavjud. Quyida ular asosiy jihatlari bilan tahlil qilinadi.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan tarjima. – T.: Fan, 1994.
2. Ibn Arabshoh. Ajā'ib al-Maqdūr fī Nawa'ib Tīmūr. – Qohira, 1965.
3. Klavixo, R.G. Samarqandga safar kundaligi. – T.: O'zbekiston, 1992.
4. Bartold V.V. Turkiston mongollar istilosigacha. – T.: Fan, 1993.
5. Boybo'latov A. Temuriylar tarixi. – T.: Sharq, 2007.
6. Qayumov A. Temuriylar saltanati va diplomatiyasi. – T.:
7. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi – T.: Yozuvchi, Xazina, 1995. – 350 b.
8. Ravshanov P. Amir Temur sulolasi: roman. / P.Ravshanov. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. - 652 b.
9. Begimqulova L.M. XV asr boshlarida Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash (kuchlar nisbati va natijalar tahlili). Monografiya – Farg'ona. 2021. – 140 b.
10. https://milliycha.uz/ru/mironshoh-mirzo/?utm_source=chatgpt.com "MIRONSHOH MIRZO - Milliylik-millat ko'zgusi"
11. https://academy.uz/uz/news/bilasizmi?utm_source=chatgpt.com "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi"
12. Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989. – 227 p.
13. Lyusyen Keren. Amir Temur saltanati. / Fransuz tilidan tarjima va izohlar muallifi B. Ermatov – T.:Ma'naviyat, 1999.
14. Roemer H.R. Timur in Iran // The Cambridge histore of Iran. Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 42-97.
15. Jan Pol Ru. Tamerlan. / Per s fr. YE.A. Sokolova. Poslesl. V.L. Yegorova. – M.: Molodaya gvardiya, 2004.

16. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. / Nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Sayyid. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sanoat nashriyoti, 1990. – 96 b.

***Бегимкулова Л. М.***
Доцент кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
begimqulova@internet.ru

## МИРАНШАХ И ЕГО РОЛЬ В ФОРМИРОВАНИИ СТАБИЛЬНОСТИ В ГОСУДАРСТВЕ ТЕМУРИДОВ

***АННОТАЦИЯ***

В статье анализируются юность, политическая и военная деятельность третьего сына Амира Тимура, Мираншаха Султана, а также его роль в обеспечении стабильности и расширении империи Тимуридов. На основе исторических источников, включая труды таких авторов, как Шарафиддин Али Язди, Ибн Араб Шах и Клавихо, освещаются положительные и отрицательные стороны личности и деятельности Мираншаха.

***Ключевые слова:*** Тимуриды, Амир Тимур, Мираншах Султан, Генрих III, Гиёсиддин Пирали, Клавихо, политическая деятельность, военные походы, Иран, Ирак, Испания, Армения, Кавказ, Азербайджан, Зафарнамэ.

***Begimqulova L. M.***
Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Ferghana State University
begimqulova@internet.ru

## THE ROLE OF MIRANSHOH SULTAN IN THE STABILITY OF THE TEMURID’S STATE

***ABSTRACT***

This article analyzes the youth, political and military activities of Amir Timur's third son, Miron Shah Sultan, as well as his role in the stability and expansion of the Timurid empire. Based on historical sources, including the works of authors such as Sharafiddin Ali Yazdi, Ibn Arab Shah and Klavix, the positive and negative aspects of Miron Shah's personality and activities are highlighted. The article also examines the mental state of Miron Shah Sultan, his achievements and shortcomings in governance based on an objective approach.

***Key words:*** Timurids, Amir Timur, Miron Shah Sultan, Henry III, Ghiyosiddin Pirali, Klavixo, political activities, military campaigns, Iran, Iraq, Spain, Armenia, Caucasus Azerbaijan, Zafarnama.

***Begimqulova L. M.***
«O‘zbekiston tarix» kafedrasi dotsenti
Farg‘ona davlat universiteti
begimqulova@internet.ru
***Yigitaliyeva Sh. Sh.***
«O‘zbekiston tarixi» mutaxassisligining II-bosqich magistranti
Farg‘ona davlat universiteti
shahzodayigitaliyeva1999@gmail.com

# XONZODA BEGIM – TEMURIYLAR DAVRINING SIYOSIY FAOL AYOLI

***ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada Temuriylar sulolasining taniqli ayol vakillaridan biri – Sevin begim Xonzoda (Xonzoda Begim)ning hayoti, siyosiy faoliyati va tarixiy merosi keng yoritiladi. Uning Temuriylar va Chingiziylar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni mustahkamlashdagi o‘rni, shuningdek, Temur saroyida tutgan mavqei ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Maqola Xonzoda Begimning shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati, saroy madaniy hayotidagi ishtiroki va o‘rta asr ayollarining davlat boshqaruvidagi o‘rni masalalarini o‘z ichiga olganligi. tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

***Kalit so‘zlar:*** Amir Temur, Xonzoda Begim, Sevin begim, Jahongir Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shakar Begim, Oq So‘fi, Temuriylar sulolasi, Chingiziylar, Movarounnahr, siyosiy nikoh, Xorazm, saroy madaniyati, ayollar faolligi, Tabriz, Bag‘dod, Sultoniya, Samarqand, Ko‘hak tog‘i.

## *KIRISH*

O‘rta asrlar Sharq tarixida ayollar obrazi ko‘pincha soyada qolgan bo‘lsa-da, ayrim siymolar o‘zining aql-zakovati, siyosiy farosati va insoniy fazilatlari bilan davrini yoritgan yulduzdek porlagan. Ana shunday siymolardan biri – Amir Temurning kelini, Temuriylar sulolasining yuksak madaniy hayotida alohida o‘rin tutgan Xonzodabegimdir. U o‘z zamonasida nafaqat sulola sha’nini himoya qilgan, balki siyosiy jarayonlarda ayolning faol ishtirokini ifodalagan timsol bo‘lib tarixda qolgan. XIV–XV asrlar Movarounnahr tarixida Temuriylar davri – siyosiy qudrat, madaniyat va tafakkur uyg‘onishining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lgan. Bu davrda nafaqat hukmdorlar, balki ularning oila a’zolari ham davlat hayotida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Xonzodabegim, Saroy Mulkxonim, Gawharshodbegim kabi ayollar nafaqat saroy bezagi, balki davlat siyosatining aql markazi, diplomatik elchiliklarning ramzi sifatida tarix sahifalariga kirgan[1]. Xonzodabegimning hayoti esa bu jarayonning eng nozik, ammo eng yorqin sahifalaridan biridir. U dastlab Amir Temurning to‘ng‘ich o‘g‘li – Jahongir Mirzoga turmushga chiqadi[2]. Bu nikoh siyosiy jihatdan Temur va Xorazm so‘fiylar sulolasini yaqinlashtirish, ittifoqni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, Xonzodabegim bu munosabatda shunchaki “ittifoq ramzi” emas, balki o‘z aqlu zakovati, oriyat va

iffatini asragan ayol sifatida namoyon boʻlgan. Jahongir Mirzoning vafotidan soʻng esa u Mironshoh Mirzo bilan turmush quradi. Bu davr Xonzodabegim hayotida sinovli, fojiali, lekin ayni paytda ruhiy mustahkamlikni sinovdan oʻtkazgan davr edi. Mironshohning beqaror siyosati, ruhi parokandaligi va saroydagi ziddiyatlarga qaramay, Xonzodabegim oʻz sha'nini, or-nomusini va davlat manfaatini himoya qildi.

### *TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI*

Tarixiy manbalarda, xususan, Ibn Arabshoh "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarida esa Xonzodabegimning Mironshoh bilan turmushi, uning ruhiy holati va saroydagi ziddiyatlar haqida yozadi [3]. Shuningdek, ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning "Embajada a Tamorlán" safarnomasida Xonzodabegim haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Klavixo yozishicha, "Temur saroyida ulugʻ bir ayol bor edi, unga erkaklar qatori izzat koʻrsatilardi" – bu tasvir Xonzodabegimning saroydagi mavqeini, ijtimoiy nufuzini va shaxsiy fazilatlarini yaqqol koʻrsatadi.

Xonzoda Begimning hayoti va faoliyati haqida Abdurazzoq Samarqandiy oʻzining "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" asarida Xonzoda Begimning Temur saroyiga kelin boʻlish jarayoni, toʻy marosimi va u bilan bogʻliq siyosiy kelishuvlarni batafsil bayon etadi. Unga koʻra, bu nikoh Temuriylar va soʻfiylar sulolasi oʻrtasidagi tinchlik bitimining muhim elementi boʻlgan [4]. Zamonaviy tarixshunoslardan V. V. Barthold [5], Azamat Ziyo [6], R. Roʻziyev [7], U. Boʻronov [8] va H. Yoʻldoshev [9]lar bu manbalarga tayangan holda Xonzoda Begimni Temuriylar diplomatiyasida ayollar rolining ramziy ifodasi deb baholaydilar. Ayni paytda, Davlatshoh Samarqandiy, Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy kabi mualliflarning asarlarida ham Xonzodabegim haqida bilvosita ma'lumotlar uchraydi. Ular Xonzodabegimni dono, sabrli, lekin qat'iyatli ayol sifatida tasvirlaydilar. Shu tariqa, tarixiy manbalar Xonzoda Begimni nafaqat siyosiy ittifoqlarning ramzi, balki oʻz davrining siyosiy tafakkurga ega, faol davlat arbobi sifatida ham koʻrsatadi.

Xonzodabegim moʻgʻul qoʻngʻirot qabilasidan boʻlgan soʻfiylar sulolasi vakili boʻlib, onasi Shakar Begim moʻgʻul malikasi, otasi Oq Soʻfi Xorazm zodagoni edi. U ona tomondan Jonibek xon orqali Chingizxonning toʻgʻridan-toʻgʻri avlodi hisoblanadi [10]. Dastlab Sevin beka deb atalgan, keyinchalik "Xonzoda" – ya'ni "xondan tugʻilgan" ma'nosidagi unvon bilan mashhur boʻlgan [11]. 1350-yillarda amakisi Husayn Soʻfi Xorazmni egallab, mustaqil soʻfiylar sulolasiga asos soladi. Bu sulola Chigʻatoy xonligi qulagach, Xorazmda siyosiy mustaqillikka erishgan edi. Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni mustahkamlab borar ekan, Xorazm soʻfiylarining mustaqil siyosati unga toʻsiq boʻldi. 1372-yilda Temur Xorazmga yurish qilib, Husayn Soʻfi vafotidan soʻng hokimiyatni egallagan Yusuf Soʻfi bilan sulh tuzdi. Sulh shartiga koʻra, Xonzodabegim Temurning oʻgʻli Jahongir Mirzoga nikohlab berilishi belgilandi [12].

Bu nikoh ikki sulola Temuriylar va Chingiziylar oʻrtasidagi qon-qarindoshlik rishtasini oʻrnatgan birinchi siyosiy voqea boʻldi. Jahongir Mirzo Temurning toʻngʻich oʻgʻli edi. Xonzodabegim 1373-yilda unga turmushga chiqdi. Ularning

to‘yi Samarqandda katta dabdaba bilan o‘tkazilgan. Marosimni Abdurazzoq Samarqandiy batafsil tasvirlab, “Shahar butunlay bezatilib, Xonzoda oq tuyada oltin liboslar bilan kirib kelgan” deb yozadi [13]. Samarqand shahrida to‘y o‘tkazilgan kuni shahar go‘yo gulga burkangan edi. Ko‘chalar ipak va gilamlar bilan bezalgan, havoda atirgul hidi, daryolarda oltin suvi aks etib turar edi. Xonzoda Begim oq tuya ustida, oltin ip bilan bezatilgan libosda, sochlari ustiga marvaridli toj kiyib kirib kelganida, saroy ahli hayratdan to‘xtab qoldi. Uning ko‘zlarida muloyimlik bilan birga qat’iyat, mehr bilan birga izzat porlab turar edi. Jahongir Mirzo uni ilk bor ko‘rgan zahoti qalbida iliqlik uyg‘ondi. U o‘zining yovvoyi yurishlari, ot ustidagi janglari orasida ilk bor bunday tinchlikni, bunday mehrni his qilgandi. Ular o‘rtasidagi aloqa siyosiy emas, balki insoniy rishtalar bilan bog‘landi. Jahongir Mirzo uchun Xonzoda Begim nafaqat malika, balki ilhom manbai edi. U kechalari yulduzlarga qarab, unga she’rlar bitar, Xonzoda esa o‘z qo‘li bilan yulduzli liboslar tikar edi. Ularning muhabbati saroy devorlaridan oshib, butun Samarqand bo‘ylab doston bo‘lib tarqalgan. Ammo bu baxt uzoq davom etmadi. 1376-yilda Jahongir Mirzo og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etdi[14]. Yosh Xonzoda Begim o‘g‘li Muhammad Sultonni bag‘riga bosib, jim qoldi. U yig‘lamadi, faqat ko‘zlari dard bilan to‘ldi. U bilardi: endi u faqat ayol emas, balki tarixning bir bo‘lagi, sulolaning sha’nini saqlovchi malika edi.

Amir Temur 1383-yilda Xonzodabegimni uchinchi o‘g‘li Mironshohga nikohladi. Mironshoh Temurning eng sevimli o‘g‘illaridan biri bo‘lib, unga Ozarbayjon, Iroq va Fors viloyatlari – Tabriz, Bag‘dod, Sultoniya kabi shaharlar boshqaruvi topshirilgan edi [15]. Samarqand osmoni tiniq, Ko‘hak tog‘laridan esayotgan bahor shamoli shahar ustiga iliq hidi bilan yoyilardi. Xonzodabegim hali yosh, ammo hayotning achchiq sharbati bilan tanishgan ayol edi. U o‘g‘li Jahongirning vafotidan keyin saroyda chuqur sukutga cho‘mgan, ammo taqdir unga yana bir burilish tayyorlagan edi. Amir Temur bu safar uni o‘g‘li Mironshohga nikohlashga qaror qildi. Bu qaror siyosatning sovuq, ammo zarur yo‘li edi. Xonzoda bilardi – Temur nasab, sulola va davlat uchun eng to‘g‘ri yo‘lni tanlagan.

Nikoh to‘yi Samarqandda katta shukuh bilan o‘tdi. Xonzodaning yuragida esa sokin umid uyg‘ongan edi - Mironshoh yosh, jo‘shqin va olijanob edi. Uning ko‘zlarida yosh shijoat, so‘zlarida mehr sezilardi. Dastlabki oylar ularning hayoti shodlik va uyg‘unlikda kechdi: Xonzoda yangi hayotga, yangi muhabbatga ishonmoqchi edi. U Mironshohning yuragidagi orzularni, otasi Temurning unga bo‘lgan ishonchini, o‘zining esa bu xonadon uchun tutgan o‘rnini chuqur his etardi.

Xonzodabegim bu davrda Temuriylar saroyining eng nufuzli ayollaridan biriga aylandi. Uning o‘g‘li Xalil Sulton keyinchalik Temurdan keyin qisqa muddat taxtni egallaydi (1405–1409). Ammo vaqt o‘tgan sayin bu osmon bulutlana boshladi. 1395-yilning qora kuni - ov paytida Mironshoh otidan yiqildi[16]. O‘sha kundan boshlab hayot o‘zgardi. Shahzodaning nigohlarida g‘alati bir beqarorlik paydo bo‘ldi. U avvalgidek mehribon er emas, o‘zini yo‘qotgan, ruhiy iztirobda yashayotgan insonga aylandi. Saroyda shivir-shivirlar boshlandi: “Mironshoh o‘zini yo‘qotgan”, derdi xizmatkorlar. Xonzoda esa sukutda edi - u hamon erining yonida edi, sabr va sadoqat bilan. Ammo Mironshohning xatti-harakati tobora

o‘zgarib, saroy tartibini buzishga, xalq orasida norozilik keltirishga olib keldi. U boylikni sovurdi, qadimiy obidalarni vayron qildi, hatto otasi Amir Temurning siyosatiga zid ishlar qila boshladi[17]. Xonzoda kechalari bedor edi. U har kuni yuragi ezilib, bu holatni kuzatdi. Nihoyat, bir kecha u sukutini buzdi. Samarqand sari yo‘l oldi - qaynotasi, buyuk Temur huzuriga. U yuragini to‘kib soldi: “Hazrati Amir, men sizdan adolat so‘rayman. Men erimni sevgan edim, ammo u o‘zini yo‘qotdi.

Uning g‘azabi o‘zini ham, davlatni ham yondirmoqda. Rivoyatlarda aytilishicha, Xonzoda Temurga Mironshohning zo‘ravonligidan dalolat beruvchi qonli libosini ko‘rsatganida, Temurning ko‘zlarida yosh qalqigan. Garchi bu holatni ba’zi manbalar shubha ostiga olsa-da, tarix shuni yozadi – o‘sha kundan keyin Temur Mironshohni hokimiyatdan chetlashtirdi. Xonzoda esa endi saroyda hurmatli, ammo yolg‘iz ayol sifatida qoldi.

Shundan keyin ham Xonzodabegimning nufuzi so‘nmagan. U Saroy Mulkxonim bilan bir qatorda Temurning eng yaqin ayollaridan biri bo‘lib, saroy ziyofatlarida, elchilar qabulida, hatto siyosiy maslahatlarda ham qatnashgan[18]. Uning donoligi, osoyishta nutqi va mo‘tadil fikri ko‘plab erkak amirlarning so‘zidan ustun kelgan. U siyosiy maslahatlarda ishtirok etgan, davlat marosimlarida Temur bilan yonma-yon turgan. 1405-yilda Kastiliya elchisi Ruy Gonsales de Klavixo Samarqandga kelganida Xonzodabegim uni o‘z saroyida qabul qilgan. Klavixo o‘z kundaligida shunday yozadi: “Xonzoda Begimning saroyi Temurnikidan kam emasdi. Unga xizmat qiluvchi amirlar va beklar unga xuddi podshohga munosabatda bo‘lgandek ehtirom ko‘rsatardilar” [19]. Bu ma’lumot Xonzodabegimning Temuriylar saroyidagi ijtimoiy maqomi naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Xonzodabegim o‘z davrida ilm-ma’rifat homiysi sifatida ham tanilgan. U ko‘plab madrasa va masjidlar qurilishiga homiylik qilgan, xayriya ishlari bilan shug‘ullangan. Samarqand va Sultoniya shaharlarida uning nomi bilan bog‘liq me’moriy obidalar mavjud bo‘lgan [20]. 1403-yilda to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammad Sulton Anqara jangida yaralanib, vafot etdi. Bu hodisa Xonzoda begimni chuqur qayg‘uga soldi. Ibn Arabshoh yozishicha, u “sochlarini yulib, yuzini tirnab, jonsiz tanasi ustida yig‘lagan” [21]. Shundan so‘ng u Sultoniya shahrida o‘g‘lining dafn marosimida qatnashgan, keyin jasadini Samarqandga qayta dafn qildirishda shaxsan ishtirok etgan. 1411-yil noyabr oyida Xonzoda begim Mashhadda vafot etdi va Imom Rizo maqbarasi yaqiniga dafn qilindi [22]. U hayoti davomida ikki buyuk sulola – Chingiziylar va Temuriylar o‘rtasidagi siyosiy rishtaning timsoli sifatida tarixda qoldi.

Ammo uning yuragining bir burchagida Mironshohning muhabbati – og‘riqli, ammo unutib bo‘lmas yodgorlik sifatida qolgan edi. Chunki u o‘sha muhabbat uchun sadoqat bilan kurashgan, ammo taqdirning yozuviga qarshi chiqa olmagan.

***XULOSA***

Shunday qilib, o‘rganilgan manbalar va tarixiy dalillar asosida shuni ta’kidlash joizki, Xonzoda begim shaxsiyati Temuriylar davrida ayollar siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda faol ishtirok etganining yorqin namunasidir. U o‘z hayoti davomida faqat Temuriylar sulolasining bir bo‘g‘ini emas, balki davlat

diplomatiyasida muhim vositachi, aql-zakovat va sabr-toqat timsoli boʻlib maydonga chiqqan.

Birinchidan, Xonzoda begimning Jahongir Mirzo bilan nikohi Temur siyosatida sulh va ittifoqni mustahkamlash vositasi boʻlgan. Ushbu nikoh orqali Temur Xorazm soʻfiylar sulolasi bilan siyosiy aloqani barqarorlashtirishga erishgan. Xonzoda bu jarayonda siyosiy qurol emas, balki donolik va oriyat bilan sulolaning sha’nini himoya qilgan ayol sifatida namoyon boʻlgan.

Ikkinchidan, uning Mironshoh bilan turmushi esa ayolning shaxsiy fojiasi va siyosiy jasorati birlashgan davrni ifodalaydi. Mironshohning ruhiy beqarorligi va notoʻgʻri siyosiy qarorlari tufayli Xonzoda begim oʻz hayotini xavfga qoʻygan holda Amir Temurga murojaat qilgan. Bu holat oʻrta asr ayolining siyosiy ong darajasi, adolatparvarlik hissi va jasoratini namoyon etadi.

Uchinchidan, Xonzoda begim Temur saroyida yuqori mavqeni saqlab qolgan ayollar orasida boʻlgan. U Saroy Mulkxonim bilan bir qatorda davlat maslahatlari, elchilar qabulida, saroy marosimlarida faol ishtirok etgan. Uning donishmandligi va xotirjam siyosiy pozitsiyasi Temuriylar davlatining ichki barqarorligiga ijobiy ta’sir koʻrsatgan.

Toʻrtinchidan, Xonzoda begim hayoti orqali Temuriylar davridagi ayol nufuzi va madaniy muhitni kuzatish mumkin. U davlat siyosatida bevosita ishtirok etmagan boʻlsa-da, uning fikri va mavqei saroy hayotida sezilarli darajada ahamiyat kasb etgan. Bu esa oʻrta asr Sharq jamiyatida ayolning ijtimoiy rolini qayta baholash zarurligini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Xonzoda begim – aql va sabr uygʻunligining, ayol jasorati va siyosiy farosatining timsolidir. U oʻz zamonasida Temuriylar siyosatining muhim qismiga aylangan, davlat va nasl manfaatlarini himoya etgan, ayol sha’nini yuksak darajada namoyon qilgan tarixiy shaxsdir [23]. Uning hayoti va faoliyati Temuriylar davri ayollarining nufuzi, ijtimoiy mavqei hamda tarixiy ahamiyatini chuqurroq oʻrganish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

### *FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI*

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Fors tilidan tarjima. – T.: Fan, 1994.
2. Ibn Arabshoh. Ajā'ib al-Maqdūr fī Nawa'ib Tīmūr. – Qohira, 1965.
3. Klavixo, R.G. Samarqandga safar kundaligi. – T.: Oʻzbekiston, 1992.
4. Barthold V. V. Turkiston v epokhu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963. – B. 245–247.
5. Ziyo A. Amir Temur va Temuriylar davrining siyosiy tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 122–125.
6. Azamat Ziyo. Temuriylar davri madaniyati va davlat arboblari. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 89–93.
7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlaʻ as-saʻdayn va majmaʻ al-bahrayn. Fors tilidan tarj. R. A. Arslonzoda. – Fargʻona: Classic, 2022. – B. 201–204.
8. Arslonzoda R. A. Manbashunoslik. – Fargʻona: Classic, 2022. – B. 198–199.
9. Yoʻldoshev H. Temuriylar saltanatida ayollar mavqei. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 45–48.

10. Ashirbekov A. Temuriylar davrida madaniy hayot va ayollar faoliyati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015. – B. 102–106.

11. Kadirov A. Amir Temur davri diplomatik aloqalari. – Samarqand: SamDU, 2017. – B. 67–70.

12. Gʻafurova N. Temuriylar saroyi ayollari tarixida Xonzodabegim obrazi. // Sharqshunoslik masalalari ilmiy jurnali. – 2020. – №4. – B. 45–52.

13. Saidov B. Temuriylar davrida siyosat va madaniyat uygʻunligi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 112–118.

14. Hikmatov M. Temuriylar sulolasining siyosiy merosi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016. – B. 90–95.

15. Qayumov A. Temuriylar saltanati va diplomatiyasi. – T.:

16. Файзиев Т. Темурийлар шажараси – Т.: Ёзувчи, Хазина, 1995. – 350 б.

17. Равшанов П. Амир Темур сулоласи: роман. / П.Равшанов. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. - 652 б.

18. Бегимқулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннаҳрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Монография – Фарғона. 2021. – 140 б.

***Бегимкулова Л. М.***
Доцент кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
begimqulova@internet.ru
***Йигиталиева Ш. Ш.***
Магистрант II курса по специальности «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
shahzodayigitaliyeva1999@gmail.com

# ХОНЗОДА БЕГИМ – ПОЛИТИЧЕСКИ АКТИВНАЯ ЖЕНЩИНА ПЕРИОДА ТЕМУРИДОВ

***АННОТАЦИЯ***

В статье подробно освещаются жизнь, политическая деятельность и историческое наследие одной из выдающихся представительниц династии Тимуридов – Севин Бегум Ханзоды (Хонзода Бегим). На основе научных источников анализируется её роль в укреплении дипломатических отношений между Тимуридами и Чингисханом, а также её положение при дворе Тимуридов. В статье рассматриваются вопросы личной жизни, политической деятельности, участия в культурной жизни двора и роли средневековых женщин в государственном управлении.

***Ключевые слова:*** Амир Тимур, Ханзода Бегим, Севин Бегим, Джахонгир Мирзо, Мироншох Мирзо, Шакар Бегим, Ак Суфи, династия Тимуридов, Чингисхан, Моваруннахр, политический брак, Хорезм, придворная культура, женская активность, Тебриз, Багдад, султанат, Самарканд, гора Кохак.

***Begimqulova L. M.***
Associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Ferghana State University
begimqulova@internet.ru
***Yigitaliyeva Sh. Sh.***
2nd year master's student on specialization of «History of Uzbekistan»
Ferghana State University
shahzodayigitaliyeva1999@gmail.com

# KHONZODA BEGIM – A POLITICALLY ACTIVE WOMAN OF THE TEMURID PERIOD

***ABSTRACT***

This article extensively covers the life, political activities and historical legacy of one of the prominent female representatives of the Timurid dynasty - Sevin Begum Khanzoda (Khonzoda Begim). Her role in strengthening diplomatic relations between the Timurids and Genghis, as well as her position in the Timurid court, is analyzed based on scientific sources. The article covers the issues of Khanzoda Begim's personal life, political activities, participation in the cultural life of the court and the role of medieval women in state administration. is covered based on historical sources.

***Keywords:*** Amir Timur, Khanzoda Begim, Sevin Begim, Jahongir Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shakar Begim, Aq Sufi, Timurid dynasty, Genghis, Movarunnahr, political marriage, Khorezm, court culture, women's activism, Tabriz, Baghdad, Sultanate, Samarkand, Mount Kohak.

***Egamberdiyeva T. A.***
«O'zbekiston tarixi» kafedrasi professori, ped.f.d
Farg'ona davlat universiteti
egamberdiyevaturgunoy@gmail.com
***Abdunosirova O. B.***
«O'zbekiston tarixi» kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
Farg'ona davlat universiteti
abdunosirovaozoda@gmail.com

# SAROYMULKXONIMNING MADANIY-MA'RIFIY FAOLIYATI

***ANNOTATSIYA***

Ushbu maqolada Saroymulkxonim shaxsiyati, uning madaniy va ma'rifiy faoliyati hamda bunyodkorligi borasida ba'zi fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Uning homiyligi bilan bunyod etilgan madaniy-maishiy inshootlar va ta'lim jarayoniga bo'lgan e'tibori masalasi ham yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** Hindiston, Saroymulkxonim, ta'lim tizimi, madrasa, ma'rifiy, madaniy hayot, homiylik, "Bibixonim" jome masjidi, ayollar maktabi.

## *KIRISH*

Temur va temuriy shahzodalar bilan bir qator temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste'dodli siyosatdan, yetuk suxandon hamda dunyoga mashhur olimalar yetishib chiqdi. Bilamizki aksariyat davlatlarning hammasida davlat tepasida hukmdor turadi. Davlatni boshqarishda bu hukmdorlarning rafiqalari ham ko'rinmas kuchga egadir. Temuriylar davrida malikalarning qilgan bunyodkorlik ishlari qurilish sohasida ham ko'rishimiz mumkin. Ko'hna moziydan xabar beruvchi tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy sohaning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohiblarining nomlari ham tarannum etib kelinganligining guvohi bo'lamiz. Ayollar orasida ham shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar hamda zukko san'atshunoslar yetishib chiqdi. Temuriylar davrida ham davlat boshqaruvida ayollarning roli bor di. Bu davrda ko'plab me'moriy obidalar hamda madrasalar qurilishida malikalarning o'rni katta. Temuriylar davrida ham malikalarning qurilish ishlaridagi ahamiyati juda katta edi.

## *TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI*

Temuriy malikalar haqida ko'pgina qiziqarli qo'lyozma va toshbosma asarlarni ko'rishimiz mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zarafnoma"si, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" kabi asarlaridan bilishimiz mumkin. Bu kabi asarlarda ham maliklalarning davlat ishlaridagi o'rni, ahamiyati, qilingan bunyodkorlik ishlari keltiriladi. Temuriy malikalar haqida gapirilganda dastlab Sohibqiron Amir Temurning rafiqasi Saroymulkxonimni qilgan bunyodkorlik ishlarini ko'rishimiz

mumkin. Hatto Saroymulkxonimni qurilish ishlariga ham homiylik qilgani tarix zarvaraqlarida keladi. Saroymulkxonim Amir Temurdan madrasa qurish uchun ijozat soʻraydi. Amir Temur rozi boʻlgach otasi Qozogʻon tomonidan sovgʻa qilingan bir juft bilak uzukni sotib, bu mablagʻni madrasa qurish uchun sarflaydi. Saroymulkxonim madrasa qurilish jarayonida tez-tez kelibishboshqaruvchilarga qurilish boʻyicha oʻz fikrlarini aytadi. Saroymulkxonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri XVasr boshlarida Samarqanddagi madrasalar ulkan va mahobatligi jihatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrislari tayinlanib, ular tolibi-ilmlarga diniy va dunyoviy bilim berganlar [1].

Amir Temur ham Saroymulkxonimni amalga oshirgan qurilishishlariga yuksak baho bergan. Amir Temurning oʻzi ham Hindiston yurishidan qaytib kelgach 1399-1404 yillarda Saroymulkxonimga atab Samarqandda “Bibixonim” jome masjidini qurdiradi. Temuriylar davrida malikalarga e’tibor yuqori boʻlganligidan dalolat beradi. Birgina Amir Temurning xotini Saroymulkxonim emas balki bunday ma’rifatparvarlar, ilm homiylari juda koʻpdir. Temuriylar davridagi malikalarning amalga oshirgan ishlarini aytib oʻtar ekanmiz bu malikalar orasida Gavharshodbegimni aytib oʻtishimiz lozim. Gavharshodbegim Shoxruh Mirzonani suyukli katta xotini edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Gavharshodbegim yuksak did farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir soʻzli, qatiyatli, husn bobida ham benazir ayol boʻlgan. Tabiati dindor Shohrux Mirzo koʻp vaqtini toat-ibodat, va kitob mutolasiga sarfladi. Saltanat va devon ishlarini oʻktam va tadbirkor xotini Gavxarshodbegim boshqarardi. Hatto Shohruxning oʻzi donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois saltanatga doir ishlar malikaning nazar - e’tiboriga havola etilar edi. Hatto yurishlarda ham Shoxruh Mirzo bilan birga boʻlardi. Malika yuqori lavozimdagi lashkarboshilarini hatti-harakatlarini kuzatardi. Bu malikaning donoligi, siyosatdan xabardorligi, amalga oshirgan ishlarini boshqa Temuriylar ham hayron qolardi. Temuriylar davrida malikalar yuqori sifatlangan ularning davlat boshqaruvida dono maslahatlari ham hisobga olinardi. Temuriylar davrida malikalarning amalga oshirgan ishalari yuqori baholanar edi. Bundan bilinib turibdiki Temuriylar davrida maliklarga e’tibor kuchli boʻlganligini bildiradi.

1398-yilda Hindistonga yurish qilgan Amir Temur oʻsha davr tarixchilarining yozishicha, “Agar Samarqandga sogʻ-salomat qaytsam jome masjidi quraman”, deb niyat qiladi [2:271]. Hind zaminida muvaffaqiyatli harbiy yurishlarni olib borgan Amir Temur Dehli sultonligini magʻlubiyatga uchratib, 1399-yil bahorida Samarqandga qaytadi. 95 ta fil, koʻplab ot, tuya va boshqa koʻplab oʻljalardan iborat karvon 1399-yil 29-aprelda Samarqandga kirib keladi. Shundan soʻng Amir Temur oʻz niyatini amalga oshirish uchun 1399-yil may oyi boshida Bibixonim madrasasi roʻparasida yangi jome masjidi qurish toʻgʻrisida farmon beradi. Ramazon oyining toʻrtinchi kunida (milodiy 1399-yil 19-may) masjidning qurilish ishlari boshlanadi [3:273].

Inshootni bunyod etishda Eron, Ozarbayjon va Hindistondan kelgan ustalar, sangtarosh va me’morlar ham jalb qilinadi. Tarixchilarning qayd etishicha, masjidni qurish uchun toshlar Zarafshon togʻlaridan Hindistondan olib kelingan fillarda tashilgan. Amir Temur masjid qurilishini oʻzi bevosita nazorat qilish

maqsadida davlat boshqaruvini ham shu yaqin orada joylashgan Bibixonim madrasasi va Tuman ogʻa xonaqosida turib amalga oshiradi.

Ammo oradan bir necha oy oʻtgach, Amir Temur yuzaga kelgan vaziyat taqozosi tufayli Gʻarbga qoʻshin tortishga majbur boʻladi. Amir Temurning bu yurishi qarib besh yil davom etadi. Shu vaqtda ham masjid qurilishi toʻxtamaydi va 1404 yil yoz oylarida deyarli yakunlanadi.

Hijriy 807 yil muharram oyida (1404 yil iyul-avgust) Amir Temur poytaxtga qaytib keladi. U masjidni koʻzdan kechirib, qurilishdan koʻngli toʻlmaydi. Chunki masjidning eshigi uning qarshisida joylashgan Bibixonim madrasasining eshigiga nisbatan ancha past boʻlgan edi. Shundan soʻng Sohibqiron eshikni buzib, qaytadan mahobatli va ulugʻvor qilib qurishga farmon beradi [4].

Ta’mirlash ishlari kecha-yu kunduz davom ettiriladi. Zero, Amir Temur jome masjid qurilishini Xitoyga moʻljallangan yurish oldidan yakunlashni niyat qilgan edi. 1404-yilning noyabr oyida koʻp qor yogʻishi va qattiq sovuq natijasida qurilish ishlari toʻxtatiladi. Lekin bunga qadar asosiy ishlar deyarli yakunlangan edi. 1405-yil fevralda Amir Temur vafot etganidan soʻng masjidda qayta qurilish ishlari amalga oshirilmaydi.

Yodgorlik Amir Temur tomonidan qurilgan boʻlsa-da, u koʻproq xalq orasida Bibixonim jome masjidi, deb yuritiladi. Bibixonim – XIV asrning 40 yillarida Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilgan Chigʻatoy xonadoniga mansub Amir Qozonxonning qizi. Asli ismi Saroymulkxonim boʻlib, 1370 yilda Amir Temurga turmushga chiqqan [5:66].

Masjidning nomlanishi haqida bir necha xil qarashlar mavjud. Ularning birida aytilishicha, Amir Temur Gʻarb yurishiga ketayotgan vaqtda (1399 yil) masjid qurilishi hali tugallanmagan edi. Sohibqiron yurishga ketgach, masjid qurilishiga Bibixonim rahbarlik qilib, oxiriga yetkazadi. Shu sababdan masjid Bibixonim nomi bilan atalgan. Lekin oʻrta asrlarga tegishli biror manbada ushbu masjid haqida soʻz ketganda Bibixonim nomi keltirilmagan.

XIV asr oxirida Saroymulkxonim - Bibixonim tomonidan ulkan madrasa bunyod etilgan boʻlib, ushbu madrasa XVI asrdayoq vayrona holatga kelib qolgan edi. XVII asrda soʻnggi ashtarxoniy hukmdorlar davrida Buxoro xonligida yuzaga kelgan ogʻir siyosiy-iqtisodiy vaziyat, qabilalar oʻrtasidagi oʻzaro urushlar oqibatida mamlakat zaiflashadi va qozoq sultonlari tomonidan bir necha marta talanadi. Ushbu urushlar vaqtida, ayniqsa, Samarqand koʻp talafot koʻrib, hududda oʻlat tarqaladi va aholi shaharni tark etadi. Oradan yillar oʻtib, Buxoro amiri Shohmurod davrida shahar tiklanib, yana aholi bilan toʻladi. Biroq koʻplab me’moriy obidalar joylashgan hudud va ularning nomlanishi xalqning xotirasidan koʻtariladi. Shu tariqa Amir Temur jome masjidi ham bir vaqtlar uning qarshisida qad rostlab turgan Bibixonim madrasasi sifatida nomlanib ketgan.

1895-1896 yillarda professor N.Veselovskiy rahbarligida P.Pokrishkin, rassom va fotograf S.Dudin, fotograf I.Chistyakov, arxitektor-rassom N.Shyerbina-Kramarenko, A.Shusev va boshqalar ishtirokida Samarqandga tarixiy-me’moriy ekspeditsiya tashkil etiladi [6:112].

Ekspeditsiya doirasida Amir Temur jome masjidi arxitektor-rassom N.Shyerbina-Kramarenko tomonidan tadqiq etilib, ushbu bino aslida Bibxonim

madrasasi emas, Amir Temur tomonidan qurilgan jome masjid ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shundan soʻng bino yana masjid sifatida nomlana boshlanadi. Bibixonim nomi esa saqlanib qoladi va hozir ham koʻpchilik Sohibqironning ushbu mahobatli masjidini “Bibixonim jome masjidi”, deb ataydi.

Samarqanddagi me’moriy yodgorlik (1399-1404). Amir Temurning katta xotini Bibixonim (asli Saroymulk xonim) nomi bilan bogʻliq. Amir Temur farmoni bilan qurilgan. Masjidni qurgan usta va me’morlarning nomlari noma’lum. Masjid hovlisining sahni 63,8x76,0 m boʻlib, toʻrt tomondan ravoq va peshtoqlar bilan oʻralgan. Uning umumiy sahni 167x109 m, burchaklarida baland minoralar boʻlgan. Zilzilalar ta’sirida asta-sekin yemirilib vayron boʻlgan, faqat shimoli-gʻarbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Poydevori harsang toshdan, devorlari pishiq gʻishtdan ishlangan (qalinligi 4,5 m).

Masjidning bir-biri bilan bogʻlangan 6 ta me’moriy boʻlaklari saqlanib qolgan. Bular hovlining toʻrida mehrobli va baland peshtoqli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga boʻlingan peshtoqi va shimoli-gʻarb tomonda minoradir. Ilgari bu boʻlaklar 3 qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli bostirma ayvonlar bilan birlashgan va ular tepasida gumbazchalar (400 ta) boʻlgan. Ustunlar 480 ta (oraligʻi 3,5 m) boʻlib, tagkursili, tanasi oʻyma naqsh, tepasi kalla muqarnaslar bilan bezalgan (ular tuproq ostiga koʻmilib ketgan, arxeologik qidiruv ishlari natijasida ustunlar, tagkursilar va mayda kosachalardan iborat muqarnasli ustun qoshi topilgan). Hovlining har ikki yonida tashqi darvozaga ega boʻlgan toʻrtta peshtoqli darvozaxonasi bor. Masjidning hovli sahniga marmar toshtaxtachalar yotqizilgan. Hovli oʻrtasida marmar toshdan yasalgan ulkan lavh (Qur’on oʻqiladigan maxsus kursi) boʻlib, u dastlab asosiy bino ichida turgan (1875 yilda katta gumbazning qulashidan xavflanib, hovli oʻrtasiga chiqarib qoʻyilgan). Atrofiga nafis hoshiyalar chizilgan, muqarnaslar, oʻsimliksimon naqshlar va yozuvlar bilan bezalgan lavh Amir Temurning nabirasi Ulugʻbek farmoniga binoan 15-asr oʻrtalarida yasalgan. Unga “Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Xanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibni sulton, amiri moʻminin Ulugʻbek Koʻragon”-, deb bitilgan [7:345].

Saroymulkxonim Temuriylar saroyida ayollar ta’limiga alohida e’tibor qaratgan. U ayollarning diniy va dunyoviy bilim olishini qoʻllab-quvvatlagan. Uning homiyligi tashkil etilgan “Saroy maktablari”da koʻplab ayollar tahsil olgan. Bu yerda saroy xotin-qizlari va zodagonlar qizlariga oʻqish, yozish, Qur’on, adabiyot va tarix fanlaridan saboq berilgan.

***XULOSA***

Amir Temur markazlashgan davlatga asos solib, kuchli siyosat yuritishida, diplomatik munosabatlarida, elchilarni kutib olish marosimlarida va odilona tashqi siyoastida Saroymulkxonimning sezilarli oʻrni bor edi.

Saroymulkxonim haqida tarix zarvaraqlarida zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, husn-latofat bobida ham betakror ekanligi ta’kidlanadi.Saroymulkxonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy hayotidan yaxshigina xabardor ekanligi, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turuvchi ayol edi.

Saroymulkxonim ilm-ma'rifatga qiziquvchi, ilm sohiblariga homiylik qiluvchi ayol edi. Bu malika haqida gapirilganda temuriylar davrida bu insonning ilm-tolibligiga qoyil qolgan insonlar koʻp edi. Saroymulkxonim Amir Temur urush vaqtlari ham mamlakatdagi qurilish ishlari, obodonchilik ishlariga bosh boʻldi.

Saroymulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda oʻzining oqilona maslahatlari bilan qatnashgan. Amir Temur Saroymulkxonimga oshkora boʻysunmasada uning maslahatlariga ehtiyoj sezardi. Saroymulkxonim haqida gapirilganda Temuriylar davrida ilm-fanga oshiq tolibi-ilm homiysi sifatida tan olingan malika edi.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI***

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаҳус-саҳдайнвамажмаҳул-баҳрайн. / Форс тожиктилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луьатлар тарих фанлар номзоди А. Ўринбоевники. – Т.: ФАН. 1969. - 463 б.

2. Автор XV в. о самаркандских собқтиях 1365 г. // Гуревич А.М. О классовой борьбе в Самарканде в 1365-66 гг. – Т., 1936. С. 10-24.

3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. Маҳсул муҳаррир А.Ўринбоев. -Т.: Меҳнат, 1992. 1-к. - 328, 2- к. -192 б.

4. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси – Т.: IJOD PRESS, – 156 б..

5. Якубовский А.Ю. Падение Золотой Орды. В кн.:Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л., 1950, – С. 216-428.

6. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: Фан, 1993. - 56 б.

7. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: Қомус, 1996. - 128 б.

8. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. -Т.: Фан, 1993. — 56 б.

9. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. -Т.: Қомус, 1996. - 128 б.

10. Темур ва Улуғбек даври тарихи. -Т.: Қомус, 1996. — 264 б.

***Эгамбердиева Т. А.***
Д.пед.н., профессор кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
egamberdiyevaturgunoy@gmail.com
***Абдуносирова О. Б.***
PhD., старший преподаватель кафедры «История Узбекистана
Ферганский государственный университет, исторический факультет
abdunosirovaozoda@gmail.com

# КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САРАЙМУЛЬКХОНИМ

***АННОТАЦИЯ***

В статье представлены размышления о личности Сараймулхоним, её культурно-просветительской деятельности и творчестве. Также освещаются вопросы культурно-бытовых объектов, построенных под её покровительством, и её внимание к образовательному процессу.

***Ключевые слова:*** Индия, Сараймулхоним, система образования, медресе, образование, культурная жизнь, покровительство, мечеть “Бибиханум”, женская школа.

***Egamberdiyeva T. A.***
DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»
Ferghana State University
egamberdiyevaturgunoy@gmail.com
***Abdunosirova O. B.***
Senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan», PhD
Ferghana State University
abdunosirovaozoda@gmail.com

# CULTURAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES OF SAROYMULKKHONIM

***ABSTRACT***

This article presents some thoughts on the personality of Saraymulkhonim, her cultural and educational activities and creativity. The issues of cultural and household facilities built under her patronage and her attention to the educational process are also covered.

***Keywords:*** India, Saraymulkhonim, education system, madrasa, educational, cultural life, patronage, “Bibikhanim” mosque, women's school.

***Israilov N. R.***
«O‘zbekiston tarixi» kafedrasi katta o‘qituvchisi., PhD
Farg‘ona davlat universiteti
nodirtemur90@gmail.com

# AMIR TEMUR VA SULTON BOYAZID MUNOSABATLARI MARI ARUE VOLTER TALQINIDA

***ANNOTATSIYA***

Maqolada XVIII asrda yashagan fransuz ma’rifatparvari Mari Arue Volterning “Millatlarning ruhi va axloqi, moziyning Buyuk Karldan Lyudovik XIII gacha bo‘lgan asosiy tarix faktlar haqidagi insho” nomli asarida Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari tadqiq etilgan. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Turon hamda Usmoniylar davlati hukmdorlari o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, diplom aloqalarning rivojlanib borish dinamikasi hamda “Anqara jangi” tafsilotlariga oid fransuz ma’rifatparvari tomonidan bildirilgan mulohazalar temuriylar davri manbalari asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va muammoviy-xronologik metodlaridan foydalangan. G‘arbiy Yevropada Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlari yuzasidan shakllangan salbiy qarashlarga Mari Arue Volter tomonidan bildirilgan fikrlar ham manbalar asosida tadqiq etilib, xato va kamchiliklar yuzasidan mulohaza yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:*** Amir Temur, Sulton Boyazid, Tahurtang, Movarounnahr, Usmoniylar sultonligi, Laonik Xalkondil, Nizomiddin Shomiy, Ahmad Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Lyudovik XV, “Anqara jangi” “Temir qafas haqidagi ertak”.

## *KIRISH*

Amir Temur tarixi bilan Fransiyada ma’rifatparvar soha vakillari ham tadqiqot olib borganlar. Lyudovik XV (1710–1774) boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, moliyaviy inqiroz, diniy sohadagi ziddiyatlar XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mamlakatda avj oldi. Mutlaq monarxiya tuzimida korrupsiyaning kuchayishi, fuqarolarga cherkov ta’sirini qayta ortishi, ma’rifatparlarni xalq himoyachisi sifatida kurashishga majbur etgan. Jamiyatda individual va diniy e’tiqod erkinligi ta’minlashi tarafdori bo‘lgan ma’rifatparvar Mari Arue Volter (1694–1778) hayoti davomida ham ilmiy hamda fantastik mavzularda tadqiqotlar olib bordi. Bir necha yillar mobaynida qirol tarixshunosi bo‘lgan olimning o‘z yurtidan quvg‘in bo‘lishiga cherkov hamda zodagonlar faoliyatining tadqiqotlarida jiddiy tanqid etilishi sabab bo‘ldi. Natijada Angliya, Germaniya hamda Shvetsariyada yashab, ijodini davom ettirgan Volter, ilmiy faoliyatidagi e’tiroflarga sazovor bo‘lgan “Millatlarning ruhi va axloqi, moziyning Buyuk Karldan Lyudovik XIII gacha bo‘lgan asosiy tarix faktlar haqidagi insho” nomli asarini chop etishga muvaffaq bo‘lgan [5]. Mazkur yirik tadqiqotning ikkinchi jild LXXXVIII bobi Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib [6: 418-426], unda muallif Sohibqiron hayoti va davlatchilik faoliyatiga oid ayrim masalalarga ham

oʻz munosabatini bildirgan. Masalan, ayrim Gʻarb yozuvchilari tomonidan Sulton Boyazd masalasida Amir Temur shavfqatsiz munosabatda boʻlganligi kabi mulohazalarga qarshi chiqqan [6: 421]. Bunday ma’lumotlar arab va fors manbalarida uchramasligi ta’kidlagan Volter Amir Temur haqidagi nisbiy ma’lumotlar turk yilnomalarida qayd etilganligini bildirgan [6:421].

***TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI***

Muallif mazkur asarining 88-bobida Amir Temur va Sulton Boyazid munosabatlariga batafsil toʻxtalib oʻtgan. Volterning fikricha, ikki hukmdor oʻrtasidagi aloqalar Yunoniston imperatorining Amir Temurga murojaatidan soʻng boshlangan [6: 420]. Amir Temurning “Besh yillik” yurishidagi gʻalabalaridan xabardor boʻlgan greklar yetakchisi Usmoniylar sultoniga qarshi kurashish uchun madad soʻragan [6: 420]. Shuningdek, vizantiyaliklar bilan bir vaqtda Sulton Boyazid tomonidan egallangan Kichik Osiyodagi beshta mahalliy hokimlar ham yordam soʻrashgan [6: 420]. Darhaqiqat, Amir Temur huzuriga gʻarbliklarning elchilari tashrif buyurganliklari toʻgʻrisida temuriylar davri manbalarida ma’lumotlar mavjud [2: 283; 3:231-232]. Volter tomonidan yuqorida nomlari keltirilmagan Kichik Osiyoning janubiy-gʻarbiy hamda markaziy qismidagi viloyatlarni XV asr boshida Sulton Boyazid zabt etganligi haqida muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy ham oʻz asarida batafsil toʻxtalib oʻtgan [3: 232]. Shuningdek, Usmoniylar sultoni mazkur fathlaridan qanoatlanmay, Amir Temur himoyasida boʻlgan Arzinjon hokimi Tahurtangdan oʻziga tobe boʻlishi talab qilingan maktub yuborgan [3: 232]. 1400-yil voqelari yuzasidan fransuz tarixchisi tomonidan bildirgan mulohaza yuzasidan shuni ta’kidlash mumkinki, muallif Amir Temur va Sulton Boyazid oʻrtasidagi munosabatlarning dastlabki bosiqichi haqida manbalar asosida umimiy fikr bildirgan. Soʻngra, Volter ikki hukmdor oʻrtasidagi diplomatik munosabatlarning boshlanish davriga toʻxtalib oʻtib, quyidagi fikrlarni bildirgan: “U (Amir Temur – ta’kid bizniki, N.I) Boyazidga elchilarni yuborishdan boshladi va undan Konstantinopol qamalidan voz kechishni va mulkdan mahrum boʻlgan musulmon shahzodalariga adolat qilishni soʻraydi. Boyazid bu takliflarni gʻazab va nafrat bilan qabul qildi. Tamerlan unga qarshi urush e’lon qiladi; uning oldiga yuradi” [6: 420]. Muallif Amir Temur va Sulton Boyazid oʻrtasida uch marotaba boʻlib oʻtgan elchilar almashinuvi borasida ham umumiy tarzda munosabat bildirib, asosan, ikki hukmdor oʻrtasigi diplomatik missiyaning birinchi qismiga oʻz e’tiborini qaratgan. Chunki, Amir Temur tomonidan Sulton Boyazidga yuborilgan dastlabki nomada Usmoniylar hukmdorining Gʻarbiy Yevropa masalasida bandligidan xabardor ekanligi haqida soʻz yuritilib, undan Kichik Osiyoning sharqiy qismiga da’vogarlikdan voz kechish talabi qoʻyilgan edi [2: 284-285; 3: 232-233]. Sulton Boyazidning Amir Temurga harbiy yurish hamda shaxsiy masalada qoʻpol tarzda matni keltirilgan maktub yuborgani ham aynan mazkur muhokamadan oʻrin olgan [1: 256-258].

Shuningdek, fransuz tarixchisi Amir Temur va Sulton Boyazid oʻrtasida boʻlib oʻtgan “Anqara jangi” haqida ham soʻz yuritib, mazkur toʻqnashuv 1401-yilda sodir boʻlganligi hamda jangda ikki tomondan toʻplar hamda olovli qurollardan foydalanganligini ta’kidlagan [6: 420]. Volterning fikricha, Amir Temurning ushbu

jangdagi gʻalabasiga Movarounnahr armiyasining tartibli harakati hamda toʻplardan foydalanilganligi sabab boʻlgan[6: 420]. Garchi, muallif “Anqara jangi” sanasini qayd etishda xronologik xatoga yoʻl qoʻygan boʻlsa-da, biroq Amir Temur tomonidan mazkur toʻqnashuvga jalb etilgan artileriya haqida oʻzida jobiy tushuncha shakllantira olgan. Ushbu jang masalasida Volter tomonidan “Artilleriya” mavzusiga murojaat etishiga muarrix Nizomiddin Shomiy maʼlumotlari asos boʻlgan. “Aslaha va sovutlar bilan, – deb yozadi Volter, – orosta qilingan tirandozlar va otashbozlar xartumi uchi bilan vahshiy yoʻlbarsni halok qiluvchi va intiqom tishini dushman koʻkragiga sanchuvchi bir necha zanjir gʻazabnoq fillar ustiga joylashib, qoʻllarini uqu novak (otish)ga va naftandozlikka chogʻlagan edilar” [2: 331].

“Anqari jangi”da Sulton Boyazid Movarounnahr xoni Mahmudxon tomonidan qoʻlga olinib, Amir Temur huzuriga olib kelingan. Usmoniylar sultoniga Amir Temur tomonidan yuksak eʼtibor koʻrsatilganligi temuriylar davri manbalarida yoritilgan [2: 334; 3: 261]. Lekin, ayrim Gʻarbiy Yevropa adabiyotlarida asirlikdagi Sulton Boyazidga nisbatan Amir Temur shafqatsizlarcha munosabatda boʻlganligi bayon etilgan. Mazkur jarayonni “Qafas haqidagi ertak va sultonlarning turmush qurishiga xalaqit beradigan sabab” nomli kichik sarlavha ostida yoritgan Volter ushbu masalani turk hamda fors-arab manblari kesimida tahlil etgan. Muallifning taʼkidlashicha, Amir Temur tarixini yozgan fors va arab mualliflari Sulton Boyazid temir qafasda saqlanganligi haqida soʻz yuritmagan, aksincha unga yuqori hurmat bilan munosabatda boʻlganligini bayon etishgan [6: 421]. Turk yilnomalarida esa, Amir Temur Usmoniylar sultonini temir qafasga qamashni buyurganligi qayd etilgan. Volterning fikricha, ayrim turk tarixchilari Amir Temurni butun insoniyatga jirkanch shaxs sifatida gavdalantirishni maqsad etgan boʻlib, ushbu jarayonni yoritishda ular yunon tarixchilari asarlaridan koʻchirganliklari eng katta xatolaridan biri boʻlgan [6: 421]. Aftidan yuqorida Volter tomonidan nomi qayd etilmagan yunon tarixchisi Laonik Xalkondil boʻlib, u oʻzining “Yunon imperiyasining qulashi” [4: 28] nomli asarida Sulton Boyazidni temir qafasda saqlanganligini qayd etgan. Shuningdek, muallif ayrim arab tarixchilari ham Amir Temurni Sulton Boyazid oilasining ayollariga nisbatan salbiy munosabatda boʻlganligiga toʻxtalib oʻtgan. “Arab mualliflarining taʼkidlashicha, – deb yozadi Volter, – ziyofat vaqtida Bajazetning yarim yalangʻoch xotini Tamerlanga ichimlik quyib berib hizmat qilgan; bu esa, Turk sultonlarining uylanmaslikkaa ahd qilganliklari toʻgʻrisidagi mashhur afsonaning paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Bu uydirma biz koʻrib turganimizdek, Amurat II (1404–1453)ning Serviya despotining qiziga uylanishi va Mahmud II (1432–1481)ning mahalliy malikalardan biriga uylanishi bilan ziddir” [6: 421]. Yuqorida Volter tomonidan taʼkidlangan arab tarixchisi Ahmad Ibn Arabshoh boʻlib, muarrix oʻzining “Ajoyib al-maqdur, fi tarixi Taymur” asarida Amir Temurning Sulton Boyaziddan qasd olganligi toʻgʻrisidagi voqeani bayon etgan edi [1: 276]. Ammo, Usmoniy sultonlari hayoti yoritilgan adabiyotlarda ham ularning keyingi davrlarda turmush qurganliklari qayd etilgan [7]. Shu bois, fransuz maʼrifatpari Amir Temur va Sulton Boyazid oʻrtasida sodir boʻlgan voqealarni notoʻgʻri talqin etgan mualliflarning qarashlariga

ilmiy dalil keltirish orqali, mazkur masalaga manbalar asosida yondashish zarurligiga chaqirgan.

***XULOSA***

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Volter Amir Temur tomonidan Sulton Boyazid qafasda saqlanmay unga yuksak iltifot koʻrsatganligiga yana bir misol keltirgan. Muallifning fikrcha, agar Amir Temur Usmoniylar sultoni va uning rafiqasiga nisbatan shafqatsiz munosabatda boʻlganda, Sulton Boyazidning oʻgʻillariga ham ana shunday yovuzlik qilishi mumkin edi [6: 422]. Aksincha, Amir Temur Sulaymon hamda Muso kabi Sulton Boyazidning oʻgʻillari bilan aloqa oʻrnatib, ularga gʻamxoʻrlik qilishini ta'kidlagan [6: 422]. Ushbu jarayonning oʻzi Amir Temurga nisbatan mazkur masalada barcha salbiy fikrlarni rad etishga yetarlidir. Darhaqiqat, muarrix Nizomiddin Shomiy [2: 342-343] Sulton Boyazidning oʻgʻli Sulaymonga Amir Temur doʻstona munosabatda boʻlganligini bayon etgan boʻlsa, Sharafiddin Ali Yazdiy [3: 267-268; 270] esa, Musulmon, Ya'qub hamda Musa Chalabiylarga ana shunday iltifot koʻrsatilinganligini qayd etgan.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI***


1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. К.I. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – 328 б.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 528 б.
3. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
4. Chalcocondyles L. Historie de la decadence de l'empire Grec. – Roven:Chez Jean Berthelin, 1660. – 696 p.
5. M$^{R}$. de Voltaire. Essai sur les moeurs et l'esprit des nations et sur les principaux faits de l'histoire depuis Charlemagne jusqu'a Luis XIII. – Geneve, 1771. – T. I. – 553 p.
6. M$^{R}$. de Voltaire. Essai sur les moeurs et l'esprit des nations et sur les principaux faits de l'histoire depuis Charlemagne jusqu'a Luis XIII. – De l'imprimerie de la société littéraure – typographique, 1785. – T. II. – 563 p.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D1%83%D1%80%D0%B0%D0%B4_II

***Исраилов Н. Р.***
PhD., старший преподаватель кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
nodirtemur90@gmail.com

# ОТНОШЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА И СУЛТАНА БАЯЗИДА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МАРИ АРУЭ ВОЛЬТЕРА

***АННОТАЦИЯ***

В статье исследуются отношения между Амиром Темуром и султаном Баязидом, описанные французским просветителем XVIII века Мари Аруэ Вольтером в его труде «О духе и нравах народов, или Опыт о главных исторических фактах от Карла Великого до Людовика XIII». На основе источников эпохи Тимуридов анализируются рассуждения французского мыслителя о противоречиях и столкновении интересов, возникших в конце XIV – начале XV веков между правителями Турана и Османского государства, динамика развития дипломатических отношений, а также подробности битвы при Анкаре. В исследовании применены методы сравнительного анализа и проблемно-хронологического подхода. Также на основе исторических источников рассматриваются взгляды Мари Аруэ Вольтера на негативные представления, сложившиеся в Западной Европе относительно отношений между Амиром Темуром и султаном Баязидом. Автор проводит анализ допущенных ошибок и недостатков, высказывая собственные критические замечания по данному вопросу.

***Ключевые слова:*** Амир Темур, Султан Баязид, Тахуртанг, Мавераннахр, Османская империя, Лаоник Халкондил, Низам ад-Дин Шами, Ахмад ибн Арабшах, Шараф ад-Дин Али Йезди, Людовик XV, «Битва при Анкаре», «Легенда о железной клетке».

***Israilov N. R.***
PhD., senior lecturer at the department of «History of Uzbekistan»
Ферганский государственный университет
nodirtemur90@gmail.com

# THE RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND SULTAN BAYAZID IN THE INTERPRETATION OF MARIE AROUET VOLTAIRE

***ABSTRACT***

The article examines the relationship between Amir Temur and Sultan Bayazid as described by the French Enlightenment thinker of the 18th century, Marie Arouet Voltaire, in his work “On the Spirit and Morals of Nations, or an Essay on the Principal Historical Facts from Charlemagne to Louis XIII”. Based on the sources of the

Timurid era**,** the study analyzes the French philosopher's reflections on the contradictions and clashes of interest that arose in the late 14th and early 15th centuries between the rulers of Turan and the Ottoman Empire, the dynamics of the development of diplomatic relations, and the details of the Battle of Ankara. The research employs the comparative and problem-chronological methods. In addition, Voltaire's views on the negative perceptions that had developed in Western Europe regarding the relations between Amir Temur and Sultan Bayazid are examined on the basis of historical sources. The author analyzes the errors and inaccuracies found in these interpretations and provides critical observations on the matter.

***Key words:*** Amir Temur, Sultan Bayazid, Tahurtang, Transoxiana, Ottoman Empire, Laonic Chalkondyl, Nizam al-Din Shami, Ahmad ibn Arabshah, Sharaf al-Din Ali Yazdi, Louis XV, Battle of Ankara, The Tale of the Iron Cage.

***Матхолиқов Қ. А.***
«Жахон тарихи» кафедраси доценти, т.ф.н.
Ўзбекистон Миллий университети
kakhramon.matkholikov@gmail.com

# ЎЗБЕКИСТОНДА КИРИШ ТУРИЗМИ ШАКЛЛАНИШНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛ

***АННОТАЦИЯ***

Ушбу мақолада Ўзбекистонда туризм тизимининг шаклланишининг илк босқичлари архив манбаалари асосида таҳлил қилинган. Тадқиқотда совет ҳокимиятининг дастлабки ўн йиллигида амалга оширилган иқтисодий ва маданий сиёсат доирасида туризмнинг пролетар йўналишда вужудга келиши, унинг мафкуравий ва ташкилий хусусиятлари ёритилган. Шу билан бирга, мамлакатда илк туризм ташкилотларининг шаклланиши, туристик базаларнинг ташкил этилиши ва уларнинг фаолияти таҳлил этилган. Мақолада туризмнинг ташкилий тизимидаги мавжуд муаммолар архив ҳужжатлари асосида ўрганилиб тегишли ҳулосалар чиқарилган.

***Калит сўзлар:*** Туристик ташкилотлар, туризм марказлари, туристик базалар, экскурсия фаолияти, туризм соҳасида давлат сиёсати, пролетар туризм, совет даври, “мустақил харакатланиш туризми”.

## *КИРИШ*

Бугунги кунда туризм жаҳон иқтисодиётининг энг тез ривожланаётган соҳаларидан бири сифатида давлатлар ўртасидаги маданий, иқтисодий ва ижтимоий ҳамкорликни мустаҳкамлашда муҳим ўрин тутади. Туризм нафақат мамлакат иқтисодиётига валют тушумларини олиб киради, балки миллий маданият, анъаналар ва тарихий меросни жаҳон ҳамжамиятига намоён этиш имконини ҳам яратади.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон учун ҳам туризм соҳаси стратегик аҳамиятга эга йўналиш сифатида қаралади. Мамлакатнинг бой тарихий мероси, маданий ёдгорликлари ва табиий гўзалликлари халқаро туристик майдонда катта салоҳиятга эга. Бугунги кунда туризмни ривожлантириш нафақат иқтисодий манфаат, балки миллий ғурур, маданий дипломатия ва халқаро имиж масаласи сифатида ҳам кўрилади.

Туризмнинг тарихий илдизларини таҳлил қилиш ва Ўзбекистонда бу соҳанинг шаклланиш жараёнларини ёритиш, мамлакат туризм сиёсати эволюциясини англашда муҳим назарий ва амалий асос бўлиб хизмат қилади. Шу сабабли ушбу тадқиқотда Ўзбекистонда туризмнинг вужудга келиши, унинг илк босқичдаги ташкилий хусусиятлари архив манбаалари асосида таҳлил этилган.

## *ТАДҚИҚОТНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ*

XX аср бошларида халқаро туризм жумладан кириш туризми ҳозирги замонавий кўринишда тўлиқ шаклланган соҳалардан бири бўлмаган бўлса-да,

жаҳон миқёсидаги ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ўзгаришлар таъсирида унинг турли шакллари вужудга кела бошлаган эди. Бу даврда туризм асосан маданий-маърифий, илмий-экспедицион, таълимий, соғломлаштирувчи, мафкуравий, тижорат мақсадларида амалга оширилган ва бу давр туризм соҳасидаги турли мақсадлар, йўналишларнинг шакллана бошлаган илк босқичи сифатида баҳоланади.

Дунёдаги энг биринчи туристик ташкилот сифатида эътироф этиладиган ташкилот - Британ Туристик ассоциацияси (British Association for the Promotion of Social Science) ҳузуридаги Томас Кук агентлиги XIX асрнинг ўрталарида вужудга келган бўлса, Чор Россиясидаги “Россия туристлар жамия” XIX асрнинг охирларидан фаолият юрита бошлади. Адабиётлар кириш туризми 1920-йилларда шаклланганини ва хорижий туристларни қабул қилиш билан турли ташкилотлар: касаба уюшмалари, «Совтур» (1923), Совторгфлотнинг Марказий йўловчи конторасини (1924), ВОКС (1925), 1929–1930-йилларда эса ВЦСПСнинг Пролетар талабалар бюроси, ПТЭТ (Пролетар туризм ва экскурсия ташкилоти) (1930-1936 йй) шуғилланганидан далолат беради.

Иттифоқда туристик маршрутлар асосан санаотлашган худудлар ва дам олиш масканларини қамраб олган бўлса, 1930 йил ёзидаги Пролетар туризм бошқармасиниг Марказий кенгаши Қавказ, Қрим, Украина, Кольский яримороли, Алтай ва Урал билан бир қаторда Марказий Осиё ҳам асосий йўналишлар қаторига киритиш режалаштирилди[1].

Бундан кўриниб турибдики, Марказий Осиё совет туризмининг муҳим ҳудуди сифатида 1930 йилдан кўрила бошланди. Бунинг сабабларини қуйидагича изоҳлаш мумкин. Биринчидан, уминтақанинг бой тарихий ва маданий меросини совет аҳолисига намойиш этиш, Самарқанд, Бухоро, Хива, Туркистон каби шаҳарларни туризм орқали кенг тарғиб қилиш имконини берарди. Иккинчидан, иқтисодий жиҳатдан туризм саноат ва қишлоқ хўжалиги марказларига одамларни жалб қилиш, ички туризм орқали ҳудудларнинг ривожланишига туртки бериш вазифасини бажарарди. Учинчидан эса, мафкуравий жиҳатдан туризм аҳоли орасида советчилик ғояларини тарқатишнинг қулай воситаси сифатида кўрилди.

1929-30 йиллар куз ва қиш мавсуми учун белгиланган тарғибот ишларининг асосий вазифаларидан бири йирик саноат корхоналаридаги ишчи оммасини қамраб олишдан иборат эди. Жумладан, 1930 йил учун қабул қилинган режаси туризмни тарғиб қилиш ва уни оммавийлаштиришнинг муҳим дастури сифатида ишлаб чиқилган бўлиб, у 9 та асосий йўналишдан иборат эди. Жумладан, тўпламлар тайёрлаш (сув туризми, маҳаллий туризм, альпинизм ва ҳарбий туризмга оид) маршрутли йўлкўрсатгичлар яратиш, брошюралар нашр этиш (методик ва оммабоп-илмий, назарий ва ташкилий, техник ҳамда бадиий-таърифий мазмундаги) плакатлар, фотосуратли альбомлар, варақчалар, шиорлар, бир кунлик махсус газеталар ва харита-қўлланмалар тайёрлаш режалаштирилган[2]. Бу жараёнда туризмни тарғиб қилиш фақат дам олиш ва маданий ҳордиқ олиш воситаси сифатидагина эмас, балки ишчи синф олдида турган умумий сиёсий ва ижтимоий вазифаларга

хизмат қиладиган восита сифатида ҳам талқин қилинди. Мраказ томонидан туризм соҳасида амалга оширилган тадбирлар Ўзбекистонда ҳам амалга оширила бошланди.

1931 йилда Ўзбекистон ПТЭТ фаолияти Совет Иттифоқи миқёсидаги умумий пролетар туризм сиёсатининг бир қисми сифатида шаклланиб, унинг иқтисодий базаси кенг қамровли аъзолик тизими орқали таъминланган. Молиявий режа маълумотлари асосида кўриниб турибдики, ПТЭТнинг Ўзбекистон Совети ўзининг иқтисодий барқарорлигини аъзолик бадаллари, кириш тўловлари, билет сотуви ва экскурсия хизматларидан олинадиган даромадлар ҳисобига таъминлаган.

Марказий кенгашнинг 1930 йилги режасидаги баҳорга қадар Жамият аъзоларини икки баробарга кўпайтириш ни бажариш мақсадида Ўзбекистон ПТЭТ 1931 йилда ташкилотга 15 000 аъзо жалб этиш режалаштирган. Худди шу даврда Бututн иттфоқ бўйича аъзолар сони 716,7 минг кишини ташкил этган[3]. Ўзбекистондаги бу кўрсаткич бутуниттифоқ бўйича олинганда камчиликни ташкил қилганини кўрсатади. Аъзоларни саноат корхоналари, завод ва фабрикалар аъзоларидан иборатлиги ҳамда туризмнинг оммавийлашуви ва ишчи-синфнинг маданий дам олиш ҳуқуқини таъминлаш сиёсати билан боғлиқ инобатга олинса ҳали саноатлашмаган ва инсфратузулма мавжуд бўлмаган Ўзбекистон учун катта рақам эди. 1 март ҳолатига кўра 3 600 аъзо мавжуд[4] бўлгани ҳолда, йил охиригача аъзолар сонини беш бараварга кўпайтириш режаси туризмни кенг жамоатчилик ичига олиб кириш мақсадини кўрсатади.

Архив ҳужжатларидан маълум бўладики, Ўзбекистон ПТЭТ дарамодларни бир неча турлари мавжуд бўлган. Жумладан, аъзолик бадалларидан олинадиган асосий даромад хар бир аъзодан 2 рубль тўлов орқали 30 000 рубль йиғим кутилган. Бу маблағ ташкилотнинг асосий бюджет манбаси ҳисобланиб, унинг мустақил фаолият юритиши учун муҳим аҳамият касб этган. Туризм ташкилотлари учун бу каби аъзолик тўловлари нафақат иқтисодий, балки тарбиявий аҳамиятга ҳам эга бўлиб, фуқароларда уюшқоқлик ва жамоавийлик ҳиссини мустаҳкамлаган. Иккинчи асосий даромад аъзолик билетлари ва низомларидан тушум бўлиб 1900 рубль қилиб режалаштирилган. Учинчиси эса темир йўл чипталари сотувидан тушум бўлиб, имтиёзли чипталар савдоси – туризмни оммавийлаштиришда муҳим восита бўлган. 1900 дона чипта ҳар бири 15 копейкадан ҳисобланиб, 285 рубль тушум келтирилиши назарда тутилган. Бундан ташқари, ташкиллаштирилган гуруҳлар учун билет сотишдан 800 рубль олинган. Бу туризмнинг транспорт тизими билан узвий боғлиқ ҳолда ривожланганини ва давлатнинг моддий ресурсларини фаол ишлатганини англатади. Шу билан бирга шаҳарлараро экскурсиялардан олинадиган маблағлар мавжуд бўлган бўлиб, СССР миқёсидаги саёҳатлар учун белгиланган 1% чегирмалар орқали 1500 рубль миқдорида даромад кутилган. Бу ерда 2000 киши ўртача 75 рубльдан шаҳарлараро экскурсияларда иштирок этиши инобатга олинган[5]. Бундай кўламдаги ҳаракат туризмнинг иқтисодий айланмаси қанчалик катта

бўлганини кўрсатади. Бу жараён фақат маданий эмас, балки иқтисодий соҳани ҳам ривожлантирган.

Саёҳатчилар асосан Бутуниттифоқ аҳамиятидаги маршрутлар, мустақил харакатланишга йўналтирилган маршрутлар, ва маҳаллий маршрутлардан иборат бўлган. Бутуниттифоқ аҳамиятидаги маршрутлар бўйича 2000 киши иштирок этиши режалаштирилган бўлиб, ушбу йўналишлар Марказий Кенгашнинг тасдиғи билан амалга оширилган. Бу тоифадаги маршрутлардан тушган умумий маблағ 58 590 рубльни ташкил этган.

Мустақил харакатланишга йўналтирилган маршрутларда ҳам 2000 киши иштирок этиши режалаштирилган бўлиб, у ишчилар гуруҳлари ва жамоалар томонидан ишлаб чиқилган ва улар иттифоқ лойиҳаларининг умумий йўналишлари билан қисман мос келган. Бу ҳолат маҳаллий ташаббусларнинг фаоллигидан далолат беради. Бундай маршрутлар гуруҳлари Марказий ёки Республика Кенгашлари томонидан тасдиқланиб, умумий тўловлар асосан Тошкентдаги бош экскурсия базасига йўналтирилган. Умумий тушум 31 360 рубльни ташкил қилган.

Маҳаллий маршрутлар бўйича саёҳатлардан 3000 киши иштирок этилиши режалаштирилган бўлиб, гуруҳлар жойларда ташкил этилган ва расмийлаштирилган. Маҳаллий йўналишлар асосан туман кенгашлари ва Ўзбекистон ПТЭТСовети томонидан тасдиқланган.

Йиғимлар маршрутнинг бошланғич нуқталаридан – Тошкент, Бухоро, Самарқанд ва бошқа шаҳарлардан олинган. Бу йўналишлардан олинган умумий маблағ 58 800 рубльни ташкил этиши режалаштирилган.

Турстларни қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш учун албатта туристик базалар ҳам ташкил этилиши керак эди. Шунинг учун режага туристик базалар фаолияти ҳам киритилган бўлиб, 7000 минг экскурсантларнинг 8,5 кунлик ўртача қолиш муддати ва ҳар бир киши учун 2,5 рубль ҳисобидаги хизмат тўловлари орқали 148 750 рубль ялпи тушум олиш режалаштирилган[6]. Бироқ, туристик базаларнинг етишмаслги, уларни қуриш жараёнидаги қийинчилар туризмни ривожланишига тўсқинлик қилган. Жумладан, 1931 йилдаги ҳисоботларга кўра, Тошкентдаги экскурсия базасини жойлаштириш учун тегишли биноларни топиш муаммоси кескин бўлиб қолган.

Ҳисоботда таъкидланишича, ҳатто белгиланган қатъий чораларга қарамасдан, экскурсия базаси учун мос биноларни олиш имкони бўлмаган, чунки мавжуд хоналар етарли эмас эди. Бу ҳолат ўша даврдаги шаҳар инфратузилмаси, айниқса, тураржой ва маъмурий бинолар танқислигининг яққол кўрсатади.

Шу билан бирга, Тошкент нафақат республика маъмурий маркази, балки бутун республика бўйича экскурсия ва туристик ҳаракатларни мувофиқлаштирувчи асосий логистика маркази сифатида ҳам хизмат қилиши керак эди. Шу сабабли, экскурсия базаси қурилишини кечиктириш умумий республика туризм тизими ривожига салбий таъсир кўрсатиши аниқ эди.

Ҳужжатларда қайд этилишича, базани қуриш ишлари қурилиш материаллари етишмаслиги сабабли жуда секин борган. Мавжуд ҳолатда

ҳатто қурилишни бошлаш имкони бўлган тақдирда ҳам марказнинг фойдаланишга топширилиши 1932 йилгача кечиктирилиши кутилган. Аммо вазиятнинг шошилинчлиги туфайли, база ташкил этиш масаласини кейинга қолдириш мумкин эмас эди – экскурсия фаолиятининг тўлиқ тўхтаб қолиши хавфи мавжуд бўлган.

Шунинг учун Тошкент ПТЭТ Кенгаши томонидан экскурсия базаси учун хусусий уй сотиб олиш тавсия этилган. Бу таклиф икки асосий мақсадга хизмат қилган. Биринчиси туризм фаолиятини тўхтатиб қўймасдан, вақтинчалик базани ташкил этиш бўлса, иккинчиси нодавлат мулкни давлат секторининг фойдасига ўтказиш орқали моддий базани мустаҳкамлаш эди.

Таклиф этилган уй 40 минг рубль баҳоланган бўлиб, у 80–100 нафар экскурсантни жойлаштириш имконини берган. Бу айниқса, шаҳарга келувчи меҳнат жамоалари, талабалар ва ишчилар учун қўлай шароит яратишни таъминлаган бўлар эди.

1931 ййилда Тошкент, Самарқанд ва Эски Бухоро шаҳарларида учта турбазалар тўғридан-тўғри ЎзПТЭТ ўз тасарруфидаги бўлган. Шу билан бирга, Самарқанд турбазаси 1934 йил апрель ойидан бошлаб, Марказий Кенгаш таклифига кўра Самарқанд шаҳар Туризм Кенгаши ихтиёрига топширилган эди. Бироқ, СамПТЭТ томонидан ишлар бесамар, хўжалик назоратисиз юритилгани сабабли, 1935 йил 6 январдан бошлаб база яна ЎзПТЭТ ихтиёрига қайтариб олинган[7].

Мавжуд турбазалар ичида фақат Эски Бухоро базаси иқтисодий жиҳатдан рентабел ҳисобланади. Унинг валовий даромади ҳатто қиш ойларида ҳам ойига тахминан 3000 сўмга етаган. Қолган икки база эса раҳбарликнинг сустлиги ва хўжалик ишларининг яхши йўлга қўйилмагани сабабли зарар билан ишлаган. Шуни қайд этиш лозимки, агар Эски Бухоро базасида йил давомида инвентар маблағи 2275 сўм 98 тийингача кўпайган бўлса, бошқа базаларда аксинча, пасайиш кузатилган.

Турбазалардан ташқари, ЎзПТЭТ тасарруфида сайёҳлар эҳтиёжлари учун савдо магазини ҳам мавжуд бўлган. Бироқ ОПТЭ томонидан Москвадан товар етказиб бериш рад этилгани сабабли, 1934 йил давомида умумий товар айланмаси фақат 66 733 сўмни ташкил этган. Шунга қарамай, магазин йил якунида 6552 сўм миқдорида соф фойда келтирган. Лекин, агар келгусида товар етказиб бериш йўлга қўйилмаса, бу магазинни ёпишга тўғри келиши қайд этилган. Бошқа турдаги ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш фаолиятлари мавжуд бўлмаган. Йил бошида мавжуд бўлган фотостудия ва соатчилик устахонаси Марказий Кенгаш бригадасининг кўрсатмасига кўра 8 мартдан ёпилган[8].

1935 йилда Фарғонада шаҳрида 20 ўринли янги база ташкил этилиши Ўзбекистонда туризм географияси кенгаётганини, ҳудудий диверсификацияга интилиш борлигини кўрсатади. Бу ўз навбатида, совет даврида республика миқёсида туризм инфратузилмасини шакллантиришнинг илк босқичларидан бири сифатида тарихий аҳамиятга эга.

1930 йилларнинг ўрталарига келганда молиявий танглик ҳолатлари яққол кўнина бошлади. Ҳисобот маълумотларига кўра, 1934 йил 1 январидан 1935

йил 1 январигача бўлган даврда ЎзПТЭТнинг асосий воситалари 4,1 минг сўмга камайган. Бу камайиш асосан захирадаги платкаларнинг сотилиши ҳисобига юз берган. Шу билан бирга, ҳисобдор шахслар бўйича қарздорлик миқдори ўтган йилга нисбатан ошган. 1935 йил 1 январи ҳолатига кўра, 9 нафар ҳисобдор шахснинг умумий қарзи 2541 сўм 29 тийинни ташкил этган.

Асосий қарздорлар сифатида қуйидагилар кўрсатилган:

- Раис ўринбосари Саид Хўжаев – 704 сўм 58 тийин;
- Идора бошқарувчиси Баширова – 546 сўм 33 тийин;
- Самарқанд шўъбаси раисининг ўринбосари Дергунов – 486 сўм 07 тийин (Самарқанд базаси мол-мулки етишмаслиги учун);
- Марказий Кенгаш вакили Бугаева – 279 сўм.

Қолган ҳисобдор шахслар эса кичик ҳажмдаги қарзларга эга бўлган[9]. Ҳисоботда таъкидланишича, бу ҳол молиявий интизомнинг йўқлиги ва хўжалик ҳисобининг самарасиз юритилиши билан боғлиқ. Ҳатто бухгалтерия томонидан доимий равишда интизомни тиклаш учун кураш олиб борилган бўлса-да, раҳбариятнинг розилиги билан ҳисобдор шахслар бир-бирига шахсий эҳтиёжлар учун пул берган ва бу ҳақдаги расписка аванс ҳисоботларига қўшиб топширилган. Шу туфайли бухгалтерия қарзларни маошдан ушлаб қолишга улгурмасидан, янги, янада каттароқ аванслар берилган.

Бундай беқарор ва назоратсиз молиявий тизим натижасида 1616 сўм 06 тийин миқдорида умидсиз қарзлар юзага келган, шундан 1611 сўм 06 тийин зарарга ёзилиб, фақат 1 сўм миқдорида қарз беш нафар дебитор ҳисобига қолдирилган.

Шунингдек, ҳисоботда бир қатор суд қарорлари ва давлат арбитражи бўйича ёзиб ташланган қарзлар қайд этилган. Ушбу қарзларнинг асосий қисми ОСВОД[2]га 4000 сўм (1934 йил июлида Давлат арбитражи қарори билан ёзилган), “Хлопок” совхозига 750 сўм, “ЦИ Союза Живсовхозов[3]”га 125 сўм тегишли бўлиб, ушбу қарзлар илгари Марказий Осиё Совети ҳисобидан УзПТЭТ балансига ўтган ва уларнинг ундирилиши амалга ошмаган[10].

Бундан ташқари, Халқ комиссарлари кенгаши (ХКК) ошхонасига тегишли 600 сўм ва будка қурилиши учун 300 сўм аванс қарз сифатида қайд этилган. Суд қарорлари бўлишига қарамасдан, маблағ етишмаслиги сабабли улар ҳам ундирилмаган.

---

[2]“ОСВОД” (русча: Всероссийское общество спасания на водах— Сувда қутқариш Бутун Россия жамияти) 1928–1930-йилларда Совет Иттифоқи ҳудудида ташкил топган ихтиёрий оммавий жамоат ташкилоти бўлиб, унинг асосий мақсади сув ҳавзаларда инсон ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилишдан иборат эди. Унинг фаолияти сувда фалокатларнинг олдини олиш, аҳолини сузишга ва қутқарув усулларини ўрганишга ўқитиш, қутқарув хизматларига ёрдам кўрсатиш ҳамда сувда тезкор ёрдам бериш ишларини амалга оширишга қаратилган. Ташкилотнинг бош мақсади сувдаги фожиаларни камайтириш, одамлар ҳаётини асраш ва сув маданиятини оммалаштириш бўлган. Кейинчалик “ОСВОД” жамиятлари СССРнинг барча республикаларида, жумладан Ўзбекистонда ҳам фаолият юритиб, сузиш мактаблари, қутқарув пунктлари ва тарғибот ишлари орқали аҳоли ўртасида хавфсизлик маданиятини шакллантиришда катта аҳамият касб этган.

[3]Иттифоқ чорвачилик совхозлар марказий илмий институти.

Жами бўйича 7750 сўм 86 тийинлик қарз "умидсиз дебиторлар" сифатида зарарга ёзилган. Шундан 5921 сўм 80 тийин илгари Марказий Осиё Советидан УзПТЭТга 1933 йилда ўтказилган актив ва пассивлар билан боғлиқ. Йил якунларига кўра, умумий зарар 15 704 сўм 54 тийинни ташкил этган. Шунинг 4449 сўм 04 тийини тўғридан-тўғри УзПТЭТ фаолияти билан боғлиқ бўлса, қолган қисми илгари Марказий Осиё кенгаши қарзлари ва уларнинг ёзиб ташланиши ҳисобига тўғри келади.

Ҳисоботда қайд этилган муаммолар – маҳаллий даражадаги раҳбарликнинг сустлиги, марказдан молиявий ва товар таъминотининг узилиши, ҳамда хўжалик юритишдаги бесамарлик – ўша даврдаги совет иқтисодий бошқарув тизимининг умумий камчиликларини акс эттиради. Шу билан бирга, Эски Бухоро турбазасининг самарали фаолияти маҳаллий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва туристик эҳтиёжларни тўғри йўналтириш натижаси бўлган.

Ушбу ҳисобот қисми 1930-йиллар ўрталаридаги Ўзбекистондаги пролетар туризм тизимидаги иқтисодий ҳисобот юритиш ва моддий ресурслар тақсимоти билан боғлиқ муаммоларни яққол кўрсатади. Туризм соҳаси расмий жиҳатдан республика туризм кенгашига бўйсунган бўлса-да, амалда молиявий айланмаларнинг катта қисми тўғридан-тўғри маҳаллий ташкилотлар ва меҳнат жамоалари билан тузилган шартномалар орқали амалга оширилган. Бу эса ҳисоботдаги маълумотларнинг тўлиқ акс этмаслигига, молиявий шаффофликнинг йўқлигига олиб келган.

Совет иқтисодий тизимидаги бу ҳолат марказлаштирилган ҳисобот ва режалаштириш тизими билан маҳаллий ташаббуслар ўртасидаги зиддиятни намоён қилади. Туризм соҳасида бу зиддият айниқса кучли бўлган – чунки бир тарафдан, ишчи ва хизматчилар учун арзон дам олиш имконияти яратиш талаб қилинган, иккинчи тарафдан эса, ушбу базаларнинг иқтисодий рентабеллиги ва ҳисобот интизоми ҳам таъминланиши керак эди.

Шунингдек, "мустақил харакатланувчи турист" атамаси бу даврда ишчиларнинг ўз ташаббуси билан ташкил этган сайёҳлик гуруҳлари мавжуд бўлганини кўрсатади. Улар кўп ҳолларда маҳаллий база инфратузилмасидан фақат қисман – яъни ётоқ ва ётоқ жиҳозларидан – фойдаланган, бу эса совет давридаги туризмнинг оммавий, лекин кам хўжаликлашган хусусиятини намоён этади.

Юқорида кўриб чиқилган ҳолатлар фақат Ўзбекистонда эмас балки бутун иттифоқда кузатилаётган ҳолатлар эди. Ҳукумат даражасида туризм ва экскурсия соҳасини қайта ташкил этиш масаласи кўриб чиқилиб, СССР Марказий Ижроия Қўмитаси Президиуми унинг фаолиятини ихтиёрий жамият шаклида давом эттириш мақсадга мувофиқ эмас, деб топди ва 1936 йил 17 апрелдаги қарори билан 20 майгача ОПТЭни тугатишни белгилади. Шу қарорига асосан, ЎзПТЭТ ташкилотини тугатиш учун хам махсус ликвидация комиссияси тузилди. Ушбу комиссиянинг таркибига ЎзССР Касаба уюшмалари кенгаши ва Туризм ҳамда Экскурсия бўлими вакиллари киритилди. Комиссияга раҳбар этиб Каширин А.И. (Ўзсовпроф раиси) ҳамда ЎзССР Ёшлар иттифоқи Марказий Қўмитаси (ЦК ВЛКСМ УзССР) вакили

тайинланди. Қарорга мувофиқ, ликвидация комиссиясига жамиятни тугатиш ишларини тўлиқ якунлаш ва унинг молиявий ҳамда ташкилий ҳисоб-китобларини жорий йилнинг 1 июнига қадар тугатиш вазифаси юклатилди[11]. Жамиятнинг бутун мулки ВЦСПС ихтиёрига ўтказилди ва унинг тузилмасида Туристик-экскурсия бошқармаси ташкил этилди. Шу билан бирга, оммавий туризм ва спорт-туризм фаолиятини мувофиқлаштириш вазифаси Марказий Ижроия Қўмитаси ҳузуридаги Бутуниттифоқ жисмоний маданият кенгашига юклатилди (1936 йил 21 июндаги МИК ва ХКК қарорига кўра у Бутуниттифоқ жисмоний маданият ва спорт қўмитасига айлантирилди). Шу пайтдан альпинизм туризмдан алоҳида йўналиш сифатида ажратилди.

Туризм тарихи бўйича адабиётларда ОПТЭ тугатилишига турлича сабаблар кўрсатилади. Совет тадқиқотчилари одатда 1936 йилга келиб жамиятнинг амалдаги фаолиятида жиддий камчиликлар тўпланиб қолганини, бу эса туризм ва экскурсия соҳасини ривожлантиришни тўхтатиб қўйганини таъкидлайдилар. Хусусан, меҳнаткашларнинг туризм ва экскурсияга бўлган эҳтиёжлари билан ОПТЭнинг имкониятлари ўртасида кескин тафовут пайдо бўлгани, жамият ўсиб бораётган саёҳатлар ҳажмини таъминлай олмагани танқид қилинган.

Бироқ қайта қуриш ва постсовет давридаги тадқиқотларда эса ОПТЭ тугатилиши мамлакатда сиёсий муҳитнинг кескин ўзгариши билан боғланади. Кўпчилик муаллифларнинг фикрича, 1936 йилга келиб мамлакатда маъмурий-буюруқбозлик тизими тўлиқ шаклланган эди ва бу тизим раҳбарлари ихтиёрий жамиятларга шубҳа билан қарар эдилар[12]. Чунки бундай ташкилотлар оммани фаоллаштирар, юз минглаб фуқароларни бирлаштирар эди. Шу сабабдан ОПТЭнинг йўқ қилиниши Сталин даврида шаклланган «тоталитар бошқарув тизими»нинг бир қисми сифатида баҳоланади. Яъни, давлат учун оммавий ва мустақил ижтимоий ташкилотлар мавжудлиги номақбул эди, чунки бу давлат назоратини қийинлаштирарди. ОПТЭ тугатилиши орқали давлат туризм соҳасини тўлиқ ўз қўлига олишни осонлаштирди.

## *ХУЛОСА*

Ўзбекистонда туризмнинг шаклланиши совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида амалга оширилган иқтисодий ва маданий сиёсат билан чамбарчас боғлиқ бўлган. Туризмнинг пролетар йўналишдаги дастлабки кўринишлари аҳолининг дам олиши, жисмоний тарбия ва маданий савиясини оширишга хизмат қилган. Шу жараёнда республикада илк туристик ташкилотлар, экскурсия бюролари ва базалар фаолияти йўлга қўйилган бўлиб, улар орқали туризмнинг ташкилий тизими вужудга кела бошлаган.

Архив манбаалари шуни кўрсатадики, 1930-йиллардаги пролетар туризми нафақат аҳолининг фаол дам олишини таъминлаш, балки совет мафкурасини тарғиб қилиш, ватанпарварлик ва жамоавийлик руҳини мустаҳкамлаш воситаси сифатида ҳам хизмат қилган. Шу билан бирга, ташкилотчиликдаги

камчиликлар, моддий базанинг етарли эмаслиги ва малака етишмовчилиги туризмнинг ривожига муайян тўсиқ бўлган.

Умуман олганда, Ўзбекистонда туризмнинг илк босқичлари тарихий жиҳатдан жуда муҳим тажриба бўлиб, у кейинчалик мамлакатда туризм тизимини шакллантириш учун асос бўлиб хизмат қилди.

### *ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ*

1. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н. М.: 2006.ст 62.
2. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н. М.: 2006.ст 64
3. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н.М.:2006.ст 81.
4. ЎзМА 837 фонд, 9 рўйҳат, 667 йиғмажилд, 34 варақ.
5. ЎзМА 837 фонд, 9 рўйҳат, 667 йиғмажилд, 34 варақ.
6. ЎзМА 837 фонд, 9 рўйҳат, 667 йиғмажилд, 34 варақ.
7. ЎзМА, 837 фонд, 9 рўйҳат, 667 йиғмажилд, 36 варақ.
8. ЎзРМА, 837 фонд, 23 рўйҳат, 27 йиғмажилд, 21 варақ.
9. ЎзРМА, 837 фонд, 23 рўйҳат, 27 йиғмажилд, 21 варақ.
10. ЎзРМА, 837 фонд, 23 рўйҳат, 27 йиғмажилд, 22 варақ.
11. ЎзРМА, 837 фонд, 23 рўйҳат, 8 йиғмажилд, 73 варақ.
12. Юрчикова Е.В. «Туризм в СССР в конце 1920-х - начале 1930-х годов: организационные и пропагандистские аспекты движения». Дисс.к.и.н.М.:2006.ст 99-100

***Matkholikov K. A.***
PhD., associate professor at the department of «World history»
National university of Uzbekistan
kakhramon.matkholikov@gmail.com

## HISTORICAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF INBOUND TOURISM IN UZBEKISTAN

***ABSTRACT***

This article analyzes the early stages of the formation of the tourism system in Uzbekistan based on archival sources. The study examines the emergence of tourism in a proletarian direction within the framework of the economic and cultural policies implemented during the first decade of Soviet rule, highlighting its ideological and organizational features. Furthermore, the article explores the establishment of the first tourism organizations in the country, the creation of tourist bases, and their activities. The organizational structure of tourism and its

existing problems are studied on the basis of archival documents, leading to relevant conclusions.

***Keywords***: tourist organizations, tourism centers, tourist bases, excursion activities, state policy in the field of tourism, proletarian tourism, Soviet period, "independent movement tourism".

***Матхоликов К. А.***
к.и.н., доцент кафедры «Всемирная история»
Национальный Университет Узбекистана
kakhramon.matkholikov@gmail.com

***АННОТАЦИЯ***

В данной статье на основе архивных источников проанализированы первые этапы формирования системы туризма в Узбекистане. В исследовании освещено возникновение туризма в пролетарской форме в контексте экономической и культурной политики первых десяти лет советской власти, а также раскрыты его идеологические и организационные особенности. Кроме того, рассмотрены процессы становления первых туристских организаций в стране, создания туристских баз и особенности их деятельности. В статье на основе архивных документов изучены существующие проблемы организационной структуры туризма и сделаны соответствующие выводы.

***Ключевые слова:*** туристские организации, туристские центры, туристские базы, экскурсионная деятельность, государственная политика в сфере туризма, пролетарский туризм, советский период, «самодеятельный туризм».

***Муртазаева Р. Х.***
Д.и.н., профессор кафедры «Новейшая история Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
rhmyrt@rambler.ru

# ТОЛЕРАНТНОСТЬ КАК НЕОТЪЕМЛЕМЫЙ ПРИНЦИП МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

## *АННОТАЦИЯ*

В статье рассматривается распространённая в современном мире концепция мультикультурализма как реакция на объективные процессы, происходящие в современных условиях. Показаны причины появления данной политики, дано краткое содержание сути мультикультурализма, а также представлены различные подходы к данному вопросу. В статье даны варианты мультикультурной политики и акцентировано внимание на особенностях проведения данной политики в Узбекистане. Особое внимание уделено управлению многонациональным и мультикультурным обществом в Республике Узбекистан, сердцевиной которой является толерантность.

***Ключевые слова:*** мультикультурализм, многонациональность, дискуссии, особенности моделей, толерантность узбекского народа, исторические корни толерантности.

## *ВВЕДЕНИЕ*

Современный этап развития человечества характеризуется усилением глобализационных процессов, затрагивающих все сферы общественной жизни: экономику, политику, культуру, социальные институты. В этих условиях особую значимость приобретает концепция мультикультурализма, направленная на поиск баланса между универсальными ценностями демократического общества и правом культурных сообществ на сохранение собственной идентичности.

Под влиянием глобализации трансформируются такие базовые категории, как государство, нация, границы и гражданство. Гибкость государственных границ, интенсификация миграционных потоков, углубление экономической взаимозависимости между странами и рост межкультурных контактов – всё это ведет к переосмыслению традиционного понимания национального единства и однородного гражданства.

## *ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ*

Термин «мультикультурализм» впервые был введён в политический лексикон в 1970 году министром иммиграции Австралии Алом Кресби, стремившимся преодолеть напряжённость между англосаксонским населением и коренными австралийцами. С этого момента концепция начала активно развиваться в политике таких стран, как Канада, США, Великобритания и другие западные демократии.

К 1980-м годам мультикультурализм оформился как совокупность идеологических установок и политических стратегий, направленных на признание и институционализацию культурного разнообразия. В отличие от политики ассимиляции, мультикультурализм исходит из принципа равенства всех культур и необходимости их включения в общественную и политическую жизнь.

Мультикультурное общество – это социокультурная структура, в которой сосуществуют различные этнические, языковые, религиозные и культурные группы. При этом основной целью такой модели является не стирание различий, а, напротив, признание многообразия в качестве общественной ценности. В теории мультикультурализма предполагается, что межкультурное взаимодействие может способствовать социальной сплоченности, при условии соблюдения принципов равноправия, толерантности и взаимного уважения.

Современная теория мультикультурализма базируется на ряде философских и культурологических концепций, из которых особую значимость имеют взгляды таких мыслителей, как Чарльз Тейлор и Бхикху Парех.

Чарльз Тейлор**,** опираясь на гегелевское понятие «познания» (признания), формулирует мультикультурализм как политическую необходимость признания культурного многообразия на принципах равноправия. Он утверждает, что признание различных культур и культурных идентичностей должно происходить не только в частной, но и в публичной сфере, включая государственные и политические институты. По мнению Тейлора, каждая культура обладает ценностью, сформированной в результате исторического и жизненного опыта. Соответственно, культурная идентичность имеет право на признание, поскольку именно признание формирует самооценку и статус индивида и группы в обществе.

Бхикху Парех**,** в свою очередь, рассматривает мультикультурализм как механизм, способствующий формированию как индивидуальной, так и коллективной идентичности. С его точки зрения, мультикультурное общество представляет собой социум, включающий две и более культуры, которые взаимодействуют на основе взаимного признания. Парех делает акцент на том, что каждая культура – это способ познания человеком самого себя и окружающего мира, и в этом смысле культурное разнообразие не только допустимо, но и необходимо для полноценного развития личности и общества.

Парех выделяет два принципиально различных подхода к культурному разнообразию. В первом случае общество признаёт и поддерживает культурные различия, рассматривая их как часть своей собственной самоидентификации и открыто приветствуя требования и особенности этнических меньшинств. Такое общество можно охарактеризовать как мультикультурное**.** Во втором случае имеет место монокультурная модель, при которой доминирующая культура стремится к ассимиляции всех иных культур, подчиняя их единому культурному стандарту. Такая модель

предполагает идеологию «плавильного котла», исключающую сохранение этнокультурной самобытности.

Квинтэссенция мультикультурализма – лозунг «Жить вместе – оставаясь разными», что предполагает равноправное сосуществование групп – носителей различных культурных (исторических и др.) идентичностей, однако объединенных универсальными политическими ценностями, зафиксированными прежде всего в американской и канадской конституциях. Известный теоретик мультикультурализма Б. Парекх указывает на необходимость различения мультикультурности как понятия, фиксирующего состояние культурного разнообразия большинства национальных сообществ, и мультикультурализма как «нормативного ответа на наличие такого состояния» [1]. «Как и любое другое общество, общество мультикультурное нуждается, – писал исследователь, – в разделяемых большинством ценностях для своего поддержания. Такая культура, включающая в свой контекст множество культур, может появиться только в результате их взаимодействия и должна поддерживать и подпитывать культурные различия. Для тех, кто привык рассматривать культуру как более или менее однородное целое, идея культуры, состоящей из множества субкультур, может представляться непоследовательной и странной. Но в действительности такая культура и характерна для обществ, где существует культурное разнообразие» [2].

Таким образом, главное в политике мультикультурализма – интеграция мигрантов без их ассимиляции, в то же время мультикультурализм не означает «многонациональность», поскольку гипотетическое сосуществование различных культурных и ценностных систем должно было реализовываться не на основе территориального принципа, не в рамках многонациональных федераций, а в рамках одной государственной нации и только на основе принципов демократии и толерантности. Некоторые исследователи считают, что этот феномен не поддается однозначному определению. Как заметил американский либеральный историк и публицист Р. Бернстайн, «“Мультикультурализм” определенно – понятие неопределенное» [3]. Тем не менее существуют умеренно либеральные и радикально левые концепции мультикультурализма. Либеральный вариант предполагает поддержку культурных групп в их стремлении к сохранению своей идентичности, признавая, впрочем, что единая политическая культура жизненно необходима для функционирования демократического общества.

Главным богатством, с которым Узбекистан пришел к независимости, является многонациональность населения. Государственная национальная политика Узбекистана базируется на концепции сохранения и укрепления исторически сложившейся полиэтничности страны.

Узбекистан – уникальное государство с точки зрения национально-демографической структуры. Здесь издавна сформировался сложный и динамично развивающийся многонациональный состав населения. Отмечается активный взаимообмен и взаимообогащение народов, прежде всего в сфере культуры.

Узбекистан даёт убедительный пример мирной жизни и сосуществования различных национальностей, религий, культур и традиций народов, его населяющих, межнационального согласия и духовного единение его граждан в условиях многонациональности и многоконфессиональности.

В этнополитике в Узбекистане исходят из того, что уровень цивилизованности и демократичности общества, движущегося к построению правового государства, определяются тем, какие условия и возможности предоставляются всем этническим группам для их саморазвития и самоутверждения, сохранения культурной и лингвистической самобытности, полной реализации духовного и интеллектуального потенциала.

Для всех этнических групп Узбекистана в целом характерны, формирующиеся в широких массах населения, чувства толерантности и взаимопонимания, неразрывной близости и единства в многообразии.

Атмосфера межэтнического согласия определяется сознанием сопричастности общему процессу социального развития, общего вклада в развитие экономики, культуры, духовной жизни республики.

В Узбекистане 30 июля объявлен «Днем дружбы» народов и традиционно широко отмечается как большой праздник. Президент Республики Узбекистан Ш. Мирзиёев в своём Поздравлении народу Узбекистана с Днем дружбы народов 30 июля 2024 года отметил: «В Узбекистане накоплен важный опыт в области управления многонациональным и мультикультурным обществом, вызывающий большой интерес в мире. Мы и впредь будем уделять особое внимание повышению роли негосударственных организаций, развитию институтов гражданского общества путем усиления гарантий их прав, обеспечению свободы совести каждого гражданина независимо от национальности, языка, религии и социального положения. Последовательно продолжим политику, направленную на упрочение дружбы и согласия между живущими в стране представителями разных наций и конфессий» [4].

«Узбекистан – наш общий дом» - эта благородная идея стала девизом всех 157 национальных культурных центров, что является практическим воплощением в жизнь межнационального мира и согласия.

Говоря об опыте Узбекистана в мультикультурализме, можно с уверенностью подчеркнуть, что в стране утвердилась мультикультурная личность – это новый тип личности, чьи ориентации и взгляды на мир подразумевают, что он принимает жизненные образы, отличающиеся от его собственных и психологически и социально готов принять различные культурные реальности.

Позитивные перемены, которые происходят сегодня в новом Узбекистане в области сохранения и развития этнокультурного многообразия, позволяют сделать вывод о том, что этническая толерантность в Узбекистане, как на личностном индивидуальном, так и на государственном уровне имеет глубокую историческую и серьезную современную практическую основу. А это, в свою очередь, является важным факторы укрепления

межнационального согласия и сотрудничества, социально-политической стабильности и устойчивого развития общества.

Узбекистан, один из очагов цивилизации, на протяжении трех тысячелетий смог выстоять благодаря многообразию культур, толерантности, богатому разнообразию этносов, традиций и конфессий. В качестве исторической эстафеты предков узбекистанцам передана мысль о том, что сила и будущее в единстве.

В настоящее время Узбекистан с 37-ми миллионным населением – одно из наиболее многонациональных и многоконфессиональных государств мира, где проживают представители 137 национальностей, 16 конфессий. Народы, населяющие Узбекистан, объединены многовековой общей судьбой, принадлежностью к государству с древней и многоликой культурой.

Самыми крупными этническими группами на территории Узбекистана являются узбеки, таджики, казахи, каракалпаки и русские. Узбеки – 84,4%; Таджики – 4,9%; Казахи – 2,4%; Каракалпаки – 2,2%; Русские – 2,1 %; Другие национальности – 4,1% [5]. Отношение титульной нации в каждом государстве к людям разной этнической и расовой принадлежности в полиэтнических странах всегда являлось одним из показателей зрелости гражданского общества и состояния демократии в государствах. Сейчас эта одна из моральных и полиэтнических проблем, стоящих в современном мире на повестке дня [6].

Важной стороной узбекистанской модели межнационального согласия является роль титульной нации в полиэтнчисном Узбекистане. Исторически узбекский народ толерантен по отношению к представителям различных национальностей и религий, что проявлялось на всех этапах исторического развития страны вплоть до современности. В годы независимости титульная нация справилась с задачей восстановления и развития традиций, обычаев, языка и других национальных ценностей, а также одновременно были восстановлены и получают развитие национальные ценности представителей всех 137 наций и народностей Узбекистана [7].

## *ЗАКЛЮЧЕНИЕ*

Важным источником мирного сосуществования наций и народностей на земле Узбекистана является особый менталитет узбекского народа, в основе которого находится исторический опыт народа, сложившийся на протяжении веков, система обычаев и традиций, доброта, миролюбие, открытость, широта и щедрость души, гостеприимство, милосердие. Они сыграли большую роль во время самых трудных исторических испытаний, став основой стойкости узбекского народа.

Отвечая критикам мультикультурализма, отрицающим роль титульной нации, следует отметить, что опыт Узбекистана свидетельствует о ведущей роли титульной нации, ее отношению, поведению, поддержке, взаимодействию с народами, проживающими вместе в одной стране [8].

Плюсы мультикультурализма – это сохранение мира, ликвидация сепаратизма, признание прав меньшинств, устранение шовинизма привлекут

внимание и интерес многих государств. Исторический опыт в проведении мультикультурной, толерантной политики Узбекистаном и в целом государствами центральноазиатского региона являются наглядным примером в проведении в жизнь межнационального согласия, мира и добра.

***СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ***

1. Сахарова В.В. Мультикультурализм и проблемы интеграции иммигрантов. Cyberleninka.ru. Научная статья по специальности «Политические науки». Вестник СПбГУ. Сер.6, 2010. Вып.2.

2. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. – Ташкент, 2004.

3. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент, 2010.

4. Поздравление Президента Шавкат Мирзиёева в связи с Днем дружбы народов. 30 июля 2024 года. President.uz.https://president.uz lists.vie.

5. gazeta.uz 19 августа 2021 года.

6. Рашидов Ф.Т. Толерантность, международные и религиозные отношения в Узбекистане: история, настоящее и перспективы. // Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, 2020.

7. Ташматов И. Межнациональные отношения в независимом Узбекистане. – Ташкент, 2022.

8. Ташматов И. Религиозная толерантность в Республике Узбекистан. / Межконфессиональный диалог, роле общественных структур и государственную политику в религиозной сфере.- Ташкент, 2024.

***Murtazayeva R. X.***
«O‘zbekistonning eng yangi tarixi» kafedrasi professori, t.f.d.
O‘zbekiston Milliy universiteti
rhmyrt@rambler.ru

## BAG‘RIKENGLIK O‘ZBEKISTONDA MULTIKULTURALIZM TAMOYILINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

***ANNOTATSIYA***

Maqolada zamonaviy dunyoda keng tarqalgan multikulturalizm tushunchasi bugungi sharoitlarda yuz berayotgan obyektiv jarayonlarga munosabat sifatida tahlil qilinadi. Ushbu siyosatning vujudga kelish sabablari yoritilib, multikulturalizmning mohiyatiga qisqacha ta’rif berilgan, shuningdek, mazkur masalaga oid turli yondashuvlar keltirilib o‘tilgan. Maqolada multikulturalizm siyosatining turlari ko‘rsatilgan va O‘zbekistonda bu siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasidagi ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatni boshqarishga, xususan, uning asosini tashkil etuvchi bag‘rikenglik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:*** multikulturalizm, ko‘p millatlilik, munozaralar, modellarning xususiyatlari, o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari.

***Муртазаева Р. Х.***
DSc., professor at the department of «Modern history of Uzbekistan»
National university of Uzbekistan
rhmyrt@rambler.ru

# TOLERANCE AS AN INTEGRAL PRINCIPLE OF MULTICULTURALISM IN UZBEKISTAN

***ABSTRACT***

This article examines the concept of multiculturalism, widely prevalent in the modern world, as a response to objective processes occurring in contemporary conditions. The reasons for the emergence of this policy are outlined, a brief summary of the essence of multiculturalism is provided, and various approaches to this issue are presented. Variants of multicultural policy and emphasizes the particularities of implementing this policy in Uzbekistan will be discussed in the article. Special attention is given to the management of a multinational and multicultural society in the Republic of Uzbekistan, at the core of which lies tolerance.

***Keywords:*** multiculturalism, multinationality, discussions, model features, tolerance of the Uzbek people, historical roots of tolerance.

***Normurodov D. R.***
«Arxeologiya va etnologiya» kafedra dotsenti., PhD
O‘zbekiston Milliy universiteti
d.r.normurodov@mail.ru

# CHOCHNING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLARDAGI IBODAT ME’MORCHILIGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

***ANNOTATSIYA***

Maqolada Choch vohasining antik va ilk o‘rta asrlarda e’tiqodiy marosimlar o‘tkazish uchun qurilgan me’moriy inshootlari hamda ularda quyosh, olov va ajdodlar xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan marosimlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, Choch va unga yaqin hududlardagi ibodat marosimlariga mo‘ljallangan xochsimon va to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli inshootlar, uy ibodatxonalarining paydo bo‘lishi, tarqalishi va mahalliy an’analar bilan uyg‘unlashuvi yoritilgan. Chochdagi ibodat marosimlari o‘tkazilgan joylar Markaziy Osiyoning turli tarixiy-madaniy o‘lkalaridagi kabi aholi hayotining oilaviy va jamoaviy marosimlarga moslashganligi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan Sug‘d, Baqtriya, Xorazm va Farg‘ona ibodatxonalari bilan uyg‘unligi va mahalliy sharoitda yanada takomillashib borgani qayd etilgan.

***Kalit so‘zlar***: Toshkent, Choch, Sug‘d, Baqtriya, Xorazm, Shoshtepa, Qanqa, Mingo‘rik, sak, Qovunchi madaniyati, ibodatxona.

## *KIRISH*

Markaziy Osiyo hududlarida ibodat marosimlarini o‘tkazish uchun me’morchilik inshootlarini qurish an’anasi turli madaniy, etnik va diniy jarayonlar ta’sirida uzoq tarixni bosib o‘tgan. Qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Choch deb yuritilgan hozirgi Toshkent vohasi aholisi mazkur jarayonda o‘ziga xos o‘rin egallagan. Vohada bir tomondan qadimgi sak-skif, dax-sarmat qabilalari, Qavunchi madaniyati vakillari madaniyati bilan bog‘liq an’analarni saqlab qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Sug‘d, Baqtriya, Xorazm va Farg‘onada tarqalgan qator arxitekturaviy majmualarni qurish madaniyati bilan o‘zaro ta’sirga kirishgan.

Choch vohasida shakllangan ibodat marosimlarini o‘tkazishga mo‘ljallab qurilgan me’moriy inshootlarning eng muhim jihati ularning turli davrlarda turli e’tiqodiy marosimlar o‘tkazilganligi va turlicha vazifalarni bajarganligidir. Dastlab bunday majmualar ajdodlar ruhi va olovga ibodat qilish bilan bog‘liq marosimlarni o‘tkazishga moslashtirilgan. Keyinchalik esa ular uy ibodatxonalari, kichik ziyoratgohlar va yirik jamoat ibodatxonalar ko‘rinishida taraqqiy etgan. Milodiy I ming yillikning birinchi yarmida Chochdagi ibodatxonalarda shakllangan me’moriy-tipologik xususiyatlar nafaqat mahalliy an’analarning davomi, balki butun Markaziy Osiyo arxitekturasiga ta’sir ko‘rsatganligi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

## *TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI*

Choch vohasining Qang‘ konfederatsiyasi (mil. old. III – milodiy III asrlar) tarkibiga kirgan davridagi turli inshootlar asosan paxsa va xom g‘ishtlardan qurilgan. Imoratlarni qurishda Baqtriya, Sug‘d va Xorazmdagi kabi Chochda ham standart — 46–52×23–26×9–12 sm, shuningdek 40×40×10–14 sm o‘lchamli xom g‘ishtlardan foydalanilgan [11]. Ayniqsa, bunday to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi g‘ishtlar imoratlarning arkalari va ravoqlarini qurishda keng ishlatilgan. Arka va ravoqlarni qurishda g‘ishtlar yonlamasiga terilgan. Bu usul keyinchalik tim shaklida yopilgan xonalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Milodiy I ming yillik o‘rtalaridan boshlab, imoratlarning tomi bir tomonga biroz nishoblatib yog‘och xodalar qo‘yilib, uning ustidan yog‘och vassa, so‘ng qamish to‘shab (yoyib) chiqilgan. Qamish ustiga esa tuproq yoyilgan va loy bilan suvalgan. Hozirgi Toshkent viloyatining Tuyabo‘g‘iz suv ombori hududida joylashgan Kindiktepa yodgorligidan tomi shu usulda yog‘och ustun bilan yopilgan imoratning qoldiqlari topilganligi buni tasdiqlaydi [20].

Chochning Qang‘ davriga oid imoratlarning devorlari ko‘pincha o‘zaro bir-biriga tutashgan holda qurilgan. Bunday tutash devorli imoratlardan kengroq tarqalgani aholining uylari bo‘lib, ular oilaviy jamoalar uchun mo‘ljallangan [14]. Ayrim yirik imoratlar esa harbiy kazarmalar vazifasini ham bajargan [30]. Kindiktepa qazishmalarida ko‘chalarning bir qismi ochilib, ularning har ikki yonida tartibli turar joylar va ishlab chiqarish xonalari joylashganligi aniqlangan [12]. Bu uylardan sopol idish parchalari va o‘choq izlarining topilishi aholida hunarmandchilik rivojlanganini ko‘rsatadi.

Qang‘ davrida diniy-mafkuraviy marosimlar bilan bog‘liq ibodat inshootlarining tomlari ham yuqorida aytilgani kabi usulda yopilgan. Bunday imoratlardan topilgan qovunchi madaniyatiga xos diniy buyumlar orasida “qo‘chqorboshi” va “sigirboshi” shaklidagi o‘choq tagliklar yoki “kabobqo‘ralar” alohida e’tiborga loyiq [3]. Bu buyumlar imoratda o‘tkazilgan olov ibodati bilan bog‘liq marosimlarda foydalanilgan. Islom dinida hozirgi kungacha asosan qo‘y (qo‘chqor) va sigir (ho‘kiz)larni qurbonlik qilish odati saqlanib kelgan bo‘lib, bu ushbu hayvonlarning kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelganligining timsolidir.

E’tiqodiy marosimlarni o‘tkazishga mo‘ljallab qurilgan ibodatxonalar hozirda Toshkent shahrida joylashgan Shoshtepa va Mingo‘rik, Toshkent viloyati, Oqqo‘rg‘on tumanidagi Qanqa, Ohangaron tumanidagi Suyurlitepa va O‘ralitepa kabi yodgorliklarda aniqlangan. Shuni ham ta’kidlash joizki, antik davrda Choch hududiga kirgan, hozirgi Janubiy Qozog‘istonning Aris daryosi havzasigacha bo‘lgan hududlarda yashagan aholining asosiy ibodat marosimlari o‘tkaziladigan imoratlar ham Toshkent vohasidagi ibodatxonalar bilan deyarli bir xil bo‘lgan. Jumladan, Toshkent shahridagi xochsimon tarhi Shoshtepa va Mingo‘rik ibodatxonalari bilan hozirgi Chimkent va Yassi shahridan aniqlangan ibodatxonaning tuzilishida umumiylik bor [38].

Shoshtepadagi xochsimon tarhli ibodatxona quyosh, ajdodlar ruhi (kulti) va olov ibodati bilan bog‘liq marosimlarning an’anaviy markazi sifatida muhim ahamiyatga ega. U tashqi tomondan aylana shaklidagi devor bilan o‘ralgan va

markaziy qismi xochsimon tuzilishda. Bu ibodatxona Chochdagi Qovunchi madaniyatining ilk yirik marosim majmuasi hisoblanadi. Uning ichki xonalaridan birida podium-supa qurilgan bo‘lib, unga qo‘shni xonada odam suyaklarining parchalari topilgan. Shimoliy xonalardan birining devori qizil oxra bilan bo‘yalgan. Bu xonada qurbonliklar o‘tkazilgan [7]. Odam suyaklari saqlangan ichki xonada ajdodlarga sig‘inish bilan bog‘liq ibodatlar o‘tkazilgan. Ibodatxonaning shimoliy qismidagi g‘ishtli mehrobda olov yoqilgan [42]. Bu joyda olov bilan bog‘liq marosim o‘tkazilgan.

Shoshtepa ibodatxonasi o‘zining tuzilishi va funksiyalari jihatidan Orolbo‘yi sak qabilalari qabr-qo‘rg‘onlari bilan bog‘liq. Ammo bu yerda marhumni yoqish urfi asta-sekin yo‘qola borib, uning o‘rniga quyoshga, olovga va ajdodlar ruhiga bag‘ishlangan ibodat marosimlari ustunlik qilgan. Bu jarayon keyinchalik Choch va Sug‘d ibodatxonalarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan [40]. Bu holat sak va sarmat qabilalari orasida keng tarqalgan urf-odatlar — marhum ruhini olov orqali qadrlash, u dunyoga kuzatish marosimining evolyutsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq Shoshtepada bu urf-odat to‘liq saqlanmagan. Marhumlarni yoqish o‘rniga ularning suyaklari ibodatxonadagi alohida xonalarda saqlangan [40]. Demak, bu ibodatxonaning funksiyasi dafn marosimidan ko‘ra ko‘proq ajdodlar ruhini xotirlash bilan bog‘liq bo‘lgan. Shoshtepa tuzilishiga ko‘ra quyoshga qiyos qilib qurilganligi va unda quyoshning ramzi hisoblangan olovning yoqib qo‘yilganligi Chochning Qovunchi madaniyati vakillari quyoshni qadirlaganliklarini ko‘rsatadi.

Shoshtepa ibodatxonasidagi me’moriy yechimlar va marosimlar zamirida dunyo daraxti va kosmogramma haqidagi qadimgi tasavvurlar ham yotadi. Olov bilan bog‘liq marosimlarda ishlatilgan novdalar va shoxlar, ehtimol, dunyo daraxtining ramzi sifatida qo‘llanilgan. Gerodotning yozishicha, skiflar hayotida muqaddas novdalar orqali fol ochish urfi mavjud bo‘lgan [25]. Savromat qabrlarida ham yangi daraxt shoxlari qo‘yilgani ma’lum [13]. Bu holat mifologik modellarda dunyo daraxtining quyi qismi yer osti dunyosini, tanasi yerdagi dunyoni, shox-shabbalari esa samoviy dunyoni ifoda etgani bilan uyg‘unlik kasb etadi [23; 39]. Shoshtepa ibodatxonasidagi olov mehrobi va xonalarning xochsimon tarhlanishi ana shu kosmologik g‘oyalarning me’moriy ifodasi bo‘lgani ehtimoldan xoli emas.

Toshkent shahridagi Shoshtepa va Mingo‘rik, Janubiy Qozog‘istonning Turkiston shahridagi Kultepa, Buxoro viloyatidagi Setalak, Sharqiy Farg‘onadagi Bilovurtepa yodgorligidagi xochsimon tarhli ibodatxonalarda Orolbo‘yi qabilalari va dashtliklarda yashagan saklar madaniyatiga xos marosimiy an’analar mujassam bo‘lgan [15; 21; 38; 43]. Farg‘ona vodiysidagi Sultonobod ibodatxonasida xochsimon tarhli katta o‘choq topilgan [4]. Bunday ibodatxonalarga o‘xshash imoratlar Sug‘d va Yettisuv hududlarida ham qayd etilgan [27; 28]. Jumladan, Samarqand Sug‘didagi Qo‘rg‘ontepa olov ibodatxonasi va Zauraktepadagi ibodatxonalar Chochdagi ibodatxonalarga yaqin o‘xshashligi bilan ajralib turadi[5].

Shoshtepa majmuasi dastlab ko‘chmanchi qabilalar urf-odatlariga asoslangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u shahar madaniyatiga moslashib borgan. Marhumga sig‘inish marosimlari ibodatxonalarda davom etgan, ammo ular xonadonlardan

tashqarida, maxsus qurilgan inshootlarda oʻtkazila boshlagan. Hozirgi Toshkent shahri hududida joylashgan Koʻgayttepa yodgorligida olov yoqilgan 20 dan ortiq chuqurchalar topilgani buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Koʻgayttepadagi ibodat marosimlari oʻtkazilgan uylardan birida kul toʻldirilgan xona ochilgan [17; 18]. Chochda VII–VIII asrlarga kelib esa, aylana va xochsimon ibodat majmualarining oʻrniga toʻgʻri burchakli olov mehrobiga ega ziyoratgohlar keng tarqalgan [18].

Qanqa yodgorligidagi eftalitlar va turk xoqonligi davriga tegishli ibodatxonaning yogʻochli gumbazi va konstruktiv yechimlari avvalgi Qovunchi madaniyatiga oid ibodatxonalarning davomi deyish mumkin. Bu yerda chodirsimon ramziy konstruksiyalar saqlanib qolgan. Ular muqaddas olov yonib turadigan xonaning ustiga qurilgan chodirli tuzilishlarga borib taqaladi [19]. Mazkur ibodatxonada ham sak va sarmat an’analaridan kelib chiqqan olovga ibodat an’anaviy koʻrinishda davom etgan, biroq unda marhumlarni dafn etish marosimlari amalga oshirilmagan, e’tibor koʻproq olovga, ruhlar va ilohlarga bagʻishlangan ibodat marosimlariga qaratilgan [40].

Markaziy Osiyoning turli hududlarida, jumladan Choch vohasida uy ibodatxonalari ham keng tarqalgan. Ular har bir xonadonda oilaviy diniy marosimlar oʻtkazish uchun xizmat qilgan. Odatda, katta yoshli oila a’zosi ushbu marosimlarni boshqargan, maqsad esa “iloh”dan oila a’zolarini turli baxtsizliklardan asrash, farovonlik va baraka soʻrash boʻlgan. Etnografik ma’lumotlarga koʻra, masalan, Pomir aholisi uylarida ibodat joyi vazifasini tomni koʻtaruvchi ustun bajargan [29]. Bu holat qadimgi tasavvurlarga koʻra, uyning tuzilishi va uni himoya qiluvchi kuchlar bilan bogʻliq boʻlgan. Odatda, olov va oʻchoq uy ichidagi diniy marosimlar markazi sifatida xizmat qilgan [29].

Chochdagi kabi uy ibodatxonalari qadimgi davrda Oʻrta Osiyoning boshqa hududlarida ham mavjud boʻlgan. Bunga Marv shahridagi soʻnggi Parfiya va ilk Sosoniy davriga oid “un tegirmonchilari mahallasi” uy ibodatxonalarining yorqin misolidir. Bu mahallada har biri bir necha xonali 10 ga yaqin xonadon qazib oʻrganilgan. Har bir xonadonda 2–4 ta qoʻl tegirmoni ishlagan va asosiy ish jarayoni uy ichida amalga oshirilgan. Arxeologik topilmalarda topilgan yuzga yaqin terrakota-haykalchalar, ayniqsa ularda ayol ma’budalarning tasvirlanishi, koʻplab urchuqboshlar va taqinchoqlar — tegirmonchilik asosan ayollarga xos kasb boʻlganini koʻrsatadi [32]. Shu bois tegirmonchilarning homiy ma’budasi ayol xudo sifatida namoyon boʻlgan. Donni yanchib un tayyorlash va non pishirish bilan bogʻliq ibodat marosimlari ana shu ma’budaga bagʻishlangan boʻlgan [26; 31; 32].

Qarshi vohasidagi Yerqoʻrgʻon shahar xarobasidan ham uy ibodatxonalari aniqlangan[24; 33; 40]. Yerqoʻrgʻondagi kulollar va metallurglar mahallalarida ibodat uchun moʻljallangan xonalar boʻlgan. Ularning markazida olov mehrobi, devorlarida esa tokchalar boʻlib, tokchalarga homiy “xudo”larning haykalchalari qoʻyilgan. Yerqoʻrgʻondagi metallurglar ustaxonalarida ishlab chiqarish pechlari va oʻchoqlar koʻp uchragan boʻlsa-da, diniy maqsadga xizmat qiluvchi maxsus oʻchoqlar topilmagan. Bu holat Marvdagi kabi, mehnat jarayoni bilan bogʻliq

ibodatlar ko‘proq uylarda yoki xonadon ichida amalga oshirilganini ko‘rsatadi [41].

Chochdagi uy ibodatxonalari ham Sug‘ddagilarga yaqin bo‘lib, ularda tokchalar, mehroblar va olov yoqish uchun maxsus o‘choqlar bo‘lgan. Samarqand uylaridan mehrobli ziyoratgohlar topilgani ma’lum [24]. Panjikent uylarida esa “uy ibodatxonalari” deb nomlangan xonalar ochilgan. Ularda ajdodlar va homiy “xudo”larga bag‘ishlangan marosimlar o‘tkazilgan [19; 36]. III–IV asrlarga kelib Sug‘d va Baqtriya uy ibodatxonalarida haykalchalar, qurbongohlar va olov mehroblari keng tarqaldi [33; 44]. Bu jarayon Chochga ham ta’sir ko‘rsatgan. Chochdagi Mingo‘rik va Yunusobod Oqtepa ibodatxonalari, Qanqa qal’asidagi ibodat majmualari shu turdagi marosimiy binolarga misol bo‘la oladi [9; 10; 22].

Farg‘ona vohasi o‘ziga xos madaniy va diniy an’analari bilan ajralib turadi. Bu hududning ayrim joylarida haykaltaroshlik va tasviriy san’at asosan budda ibodatxonalari bilan bog‘liq bo‘lgan (Quva nazarda tutilmoqda. D.N.). Farg‘onada mahalliy e’tiqodlar asosida qurilgan ibodatxonalarning bir qismi Sug‘d va Choch ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi urbanizatsiya jarayonlari va Buyuk Ipak yo‘li orqali amalga oshgan madaniy aloqalar bilan izohlanadi [7; 8]. Farg‘onadagi sug‘d faktoriyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim diniy majmualar, xususan, Pop atrofida topilgan qator majmualar keyinchalik karvonsaroylarning dastlabki prototiplari sifatida ham xizmat qilgan. Shu bilan birga, Sug‘d va Choch madaniy aloqalari bilan bog‘liq olovga e’tiqod qilish an’analarini hozirgi Namangan viloyati Uchtepa tumanidagi Uchtepa-2 yodgorligida kuzatish mumkin. Bu joyda ham ko‘plab o‘choqchalar topilgan [6].

VII–VIII asrlarda Farg‘onada Zauraktepadagi to‘g‘ri burchak shaklidagi ibodatxona va Samarqand Sug‘didagi Qo‘rg‘ontepadagi olov ibodatxonasida bir-biri bilan yaqin qiyoslash mumkin bo‘lgan majmualar qurilgan [4; 5]. Biroq Farg‘onaning asosiy qismida ajdodlar kulti va qabristonlarda amalga oshirilgan diniy marosimlar ustuvor bo‘lib qoldi [7; 8]. Bu esa Choch va Sug‘dda keng tarqalgan olov ibodatxonalaridan farq qiluvchi holat hisoblanadi.

Xorazmning miloddan oldingi IV asrdan – IV milodiy asrgacha bo‘lgan davrga oid ibodat me’morchiligi Baqtriya va Sug‘ddagidek shakllanmagan, balki o‘ziga xos yo‘ldan rivojlangan. Bu paytda Xorazmda ibodatxonalar ko‘pincha saroy majmualari tarkibida qurilgan. Masalan, Qo‘yqirilganqal’a va Tuproqqal’a ibodatxonalari saroy majmualari bilan bir butunlikda barpo etilgan. Biroq, bu yerda ham ibodatxonalar olovga e’tiqod (kulti) qilish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va ularda ham marosimiy olov yoqish markaziy o‘rin tutgan [35]. Xorazmda ham Chochning ayrim ibodatxonalaridagi kabi anfilada tarzida bir-biriga ulanib ketadigan yo‘lakli xonalardan iborat ibodatxonalar qurilgan [16]. Masalan, Qanqa arkidagi ibodatxonada yo‘laksimon xonalar va markaziy olov mehrobi Xorazm an’analarida ham kuzatiladi [10]. Antik davrda Xorazmda marhumlarning yetidan tozalangan suyaklarini ostadonlarga solib nauslarga dafn etish ancha rivojlangan. Bu an’ana keyinroq, Sug‘d va Chochga ham tarqalgan. Hozirgi Toshkent vohasining 100 dan ortiq joyidan ostadonlarning topilganligi mahalliy aholining Xorazm va Sug‘d aholisi bilan madaniy aloqalarini yaqqol ko‘rsatadi [2; 3; 34].

Baqtriyadagi olov ibodatxonalari, ayniqsa Taxti-Sangin va Kuxi-Xo‘ja ibodatxonalarining Chochdagi ibodatxonalar bilan ayrim jihatlardan o‘xshashligi bor. Ularda ham markaziy mehrob, qurbongoh va tokchalar tizimi kuzatiladi [40]. Chochning ilk o‘rta asrlarga oid Chilonzor Oqtepa ibodatxonasidagi kvadrat shaklidagi markaziy xona va burchaklardagi minoralar tuzilishi Baqtriyadagi Bittepa va Kobul yaqinidagi Xayr-Xona ibodatxonalari bilan qiyoslash mumkin [1; 37]. Bu holat madaniy aloqalarning keng qamrovli ekanini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Farg‘ona, Xorazm va Baqtriyaning ibodat qilishga mo‘ljallab qurilgan me’morchilik inshootlari Chochniki bilan turli jihatlardan uzviy aloqada rivojlangan. Farg‘ona bilan aloqadorligi ajdodlar ruhini e’zozlash ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, Xorazm bilan olov ibodatxonalari va ostadonli dafn marosimlariga ko‘ra aloqador bo‘lgan. Baqtriya esa megaron an’analari va olov ibodatxonalari bilan Choch me’morchiligi an’analariga yaqinlik ko‘rinadi. Shu tariqa, Choch ibodat me’morchiligi mintaqaning yirik markazlari bilan madaniy aloqadorlikda shakllanib, mahalliy an’analar va tashqi ta’sirlarni uyg‘unlashtirgan holda o‘ziga xoslik kasb etgan.

Choch vohasi qadimiy va ilk o‘rta asrlarda diniy me’morchilikning turli bosqichlariga o‘tash jarayoni voha aholisining etnik va madaniy shakllanishi, qo‘shni hududlar bilan aloqalari hamda diniy e’tiqodlar evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Chochdagi ibodatxonalarda olov mehroblari markaziy ahamiyat kasb etgan. Bu holat, bir tomondan, zardushtiylikning ta’sirini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ajdodlar kulti va qadimiy marosimiy an’analar bilan uyg‘unlashib ketganini anglatadi.

Chochdagi uy ibodatxonalari aholining kundalik hayotida diniy marosimlarning qanchalik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bunday xonalarda odatda olov yoqish, qurbonlik qilish, haykalchalar qo‘yish kabi amallar bajarilgan. Xususan, Mingo‘rik va Yunusobod Oqtepasidagi jamoaviy ibodatxonalarida ham olov mehroblari va tokchalar aniqlanganligi bu odatning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Choch ibodat me’morchiligi Xorazm, Sug‘d va Baqtriya bilan qiyoslaganda, ayrim o‘ziga xos jihatlarga ega. Sug‘d va Baqtriyada keng tarqalgan yirik jamoat ibodatxonalariga nisbatan Chochda uy ibodatxonalari va kichik ziyoratgohlar ko‘proq kuzatiladi. Bu vohada urbanizatsiya jarayonlari boshqalarga nisbatan sekin kechgani bilan ham izohlanadi. Shu bilan birga, Choch ibodatxonalarida Sug‘d me’morchiligi ta’siri kuchli bo‘lgan. Bu jarayon Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishi orqali madaniy muloqot natijasida ro‘y bergan. Xorazm bilan aloqalar esa olov ibodatxonalari va ostadonli dafn marosimlarida ko‘zga tashlanadi. Baqtriyaga ta’siri esa Chochdagi xochsimon tarhli ibodatxonalarning Baqtriyaga paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

## *XULOSA*

Choch ibodat me’morchiligi Markaziy Osiyodagi keng diniy-madaniy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U vohadagi mahalliy an’analar bilan tashqi ta’sirlarni uyg‘unlashtirgan holda shakllangan. Shu jihatdan Chochning antik davrga oid ibodatxonalari ajdodlar xotirasi (kulti), quyosh va olovga sig‘inish Sug‘d va Xorazm an’analariga qo‘shilganini, xochsimon tarhlari

orqali sak va sarmat me’morchiligi bilan uygʻunlashganini, uy ibodatxonalari orqali mahalliy aholi turmush tarzida e’tiqodning chuqur ildiz otganini koʻrsatadi. Choch ilk oʻrta asrlardagi saroy va qal’a ibodatxonalari orqali Markaziy Osiyodagi davlatchilik va diniy mafkuraning rivojiga hissa qoʻshgan. Choch ibodat me’morchiligi Markaziy Osiyoning umumiy madaniy tarixi uchun muhim ahamiyatga ega. U vohadagi mahalliy aholi tasavvurlari va urf-odatlari bilan yaqin qoʻshni hududlar — Sugʻd, Xorazm, Baqtriya va Fargʻona madaniy ta’sirlarini birlashtirgan holda rivojlangan.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI***


1. Hackin J. Recherches Archeologiques Au Col de Khair Khaneh Pres Kabul // MDAFA. 1936. t. VII.
2. Les pratiques funeraires dans L’Asie centrale sedentaire, de la conquete grecque a l’islamisation. – Paris, 1984. – P. 362.
3. Normurodov D. R. Toshkent vohasining qadimgi va oʻrta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (mil. avv. XIII – milodiy XIII asr boshlari). – Tashkent, 2023. – 83–84, 121–122-betlar.
4. Абдулгазиева Б. Стратиграфические исследования памятников шурабашатской культуры (на материалах поселения Султанабад // Фергана в древности и раннем средневековье. – Самарканд, 1994. – С. 26–30.
5. Абдулгазиева Б. Шортепа // ИМКУ. 1983. – № 18. – С. 126–135.
6. Асқаров А., Асқаров Қ., Тўхтасинов Д.И. Учтепа-Булоқмозор археологик ёдгорлиги // Водийнома. – Андижон, 2019. – №2 (13). – 11–13-бетлар.
7. Брыкина Г. А. Культы и культовые места в Фергане // Тез. конф. 90-летия Б.А.Латынина. проблемы древней истории Северного причерноморья и Средней Азии (эпоха бронзы и раннего железа). – Л., 1990. – С. 5–7.
8. Брыкина Г.А. Культы и культовые места в Фергане // Приаралье в древности и средневековье. – М., 1998. – С. 96–115.
9. Буряков Ю. Ф., Богомолов Г. И. Изучение рабадов Средневекового Харашкета // ИМКУ. 1990. – № 23. – С. 60–61.
10. Буряков Ю. Ф., Богомолов Г. И. К планировке и архитектуре раннесредневекового Хараджкета // Градостроительство и архитектура. Культура Средневекового Востока. Развитие связи и взаимодействия (с древнейших времен до наших дней). – Т., 1989. – С. 61.
11. Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1982. – С. 29.
12. Буряков Ю. Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историко-археологичеокий очерк Чача и Илака). – Ташкент, 1975. – С. 180–181.
13. Вишневская О. А., Итина М. А. Раиние саки Приаралья // МИА. Проблема скифской археологии. 1971. – № 177. – С. 197–200.
14. Воронина В. Л. Изучение архитектуры древнего Пянджикента (по материалам раскоп 1947 г.) // МИА. – М., 1950. – Вып. 15. – С. 190–191.

15. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Фергане // АСГЭ. – 1985. – Вып. 26. – С. 45–70.

16. Городиша Тупраккала. – М., 1981. – С. 41.

17. Грицина А. Изучение культовых сооружений на городище Кугаиттепа в Ташкенте // Тезесы докладов "Первая конференция молодых историков Средней Азии и Казахстана". – Дешанбе, 1984. – С. 72.

18. Грицина А. К интерпретации культовых сооружений на городище Кугаиттепа в Ташкенте // Тезесы докладов конференции. – Фрунзе, 1987. – С. 89–90.

19. Гуревич Л. Л. К интерпретации пенджикентских «капелл» // Тезисы докладов конференции «Культурные взаимосвязи нарадов Средней Азия и Кавказа с окркжающим миром в древности и средневековье». – М., 1981. – С. 45–47.

20. Древности Туябугуза. – Ташкент, 1978. – С. 102–105.

21. Заднепровскнй Ю.А. Городище Биловуртепа (Восточная Фергана) // КСИА. – № 184, № 19. – С. 46–71.

22. Зильпер Д. Г. Дворцовый комплекс городища Мингурюк в Ташкенте // История и археология Средней Азии. – Ашхабад, 1978. – С. 167–173.

23. Итина М. А. Загадочные ограды на курганных группах низовьев Сырдарьи и Южного приуралья // Древности Евразии в скифско-сарматское время. – М., 1984. – С. 78–84.

24. Кабанов С. К. Изучение стратиграфии городища Афрасиаб // СА. 1969. № 1. – С. 183–198.

25. Кадырбаев М. К. Курганные некрополи верховьев р. Илака // Древности Евразии в скифо-сарматское время. – М., 1984. – С. 91.

26. Кацурис К., Буряков Ю. Изучение ремесленного квартала античного. Мерва у северных ворот Гяур-калы // Труды ЮТАКЭ. Том XII. – Ашхабад, 1963. – С. 147–161.

27. Мерщиев М.С. Поселение Кызыл-кайнар-тобе I–VI вв. и захоронение на нем воина IV–V вв. // По следам древних культур Казахстана. – Алма-Ата, 1970, – С. 69–93.

28. Мухамеджанов А. Р., Сулейманов Р. Х., Ураков Б. Культура древнебухарского оазиса III–VI вв. – Т., 1983. – С. 111.

29. Мухитдинов И. Обычаи и обряды памирских таджиков, связанные с жилищем. Конца XIX – начало XX в // СЭ. 1982. № 2. – С. 76–83.

30. Негматов Н. Н., Хмельницкий С. Г. Средневековый Шахристан. – Душанбе, 1966. – С. 109.

31. Пугаченкова Г. А. Мечеть Анау. – Ашхабад, 1959. – С. 58.

32. Кацурис К., Буряков Ю. Изучение ремесленного квартала античного. Мерва у северных ворот Гяур-калы // Труды ЮТАКЭ. Том XII. – Ашхабад, 1963. – С. 147–149.

33. Раимкулов А. А. Культура сельских поселений Нахшеба в эпоху раннего феодализма. Автореф. дисс. … канд. ист. наук. – Самарканд, 1992. 23 с.

34. Рапопорт Ю. А. Из истории религии древнего Хорезма // ТХАЭЭ. – Том. VI. 1971. – С. 28.

35. Рапопорт Ю. А. Религия древнего Хорезма. Автореф. дис. ... доктора исторических наукю. – М., 1991. – С. 28.

36. Распопова В. И. Помещения с очагом-алтарём в древнем Пенджикенте // Культурные взаимосвязи народов Средней Азии и Кавказа с окружающим миром в древности и средневековье. Тезисы докладов конференции. – М., 1981. – С. 132–133.

37. Ртвеладзе Э. В. Средневековый могильник Биттепе в Чаганиане // СА. 1986. № 4. – С. 194–210.

38. Смагулов Е. А. Исследования древнего Туркестана: итоги раскопок 2011–2012 гг. // Поволжская Археология. № 1 (3). 2013. – С. 198.

39. Смирнов К. Ф., Попов С. А. Сарматское святилитще огня // Древности Восточной Европы. – М., 1969. – С. 210–217.

40. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. – Самарканд – Ташкент, 2000. – С. 263.

41. Усманова З. И. Раскопки мастерской ремесленника парфянского времени на городище Гяур-Кала // ТЮТАКЭ. – Том. XII. – 1963. – С. 183.

42. Филанович М. И. Система расселения и градостроительные формы ташкентского микрооазиса в древности и раннем средневековье // Культура Среднего Востока. Градостроительство и архитектура. Развитие, связи и взаимодействия (с древнейших времен до наших дней). Градостроительство и архитектура. – Ташкент, 1989. – С. 58.

43. Филанович М. И. Ташкент: Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т., 1983. табл. I.

44. Шишкин В. А. Варахша. – М., 1963. – С. 51.

***Нормуродов Д. Р.***
PhD., доцент кафедры «Археология и этнология»
Национальный университет Узбекистана
d.r.normurodov@mail.ru

# НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О КУЛЬТОВОЙ АРХИТЕКТУРЕ ЧАЧА В АНТИЧНОЕ И РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОЕ ВРЕМЯ

***АННОТАЦИЯ***

В статье проанализированы архитектурные сооружения Чачской оазисы, построенные в античное и раннесредневековое время для проведения религиозных обрядов, а также ритуалы, посвящённые солнцу, огню и почитанию памяти предков. Наряду с этим освещены появление, распространение и синтез с местными традициями крестовидных и прямоугольных в плане сооружений, а также домашних святилищ, предназначенных для культовых церемоний в Чаче и близлежащих регионах. Отмечено, что места проведения культовых обрядов в Чаче, подобно различным историко-культурным областям Средней Азии, отличались

адаптацией к семейным и общественным церемониям, имели самобытные особенности, гармонировали с храмами Согда, Бактрии, Хорезма и Ферганы и в местных условиях постепенно совершенствовались.

***Ключевые слова***: Ташкент, Чач, Согд, Бактрия, Хорезм, Шаштепа, Канка, Мингурик, сак, Ковунчинская культура, святилище.

***Normurodov D. R.***
PhD., associate professor at the department of «Archeology and ethnology»
National university of Uzbekistan
d.r.normurodov@mail.ru

# SOME REFLECTIONS ON THE RELIGIOUS ARCHITECTURE OF CHACH IN ANTIQUITY AND THE EARLY MIDDLE AGES

***ANNOTATION***

The article analyzes the architectural structures of the Chach oasis built in the Antiquity and Early Middle Ages for performing religious rituals, as well as ceremonies dedicated to the sun, fire, and the commemoration of ancestors. It also highlights the emergence, spread, and integration with local traditions of cross-shaped and rectangular-plan structures, as well as domestic sanctuaries intended for cult practices in Chach and the surrounding regions. It is noted that the ritual sites of Chach, similar to those in various historical and cultural regions of Central Asia, were adapted to family and communal ceremonies, had distinctive features, harmonized with the temples of Sogd, Bactria, Khorezm, and Fergana, and further developed under local conditions.

***Keywords:*** Tashkent, Chach, Sogd, Bactria, Khorezm, Shashtepa, Kanka, Mingurik, Saka, Qovunchi culture, sanctuary.

***Oxunjonova Sh. Yu.***
O‘zbekiston tarixi kafedrasi v.b.dotsenti., PhD
Farg‘ona davlat universiteti
oxunjonova1191@mail.ru

# SAVDO MADANIYATINING TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIY RASTALARDAN VIRTUAL BOZORLARGACHA (1996 - 2024 YILLAR)

***ANNOTATSIYA***

Maqolada O‘zbekistonda savdo madaniyatining so‘nggi yigirma yillik davrdagi transformatsiyasi o‘rganilgan. Xaridor va sotuvchilar o‘rtasidagi aloqa shakllarining an’anaviy rastalardan virtual platformalargacha bo‘lgan o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, onlayn savdo madaniyatining ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘rni va uning an’anaviy bozorlar bilan uyg‘unlik masalalari yoritiladi.

***Kalit so‘zlar:*** savdo madaniyati, virtual rastalar, raqamli iqtisodiyot, onlayn savdo, ijtimoiy-madaniy transformatsiya.

***KIRISH***

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi O‘zbekistonda savdo madaniyatining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1996–2024-yillar davomida mamlakatda an’anaviy rastalar, bozorlar va savdo inshootlari bilan bir qatorda raqamli platformalar, onlayn do‘konlar va virtual bozorlar faoliyati kengaydi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘zgarish, balki ijtimoiy-madaniy transformatsiya sifatida ham namoyon bo‘ldi.

Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda savdo munosabatlari asosan an’anaviy shaklda, ya’ni xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi bevosita muloqot asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, XXI asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab axborot texnologiyalarining rivojlanishi bu tizimga yangi sifat bosqichini olib kirdi. Internet tarmog‘ining kengayishi, plastik to‘lov vositalarining joriy etilishi, mobil ilovalar va elektron to‘lov tizimlarining paydo bo‘lishi savdo jarayonlarini soddalashtirdi, tezlashtirdi va global miqyosda raqobatbardosh shaklga keltirdi.

Ayniqsa, 2020-yildan keyingi davrda pandemiya sharoitida onlayn savdo, masofaviy xizmatlar va “elektron xarid” madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Shu tariqa, “bozor” tushunchasi ham o‘zining an’anaviy hududiy chegaralaridan chiqib, virtual muhitga ko‘chdi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda savdo madaniyatining tarixiy ildizlari, mustaqillik davrida kechgan o‘zgarishlar, raqamli iqtisodiyot ta’siri ostidagi yangi aloqa shakllari hamda xaridor–sotuvchi munosabatlarining zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari savdo madaniyatining transformatsiyasi jarayonini ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan uyg‘un holda ko‘rsatishga xizmat qiladi.

So‘nggi chorak asrda O‘zbekiston iqtisodiyoti va jamiyat hayotida bozorlarning o‘rni tubdan o‘zgardi. An’anaviy rastalardan boshlangan savdo jarayoni raqamli platformalarga ko‘chdi va yangi aloqa madaniyati shakllandi.

Xaridor bilan sotuvchi oʻrtasidagi muloqot shakllari endi nafaqat yuzma-yuz, balki virtual makonda ham kechmoqda. Bu jarayon mamlakatda “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasining amalga oshirilishi bilan hamohang boʻlib, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotning ajralmas qismiga aylandi [1].

***TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI***

1996–2024-yillar Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotiga oʻtish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va raqamli savdo tizimining shakllanish davri boʻldi. Shu jarayonda xaridor va sotuvchilar oʻrtasidagi aloqa madaniyati tubdan oʻzgardi – ya’ni, sovet davriga xos davlat doʻkonlaridagi rasmiy va sovuq munosabatlar oʻrniga, bozor iqtisodiyoti sharoitida insoniy, raqobatga asoslangan, xizmatga yoʻnaltirilgan muloqot madaniyati shakllandi. An’anaviy bozorlarda xaridor va sotuvchi oʻrtasidagi munosabatlar doimo ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga asoslangan. Savdo jarayonida suhbat, savdolashish, ishonch va doʻstona muhit asosiy oʻrin tutgan [2].

1996–2005-yillar: Bozor munosabatlariga oʻtish va an’anaviy aloqa shakllari. Ushbu davrda bozorlar va savdo rastalari asosiy savdo maydoni sifatida faoliyat yuritgan. Xaridor va sotuvchi oʻrtasidagi muloqot ogʻzaki, bevosita va ijtimoiy yaqinlikka asoslangan edi. Xaridor narxni “kelishish” orqali belgilagan, Sotuvchi esa “doimiy mijoz” bilan shaxsiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilgan. Muloqotda mahalla, qarindoshlik va ishonch omillari muhim rol oʻynagan. Bu yillarda savdo madaniyatining etik qoidalari koʻproq ogʻzaki an’anaga tayangan boʻlib, yozma shartnomalar, onlayn sharhlar yoki kafolat tizimlari hali keng tarqalmagan edi.

2006–2015-yillar: Savdo tarmoqlarining kengayishi va mijoz bilan xizmat aloqasi. Bu davrda mamlakatda supermarketlar, franchayzing doʻkonlar, xizmat koʻrsatish tarmoqlari paydo boʻldi. Aloqa madaniyati korporativ xizmat madaniyati sari oʻtdi. “Sizga qanday yordam bera olaman?” kabi professional muloqot standartlari joriy etildi. Xizmat sifati boʻyicha mijoz fikrini oʻrganish tizimlari (“feedback”, soʻrovnomalar) paydo boʻldi. Mijoz bilan muomala madaniyati boʻyicha treninglar, xodimlar uchun “servis psixologiyasi” kurslari oʻtkazila boshlandi. Bu bosqichda aloqa madaniyati endi shaxsiy tajriba va mijozni hurmat qilishga asoslangan kasbiy yondashuvga oʻta boshladi.

2016–2020-yillar: bu davrda Oʻzbekistonda raqamli savdo va virtual muloqot davri shakllandi, bunga mobil internet va 4G tarmoqlarining kengayishi, smartfonlarning ommalashuvi, toʻlov tizimlarining raqamlashtirilishi, ijtimoiy tarmoqlarning (Telegram, Instagram, Facebook) iqtisodiylashuvi hamda davlat tomonidan raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sabab boʻldi; natijada xaridor va sotuvchi oʻrtasidagi aloqa virtual platformalarga koʻchib, “online chat”, “operator bilan bogʻlanish” tizimlari, emodzi va tezkor javoblarga asoslangan yangi raqamli etik me’yorlar shakllandi, iste’mol madaniyatida esa mahsulot bilan birga xizmat sifati va muloqot madaniyati ham asosiy baholash mezoniga aylandi.Raqamli savdo va virtual muloqot davri. Internet savdosi, ijtimoiy tarmoqlardagi reklama va “online-shop” tizimlari kengaydi. Aloqa endi virtual platformalar orqali kecha boshladi.

Telegram, Instagram, Facebook sahifalari orqali xaridorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvchilar bilan bog‘lana boshladilar. “Online chat”, “operator bilan bog‘lanish”, “messenger orqali buyurtma” tizimlari shakllandi. Yangi raqamli etik qoidalar – tezkor javob berish, xushmuomalalik, emodzi va qisqa javoblar madaniyati shakllandi. Bu jarayon iste’mol madaniyatini ham o‘zgartirdi: xaridor endi faqat mahsulot emas, muloqot sifati va xizmat tezligini ham baholaydigan bo‘ldi.

2021–2024-yillar: Sun’iy intellekt, ishonch va shaffoflik davri. So‘nggi yillarda onlayn savdo platformalari – “UZUM Market”, “Asaxiy”, “OLX”, “ZoodMall” kabi tizimlar orqali muloqot yanada avtomatlashtirildi. Chat-botlar, avtomatik javob tizimlari, mijozni shaxsiylashtirilgan takliflar bilan ta’minlovchi sun’iy intellekt vositalari joriy etildi. Xaridorlar fikrlari, reytinglar va “feedback” tizimlari savdo madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. “Halol savdo”, “shaffof aloqa”, “mijoz huquqlarini himoya qilish” konsepsiyasi kuchaydi.

Natijada, aloqa madaniyati insoniylik + texnologiya sintezi asosida yangi bosqichga ko‘tarildi.Raqamli davrda bu jarayon elektron platformalarda yangi shaklga ega bo‘ldi. Masalan, Uzum Market, Asaxiy, Wildberries kabi platformalarda muloqot sharhlar, reytinglar va tezkor onlayn xizmatlar orqali amalga oshirilmoqda [3].

**Xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi yangi aloqa madaniyati (1996–2025)**

| Davr | Asosiy xususiyatlar | Aloqa shakli | Madaniyatning asosiy tamoyillari |
|---|---|---|---|
| **1996–2003** (An’anaviy rasta davri) | Savdo bozor va rastalarda, ishonch “so‘z va sha’n”ga asoslangan | Yuzma-yuz, savdolashuv, qo‘lma-qo‘l to‘lov | Ishonch, og‘zaki kelishuv, doimiy mijoz odati |
| **2004–2010** (Kartali to‘lov va huquqiy asos) | “Elektron tijorat to‘g‘risida” qonun (2004), UZCARD milliy kartasi | Yuzma-yuz + POS terminal, chek berish | Narxni rasmiylashtirish, chek orqali ishonch, savdolashuv kamayishi |
| **2011–2016** (Mobil to‘lov va chat davri) | CLICK (2011), Payme (2016) kabi mobil to‘lovlar | Telefon, SMS, messenjerlar, chek fotosi | “Tezkor to‘lov”, “skrinshot yuborish”, masofaviy aloqa |
| **2017–2019** (Kontaktless texnologiyalar) | HUMO kartasi (2019), NFC va QR to‘lov | Terminal, QR-kod, tezkor tranzaksiya | Tezlik, qulaylik, “teg-to‘la” odobi |
| **2020–2021** (Pandemiya davri) | Onlayn buyurtma, kuryer, pickup nuqtalari | Telegram/Instagram orqali chat, “live savdo” | Tez javob, trek raqam yuborish, kontaktless topshirish |
| **2022–2025** (Platformalar va omnikanal davri) | “Elektron tijorat to‘g‘risida” qonunning yangi tahriri (2022), Uzum Market ekotizimi | Marketplace chatlari, reytinglar, onlayn shartnomalar | Shaffoflik, tezkorlik, reyting-review, qaytarish siyosati, xavfsiz to‘lov |

Bunday yangicha aloqa madaniyati iste'molchida sifat, tezkorlik va kafolatga asoslangan talablarni kuchaytirdi [4].

Virtual bozorlarning ijtimoiy-madaniy hayotdagi oʻrni. Onlayn savdoning kengayishi aholining iste'mol odatlarida sezilarli oʻzgarishlarni keltirib chiqardi. Avvallari haftalik bozor sayillari nafaqat mahsulot xaridi, balki ijtimoiy muloqot maydoni ham boʻlgan [5]. Endilikda bu jarayonlarning muayyan qismi virtual makonga koʻchdi. Mobil ilovalar orqali buyurtma berish, toʻlov qilish va mahsulotni eshik oldida qabul qilish yangi turmush tarzining bir qismiga aylandi [6]. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo qilish (Instagram, Telegram doʻkonlari) ham jamiyatda yangi madaniy oʻzaro ta'sir imkoniyatlarini yaratdi.

An'anaviy rastalar va virtual savdo uygʻunligi. Shunga qaramay, an'anaviy bozorlar oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Mahalliy bozorlar hanuzgacha odamlar uchun ijtimoiy muloqot, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy almashinuvning asosiy markazi hisoblanadi [8]. Aksincha, koʻplab sotuvchilar bir vaqtning oʻzida an'anaviy rastalarda savdo qilish bilan birga, onlayn platformalarda ham faoliyat yuritmoqda. Bu uygʻunlik Oʻzbekiston savdo madaniyatining oʻziga xos xususiyati sifatida koʻrilmoqda. Savdo rastasi – bu faqat savdo nuqtasi emas edi, balki jamiyatning oʻzagi

Markaziy Osiyoda, xususan Fargʻona vodiysi, Buxoro, Samarqand singari hududlarda bozor rastasi tarixan uchta vazifani bajargan:

1. tovar ayirboshlash,
2. ijtimoiy aloqalar oʻrnatish,
3. axborot almashish.

Bu shunchaki "dokondor – xaridor" emas. Bu – kim kimni taniydi, kimning soʻzi ishonchli, qaysi oilaning mahsuloti halol, qaysi ustaning mahsuloti soxta emas. Ya'ni rasta atrofida ishonch kapitali yigʻilgan.

Bu model oʻnlab asrlar davomida mavjud boʻlgan. Bozor – rasmiy davlat tuzilmalaridan ham koʻra koʻproq tartib oʻrnatgan maydon boʻlgan davrlar bor: narxni jamoa nazorat qilgan, aybning jazosi obroʻ yoʻqotish boʻlgan. Bu juda muhim: an'anaviy bozor iqtisodiy institut boʻlishdan oldin ijtimoiy institutdir.

Endi savol: raqamli savdo shu tizimni buzdimikan yoki uni boshqa shaklga koʻchirdimi?

Tarixiy tahlil shuni koʻrsatadiki: yoʻq, u buzmagan. U koʻchirgan.

XX asr oxiri va XXI asr boshida (taxminan 1996-yildan boshlab) Internet maydonida savdo kanallari paydo boʻldi. Avval forumlar, keyin e'lon saytlari, hozir ijtimoiy tarmoqlar va marketplacelar. "Savdo joylashuvi" koʻchdi – "rasta" endi bozordagi bir kvadrat metr emas, balki profil, akkaunt, doʻkon sahifasi boʻldi.

Lekin mexanizm aynan oʻsha qolganini koʻrish mum:

Bozorda siz: "Aka, bu halolmi?" deb soʻraysiz. Onlaynda siz sharhlarni oʻqiysiz: "100ta baho, 4.9 yulduz".

Bozorda siz "tanish tavsiyasi"ga ishonasiz: "Mana shu ayol qiyma sotadi, toza qiladi". Onlaynda siz "recommended seller", "verified seller"ga ishonasiz.

Bozorda sotuvchi obroʻsini himoya qiladi: agar bugun aldasa, ertaga hech kim kelmaydi. Onlaynda sotuvchi obroʻsini reyting bilan himoya qiladi: bitta yomon sharh ham unga zarar.

Tarixchi sifatida aytamiz: bu mutlaqo yangilik emas. Bu qadimiy iqtisodiy ishonch modeli (ijtimoiy kafolatlangan savdo) endi raqamli forma oldi, xolos.

Boshqacha aytganda, “virtual bozor” texnik jihatdan yangi, lekin ijtimoiy jihatdan juda tanish.

Uyg‘unlashuv – bu “eski yo‘qolib, yangi kelishi” emas. Bu “ikkala tizim bir-birini to‘ldirishi”. 1996–2024 yillarda biz keskin o‘tish emas, balki gibridlik jarayonini ko‘rdik.

Tarixiy rivojlanish davrlari misolida ham kuzatish mumkin (masalan, industrial inqilob davrida Yevropada) ko‘pincha eski tizim yemirilib, yangi tizim keladi. Masalan, manufaktura → fabrika. Eski ustaxona o‘ladi.

Lekin Sharq savdo madaniyatida boshqacha yo‘l tanlangan: eski o‘lmaydi, qisqaradi, ixtisoslashadi, lekin ayni vaqtda yangi tizim bilan hamkorlik qiladi.

Hunarmandlar bozorda ham o‘tiradi, ijtimoiy tarmoqda ham sotadi. Oshpaz mahalliy bozorda somsa qiladi, lekin telegram orqali “yetkazib beramiz” deydi. Ayollar tikkan milliy ko‘ylaklar bir vaqtning o‘zida mahalla to‘yiga ham ketadi, boshqa viloyatga kuryer bilan ham ketadi.

Bu nimani anglatadi?

Bozor endi faqat mahalliy emas.

Lekin u milliy xususiyatni yo‘qotmagan.

Savdo geografiyasi kengaydi, savdo odobi esa ko‘chdi. Ikkisi alohida emas, tizim sifatida ishlayapti. Savdo uyg‘unlashuvi shu:

fizik rasta = sifat va ishonch;

virtual rasta = ko‘lam va tezlik.

Tarixiy jihatdan Sharq bozori har doim transchegaraviy bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li shunchaki shior emas, balki tashuvchi infratuzilma edi: karvonlar orqali mahalliy mahsulot boshqa mintaqaga chiqardi. Ya’ni mahalliy ishlab chiqaruvchi aslida hech qachon faqat mahalliy bo‘lmagan.

Raqamli savdo aslida shu karvonni tikladi. Farqi shundaki, endi karvon Telegram/marketplace ko‘rinishida.

Bu juda katta o‘zgarish: ilgari bozordagi savdogar geografik jihatdan cheklangan edi – u Marg‘ilondan chiqmasa ham, hozir uning mahsulotini Toshkent, hatto chet eldagi hamyurtlar ham sotib oladi. Bu ikkiyoqlama oqibat berdi:

Mahalliy rasta o‘z mavqeini yo‘qotmadi, aksincha “kelib ko‘rish mumkin bo‘lgan joy” sifatida yanada ahamiyati oshdi. Xaridor shunday fikr qiladi: “Men online ko‘rdim, yoqdi. Endi borib ko‘raman”. Demak, an’anaviy rasta hali ham ishonchni yakuniy tasdiqlovchi institut bo‘lib turibdi.

Virtual savdo “dunyo bilan gaplashadigan til”ni berdi: narx dollarda, yetkazib berish logistika tili, to‘lov shakli raqamli.

Natija: bozordagi sotuvchi eski ijtimoiy kapitalni (ism, obro‘, qadriyat) ishlatadi, internet esa unga bozordan tashqaridagi maydonni ochib beradi. Bu uyg‘unlikni tarixiy til bilan aytsak, bu – “ichki iqtisodning tashqi dunyoga chiqishi”ning yangi bosqichi.

An’anaviy rasta madaniyatida intizomni kim ushlardi? Jamoa. “Bu odam aldovchi” degan gap chiqqan bo‘lsa, u rasta yopishi yoki joyini almashtirishga majbur bo‘lardi. Axloqiy nazorat tirik edi, inson ko‘zi edi.

Virtual bozorda esa nazorat qisman algoritmik bo‘ldi:

platforma sotuvchini bloklaydi,

salbiy sharhlar ko‘rinadi,

“garantirovanniy qaytarish” xizmati bo‘ladi,

mijoz to‘lovni escrow (vositachi saqlovchi) orqali qiladi.

Tarixchi sifatida bu shuni anglatadi: bozordagi axloqiy mexanizm jamoadan platformaga ko‘chmoqda.

Bu esa ikki xil oqibat beradi:

Pozitiv: xaridorni himoya qilish osonlashdi.

Murakkab: savdoning insoniylik elementi kamayadi. Bozordagi “aka-singil” munosabati, “o‘zinggami olasan? Bo‘pti, tushirdim” degan qadriyat virtual savdoda qisqaradi.

Savdo madaniyatining transformatsiyasi aynan qat’iylashdi. Biz halollikni endi inson fe’li orqali emas, reyting orqali baholayapmiz. Bu yaxshi yoki yomon emas. Bu fakt. Bu tarixiy burilish. Tarixiy jarayonlar doim “kim foyda ko‘rdi?” degan savol bilan baholanadi. Uyg‘unlashuv natijasida ayniqsa quyidagi guruhlar kuchaydi:

Mikro-tadbirkor ayollar. Avval bozorda o‘tirish ijtimoiy jihatdan ham, jismonan ham qiyin bo‘lgan hollarda (uydan chiqish, bolani kim qaraydi, kechgacha savdo o‘rinda turish va hokazo), endi ular uy sharoitida pishiradi/tikadi va virtual kanallar orqali sotadi. Bu iqtisodiy mustaqillikning oshishiga xizmat qiladi. Bu ijtimoiy tarix nuqtai nazaridan ulkan siljish.

Hunarmandlar. Oldin ular faqat turist kelganida sotardi. Hozir esa o‘zi turistni topadi. U endi faqat ustaning o‘zi emas, brend.

Mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar. “Uy taomi”, “uy quritilgan mevalar”, “fermerdan bevosita” kabi kontseptlar endi raqamli ko‘rinishga ega. Demak, bozordagi “ishonchli tanish” funksiyasini virtual kanalga ko‘chdi.

Tarixiy nuqtai nazardan ko‘rsak, 1996–2024 yillarda sodir bo‘lgan jarayon “an’anaviy bozorlar yo‘q bo‘ldi” emas. Aksincha: an’anaviy bozorlar o‘zini raqamli maydonga ko‘chirdi, o‘z ruhini, o‘z etik normalarini va hattoki o‘z tilini olib chiqdi.

Bu shuni anglatadiki, biz hozir guvoh bo‘layotgan jarayon – bu Sharq bozori madaniyatining so‘nishi emas. Bu uning yangi bosqichga kirishi.

Ya’ni, bugungi virtual savdo – aslida kechagi rasta davomidir. Faqat joylashuvi boshqa. Yaqin yillarda gibrid savdo modeli – ya’ni an’anaviy rastalar va virtual savdoning qo‘shilib ketishi – yanada rivojlanishi kutilmoqda [9].

***XULOSA***

Savdo madaniyatining transformatsiyasi O‘zbekistonda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy hayotning ham yangilanishiga olib keldi. Xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi yangi aloqa madaniyati ishonch, tezkorlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanmoqda. Virtual bozorlarning kengayishi aholining turmush tarziga yangi

elementlarni olib kirgan boʻlsa-da, an'anaviy rastalar bilan uygʻunlikda mavjudligi milliy savdo madaniyatining barqarorligini ta'minlamoqda. 1996–2024-yillar oraligʻida Oʻzbekiston savdo tizimida yuz bergan oʻzgarishlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. Ushbu davrda mamlakatda bozor iqtisodiyotiga oʻtish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi, natijada savdo madaniyati yangi bosqichga koʻtarildi. An'anaviy rastalarga asoslangan, bevosita muloqotga tayanadigan savdo shakllari oʻrnini raqamli texnologiyalarga asoslangan virtual bozorlarga ega, ochiq va interaktiv savdo madaniyati egalladi.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR ROʻYXATI***

1. "Raqamli Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni, 2020-yil.
2. Abdurahmonov A. Oʻzbek xalqining bozor madaniyati tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Uzum Market rasmiy sayti: www.uzum.uz (2024).
4. Kotler P., Keller K. Marketing Management. – Pearson, 2016.
5. Saidov U. Bozor va jamiyat: tarixiy-sotsiologik tahlil. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi ma'lumotlari, 2022.
7. Joʻrayev H. Milliy an'analar va bozor munosabatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2018.
8. UNCTAD. Digital Economy Report 2021. – New York, United Nations, 2021.

***Охунжонова Ш. Ю.***
PhD., и.о. доцента кафедры «История Узбекистана»
Ферганский государственный университет
oxunjonova1191@mail.ru

## ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВОЙ КУЛЬТУРЫ: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ РЯДОВ ДО ВИРТУАЛЬНЫХ РЫНКОВ (1996–2024 ГОДЫ)

***АННОТАЦИЯ***

В статье исследуется трансформация торговой культуры Узбекистана за последние двадцать лет. Анализируются изменения форм коммуникации между покупателями и продавцами – от традиционных прилавков до виртуальных платформ. Также рассматривается роль онлайн-торговой культуры в социально-культурной жизни и её взаимосвязь с традиционными рынками.

***Ключевые слова:*** торговая культура, виртуальные прилавки, цифровая экономика, онлайн-торговля, социально-культурная трансформация.

***Oxunjonova Sh. Yu.***
PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»
Fergana state university
oxunjonova1191@mail.ru

# TRANSFORMATION OF TRADE CULTURE: FROM TRADITIONAL STALLS TO VIRTUAL MARKETS (1996–2024)

***ABSRACT***

The article examines the transformation of trade culture in Uzbekistan over the past twenty years. It analyzes the evolution of communication between buyers and sellers – from traditional market stalls to virtual platforms. The study also highlights the role of online trade culture in socio-cultural life and its interaction with traditional marketplaces.

***Keywords:*** trade culture, virtual stalls, digital economy, online trade, socio-cultural transformation.

***Shamsiyeva M. X.***
«Jaxon tarixi» kafedrasi dotsent., PhD
Farg‘ona davlat universiteti
shamsiyevamaxfiza@gmail.com

# XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA GENDER TENGLIK TAMOYILINING ILMIY TALQINI

***ANNOTASIYA***

Ushbu maqolada gender tenglik tamoyilining shakllanishi va uning tarixshunoslikdagi o‘rni, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab gender tarixining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanishi, ayniqsa Joan Vallach Scott, Gerda Lerner, Sheyla Roubotem, Bonnie G. Smit hamda Merry Viesner-Hanks kabi tadqiqotchilarning ilmiy hissalari, gender tarixshunosligi insoniyat tarixini yangicha – tenglik, madaniyatlararo va ko‘p markazli yondashuv asosida talqin etuvchi zamonaviy ilmiy paradigma sifatida namoyon bo‘layotgani yoritilgan.

***Kalit so`zlar****:* Gender, ayollar, olim, tarixshunoslik, feminism, patriarxiya, kategoriya, erkaklar.

***KIRISH***

So‘nggi o‘n yilliklarda tarix fanida gender masalalariga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortdi. Gender tenglik tamoyili jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi konseptual yo‘nalish sifatida shakllandi. Mazkur tamoyil insonni shaxs sifatida kamol toptirishga to‘sqinlik qiluvchi barcha ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy to‘siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishni ko‘zda tutadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab gender yondashuv tarixshunoslikda yangi metodologik paradigma sifatida shakllanib, tarixiy jarayonlarni faqat erkaklar tajribasi asosida emas, balki ayollar va boshqa ijtimoiy guruhlar nuqtai nazaridan ham o‘rganish zarurligini ilgari surdi.

Bugungi kunda gender tarixshunosligi insoniyat tarixini qayta talqin etuvchi, tenglik, madaniyatlararo va ko‘p markazli yondashuvlarga asoslangan zamonaviy ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda.

Xususan, Yevro‘pa tadqiqotchilari gender masalasida hamda ayollar hayotida vujudga kelgan muammolarning amaliy va nazariy yechimlarini izlash masalalari bilan muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borishmoqda.

***TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI***

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab gender tenglik masalasi tarixshunoslikda mustaqil tahliliy yo‘nalish sifatida shakllandi. Tarixiy jarayonlarni faqat erkaklar faoliyati orqali tahlil qilish ilmiy manzarani chegaralab qo‘ygan. XX asr o‘rtalaridan boshlab ayollar tarixi va gender tahlili yangi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu sohada amerikalik ingliz va yevropalik olimlar, xususan, Joan Wallach Scott, Gerda Lerner, Sheila Rowbotham hamda Bonnie G. Smit katta

hissa qo‘shdilar. Ularning ishlari gender tenglikni tarixiy, falsafiy va madaniy jarayon sifatida o‘rganishga zamin yaratdi.

Bu jarayonda Joan Vallach Scottning hissasi beqiyosdir. Uning 1986-yilda chop etilgan mashhur maqolasi – *“Gender: A Useful Category of Historical Analysis” (*Gender: tarixiy tahlilning foydali kategoriyasi) – genderni tarixiy tahlilning metodologik kategoriyasi sifatida ilmiy muomalaga kiritdi. Skottning ta’kidlashicha, “gender” faqat biologik tafovut emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni tashkil etuvchi kuch tizimidir. U til, hokimiyat va tajriba o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, tarixni erkaklar nuqtai nazaridan yozish an’anasi natijasida ayollar tajribasi chetlab qolganini ko‘rsatadi. Shu bois u tarixiy voqealarni tahlil etishda **“**gender kategoriyasi”ni qo‘llashni taklif etadi [1].

Skott yondashuvi natijasida gender tarixi – ya’ni tarixda ayollar, erkaklar va ijtimoiy jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi yo‘nalish – tarixshunoslikda yangi usul sifatida shakllandi.

Amerikalik tarixchi va feminist Gerda Lerner esa ayollar tarixini o‘rganishning nazariy asoslarini yaratgan ilk tarixchilardan biridir. Uning “The Creation of Patriarchy” (“Patriarxiyaning yaratilishi”) nomli asarida qadimgi davrlardan boshlab ayollarni ijtimoiy hayotdan chetlashtirish jarayonini tahlil qiladi va patriarxal tizimning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Ushbu asarda patriarxiya - ya’ni erkaklar hukmronligidagi ijtimoiy tuzum - tabiiy yoki tug‘ma holat emas, balki tarixiy jarayon orqali shakllanganligini, patriarxiyaning ildizlarini Qadimgi Mesopotamiya jamiyatlari, xususan, shumer va bobil sivilizatsiyalari bo`lganligini ko‘rsatadi. Gerda Lerner qadimgi davrlarda ayollarning qullikka aylantirilishi patriarxiyaning rivojlanishiga katalizator bo‘lganini ko‘rsatadi [2].

Lerner ayollarning tarixdagi rolini faollashtirish orqali ijtimoiy adolat g‘oyasini ilgari surib, Gender tarixshunosligining metodologik chegaralarini kengaytirdi.

Ingliz tarixchisi va sotsialistik feminizm nazariyotchisi, Britaniya Feministlar Jamiyatining faxriy a’zosi Sheyla Roubotem ayollar tarixi va gender tenglik masalasida tadqiqotlar olib borib, tarixda ayollar mehnati va tajribasining “ko‘rinmas” bo‘lib kelganini ko‘rsatib berdi. Sheyla Roubotemning: “Hidden from history: 300 years of women's oppression and the fight against it” (“Tarixdan yashirin: 300-yillik ayollar zulmi va unga qarshi kurash”) asari orqali ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi faoliyati tarixshunoslik markaziga qaytarildi [3].

Sheyla Roubotemning ushbu asarida tug`ilish, feminism, kasaba uyushmalari, oila masalalari tahlil etilgan. Olima tarixda feministik yondashuvni amalga oshirish borasida uchta taklifni berib o`tadi: o`tmishdagi ayollar bilan “romantik hamdardlik” orqali tanishish; “sanoqsiz yolg`iz ayollar”ni tadqiq etish orqali tarixni qayta tiklash; ayollarning siyosiy inqiloblar, tashkilotlar, kasaba uyushmalari va “sufrajizm yoki tinchlik harakatlari”da tutgan rolini tahlil qilish.

Shuni aytib o`tish joizki, Sheyla Roubotemning tadqiqoti ayrim tanqidchilar tomonidan tanqid qilinib, o`tmishni romantik idealizatsiya qilish yoki faqat “qahramon ayollar”ni ta’riflash, ularning hayoti va mehnatini chetga surib qo`yish xavfini keltirib chiqarishi mumkinligi haqida uqtirib o`tishgan.

Sheyla Roubotamning asari feministik tarixshunoslikda muhim, lekin ilmiy metodologik jihatdan murakkab va ayrim jihatlari bilan bahsli deb baholanadi.Asar ayollar tarixini yoritishga qaratilgan ilk jiddiy urinishlardan biri boʻlsa-da, chuqur tahlilning yetishmasligi sababli uning yutuqlari bilan birgalikda kamchiliklari ham ko`zga tashlanadi [4].

Amerikalik tarixchi-feminist, hozirda Ratlgers universitetining (Nyu-Brunsvik) tarix boʻyicha faxriy professori va Vasiylar kengashi a’zosi Bonnie G. Smit oʻz tadqiqotlarida tarixshunoslikning oʻzini gender nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Smit tarix fanida erkaklar hukmronligi natijasida ayollarning tajribalari koʻpincha e’tibordan chetda qolganini koʻrsatadi. Uning *“*The Gender of History: Men, Women, and Historical Practice*”* (“Tarixning jinsi: erkaklar, ayollar va tarixiy amaliyot”) asarida tarix fani metodologiyasiga gender yondashuvni kiritdi va tarixiy tahlilda gender yondashuvining zarurligini asoslaydi. Uning fikriga koʻra, tarix yozuvlari uzoq vaqt davomida erkaklar tajribasiga asoslangan boʻlib, ayollarning tarixdagi oʻrni “ilmiy emas” deb hisoblangan. Smit tarixshunoslikdagi bu gender tarafkashligini ochib beradi va tarixni yozishda ayollar ovozini tiklashni taklif etadi [5].

Amerikalik tarixchi Merry Viesner-Hanksning “Gender in History: Global Perspectives” (Tarixda gender masalalari: jahon miqyosidagi yondashuv) asarida ayollar tarixi, gender tarixini global miqyosda oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, u qadim zamonlardan to zamonaviy davrgacha ayollar va erkaklar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar**,** gender rollari va madaniy tizimlarning shakllanishini tahlil qilgan.

Uning fikricha, “Genderni oʻrganish tarixning bir boʻlagi” deb tan olishdir. Ya’ni, tarixda kim boʻlishidan qat’i nazar – ayol yoki erkak, fohisha yoki uning mijoz, ruhoniy yoki folbin, me’mor yoki kashtachi ayol – ularning barchasi tarixning muhim qismidir. Genderni “optik linza” sifatida ishlatganimizda, biz koʻrish doiramizni toraytirmaymiz, aksincha, uni bir vaqtning oʻzida ham keskinlashtiramiz, ham kengaytiramiz. Shunday qilib, optika fanida bu imkonsiz boʻlishi mumkin, ammo tarixiy tahlilda biz bir vaqtning oʻzida ham “teleob’yektiv”, ham “keng burchakli” linzaning afzalliklariga ega boʻlamiz [6].

Wiesner-Hanks genderni Yevropaga qaratilgan tor nuqtai nazar bilan emas, balki global yondashuv asosida Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq, Amerika mahalliy xalqlarining tarixi bilan birga koʻrib chiqishi tarixshunoslikda ilmiy yangilik bo`ldi. Aytish joizki, asar koʻplab universitetlarda gender tarixshunosligi boʻyicha asosiy darslik sifatida oʻqitiladi.

Gender tarixshunosligi soʻnggi ellik yil ichida tarix fanining eng muhim nazariy burilishlaridan biriga aylandi. Ushbu yoʻnalishning shakllanishi va rivojlanishida Joan W. Scott, Gerda Lerner, Sheyla Roubotem, Joan Kelly, Gayle Rubin, Natalie Zemon Davis, Dorothy Ko kabi olimlarning ishlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrga kelib, gender tarixshunosligi Gʻarb doirasidan chiqib koʻp madaniyatli, koʻp markazli ilmiy yoʻnalish sifatida rivojlandi.

Umuman olganda, gender tarixshunosligi bugungi kunda nafaqat ayollar tarixini, balki insoniyat tajribasining barcha ijtimoiy, madaniy va siyosiy qatlamlarini chuqur tahlil qiluvchi keng qamrovli ilmiy yoʻnalishga aylandi.

***XULOSA***

XX asr tarixshunosligida gender tenglik tamoyilining shakllanishi insoniyat tarixini qayta anglash jarayonida tub burilish yasadi. Avvallari tarixiy jarayonlar asosan erkaklar faoliyati asosida talqin etilgan bo‘lsa, gender yondashuv paydo bo‘lishi bilan ayollar, erkaklar va boshqa ijtimoiy guruhlar tajribasi tarixiy tahlil markaziga aylandi.

Aytish joizki, arxiv va tarixiy manbalarni gender nuqtai nazaridan qayta tahlil qilish jamiyatda adolat, tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda ayollar va boshqa ijtimoiy guruhlarning tarixdagi o‘rnini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

***FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI***


1. Joan W. Scott — “Gender: A Useful Category of Historical Analysis”. The American Historical Review, Vol. 91, No. 5 (Dec 1986), pp. 1053–1075
2. Gerda Lerner — The Creation of Patriarchy. Oxford University Press ed., 1986 – P. 318 (internet resurs)
3. Sheila Rowbotham — Hidden from History: 300 Years of Women’s Oppression and the Fight Against It. London : Pluto Press., 1977– P. 182. (internet resurs)
4. Barbara J. Berg**.** Review of *Hidden From History* by Sheila Rowbotham, and *Woman's Work* by Ann Oakley. *The American Historical Review*, Vol. 80, No. 3 (Jun., 1975), pp. 681–683.
5. Smith, Bonnie G. *The Gender of History: Men, Women, and Historical Practice*. Harvard University Press, 1998. – P. 322. (internet resurs)
6. Merry Viesner-Hanks. Gender in History: Global Perspectives. – Global Perspectives.Wily-Blackwell, 2011. – P. 304.



***Шамсиева М. Х.***
PhD., доцент кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
shamsiyevamaxfiza@gmail.com


## НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРИНЦИПА ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ИСТОРИОГРАФИИ XX ВЕКА


***АННОТАЦИЯ***

В данной статье рассматриваются формирование принципа гендерного равенства и его место в историографии, развитие гендерной истории как самостоятельного научного направления со второй половины XX века, а также научный вклад таких исследователей, как Джоан Валлах Скотт, Герда Лернер, Шейла Роуботэм, Бонни Г. Смит и Мерри Виснер-Хэнкс. Подчеркивается, что гендерная историография в современный период выступает как новая научная парадигма, интерпретирующая историю

человечества на основе принципов равенства, межкультурного и полицентрического подхода.

***Ключевые слова:*** Гендер, женщины, учёный, историография, феминизм, патриархат, категория, мужчины.

***Shamsieva M. Kh.***
PhD., associate professor at the department of «World history»
Fergana State University
shamsiyevamaxfiza@gmail.com

## THE SCIENTIFIC INTERPRETATION OF THE PRINCIPLE OF GENDER EQUALITY IN 20TH-CENTURY HISTORIOGRAPHY

***ABSTRACT***

This article examines the formation of the principle of gender equality and its place in historiography, the development of gender history as an independent field of study since the second half of the twentieth century, as well as the scholarly contributions of researchers such as Joan Wallach Scott, Gerda Lerner, Sheila Rowbotham, Bonnie G. Smith, and Merry Wiesner-Hanks. It is emphasized that in the modern period, gender historiography represents a new scientific paradigm that interprets human history through the principles of equality, intercultural dialogue, and a polycentric approach.

***Keywords:*** Gender, women, scientist, historiography, feminism, patriarchy, category, men.